

**B.R.Djurayeva,
X.A.Umarova, X.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova**


**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA
TA'LIM JARAYONI SIFATI VA
SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING
PEDAGOGIK TIZIMI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON
PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

**B.R.Djurayeva, X.A.Umarova, X.M.Tojiboyeva,
G.M.Nazirova**

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM
JARAYONI SIFATI VA SAMARADORLIGINI
TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI**



**TOSHKENT
"LESSON PRESS"
2017**

UO‘K 831.2(578,1)

KBK 37.410

D37

Djurayeva B.R. va boshqalar.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi. B.R.Djurayeva, X.A.Umarova, X.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. Monografiya. –T.: “Lesson press” nashriyoti. – 160 b.

Mazkur monografiyada maktabgacha ta’lim mazmunini integratsiyalashning pedagogik zaruriyati, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar tarbiyasida ota-onalar bilan samarali hamkorlik va shaxsga yo’naltirilgan yondashuvlar, maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalari, maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan, pedagogik jarayonlarning o’ziga xos xususiyatlari, maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar hamda ularning sifati va samaradorligini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik kadrlarini boshqarishning o’ziga xos xususiyatlari, hamda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning barkamol rivojlanishlari bo’yicha pedagoglar va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Monografiya **П3-2014-0906083753** – raqamli **“Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi”** mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida tayyorlangan.

Taqrizchilar:

pedagogika fanlari doktori, professor

F.R.Qodirova

pedagogika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

A.P.Sulaymonov

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Ilmiy kengashi qarori (26.09.2017 №8) bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-5077-3-9

© O‘zPFITI, 2017

© “Lesson press” nashriyoti, 2017

KIRISH

Maktabgacha ta'limni davr talablari asosida takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatida ustuvor o'rin egallamoqda. Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bolalarni intellektual, jismoniy, ma'naviy rivojlantirish, ularni maktab ta'limiga samarali tayyorlashdan iborat.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi hukumati, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707 sonli qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligi bejiz emas.

Mazkur qaror maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini birday rivojlantirish, mazkur tizimga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, pedagoglarning innovatsion faoliyati ko'lamini darajasini kengaytirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim qamrovini to'liq ta'minlash, bolalarni maktabga tayyorlashning samarali mexanizmlarini joriy etish kabi vazifalarni yanada dolzarblashtirdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyulda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 528-sonli qarorida maktabgacha ta'lim oldida turgan asosiy vazifalar belgilab berildi. Ular: bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish; bolalarni ta'lim va tarbiya orqali maktabga sifatli tayyorlash; bolalarni maktabgacha ta'limga jalb qilish kabilar.

Amaldagi huquqiy-me'yoriy asoslarga ko'ra davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni 3 yoshdan qabul qilish nazarda tutildi. Bu tibbiy, pedagogik, psixologik, metodik jihatdan maqsadga muvofiq

bo'lib, bolalar uch yoshga to'lganda o'z fikrini ifodalash, mustaqil ovqatlanish, o'yin faoliyatiga kirishish, atrof-muhitdagi narsa-buyumlarga o'z qiziqishlarini bayon qilish, tengdoshlari bilan o'zaro muloqot o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu bolalarni jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va salomatligini muhofaza qilish, ularning erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan shaxs sifatida shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bu o'z navbatida, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini yangicha yondashuv asosida takomillashtirish, ularda amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarni yangi mazmun va innovatsion texnologiyalar bilan boyitish imkonini beradi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish, ushbu tizimni boshqarish infrastrukturasi takomillashtirish vazifasi qo'yilib, ilmiy-metodik ta'minotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xuddi shunday keng ko'lamli ishlar sirasiga II3-2014-0906083753 - "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi" amaliy tadqiqot loyihasi doirasida yaratilgan mazkur monografiya maktabgacha ta'lim sohasidagi yangicha yondashuvlar, tajribalarni ommalashtirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda istiqbolda mazkur tizimni yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shishiga umid bildiramiz.

I BOB. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR TA'LIM-TARBIYASINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

1.1 Maktabgacha ta'lim mazmunini integratsiyalashning pedagogik zaruriyati

Sifat darajasini e'tirof etish va uni hayotning barcha sohalariga, jumladan, ayniqsa inson va jamiyat bo'lg'usi hayotiy faoliyatining qiyofasini belgilovchi va shakllantiruvchi ta'lim sohasiga singdirish inson hamjamiyatining zamonaviy taraqqiyotiga xosdir.

Tadqiqot yo'nalishidagi mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, tajribalar tahlili sifatga yo'naltirilgan maktabgacha ta'limning maqsadli funksiyalari quyidagilardan iborat ekanligini e'tirof etish imkonini berdi:

Birinchi, salomatlikni asrovchi funksiya, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi jarayoni ularning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib tashkil etilishda va amalga oshirilishda namoyon bo'ladi, shuningdek, bola vujudining aniq ekologik va ijtimoiy muhitda barqaror moslashuvini saqlashga yo'naltirilgan bo'ladi;

Ikkinchi – rivojlantiruvchi funksiya, ta'lim jarayonining "barkamol shaxs" asosini shakllantirishga qaratilganligidan iboratdir, bu "...bolaning aqliy, ma'naviy va jismoniy layoqatlarini to'laqonli" ("Bola huquqlari to'g'risida konvensiya", 29-modda) rivojlantirishda barcha bolalarga teng dastlabki shart-sharoitni ta'minlash (BMT konvensiyasi) bilan to'la bog'liqdir;

Uchinchi – tuzatuvchi funksiya, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni malakali tuzatishni amalga oshirish bilan bog'liq;

To'rtinchi – yosh davriga muvofiq bola rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishida uzviylikni ta'minlash funksiyasi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan prinsiplarga quyidagilar kiradi:

barcha asosiy yo'llar bo'yicha bolaning to'laqonli rivojlanishini ta'minlash prinsipi;

bolaning yosh va shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun maktabgacha ta'limning o'zini-o'zi qoplashi prinsipi;

ta'lim jarayonini amaliy tashkil etish prinsipi, u yetakchi va o'ziga xos bolalar faoliyat turlarining o'zaro bog'liqligiga, bola rivojlanishining amaliy asoslarini predmetli boyitishni taqozo qiluvchi zaruratga asoslanadi; maktabgacha ta'limning shaxsga qaratilganlik tavsifi; bola tomonidan ijtimoiy-madaniy tajribani ijodiy "o'zlashtirishni" ta'minlash prinsipi, u ijodiy faoliyatni shakllantirish vositalarini "ishga solishni" nazarda tutadi; ularni amalga oshirish maqsadlari va vositalarining birligi prinsipi.

Maktabgacha bolalikning o'z qiymatini saqlash nuqtai nazaridan ta'lim jarayonini tashkil etishga va amalga oshirishga qaratilgan sanab o'tilgan prinsiplarni biz sifatga yo'naltirilgan maktabgacha ta'limning qadriyat hosil qiluvchi me'yoriy asosi sifatida ko'rib chiqamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'lumot olishiga davlat belgilaydigan me'yorlar va talablar sifati ularning jamiyat ijtimoiy-madaniy ehtiyojlariga mosligi, shuningdek, ularning bolani rivojlantirishning to'laqonli va yaxlitligini ta'minlash bilan birga maktabgacha ta'lim bolalikning o'z mohiyatini saqlashga yo'naltirilganligi bilan aniqlanadi.

Ta'lim jarayoni sifati uning mazmuni, shakl va usullarining sifati, uning ishtirokchilarining o'zaro hamjihatligi bilan ta'minlanadi. Resurs ta'minoti jarayonining sifati kadrlar, moliya-iqtisodiy, dasturiy-uslubiy, psixologik, sanitariya-gigiyenik va tibbiy sog'lomlashtirish, ijtimoiy-pedagogik resurslar va shart-sharoitlarning sifatidan tarkib topadi.

Natijalarning sifati bolalarning salomatligi holati, bolalarning shaxsiy yutuqlari, pedagoglarning shaxsiy kasbiy yutuqlari, maktabgacha ta'lim muassasasining yutuqlari kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim dasturining tuzilishi va mazmuniga qo'yiladigan davlat talablarini amalga oshirish sharoitlarida undan o'quv faoliyati shaklidagi ta'lim jarayoni, maktabgacha ta'lim yosh davridagi bolaning rivojlanish qonuniyatlariga mos kelmasligi tufayli, istisno etilgan edi. Shu sababli MTM pedagoglari oldida maktabgacha ta'limning modernizatsiyalashgan mazmuni asosidagi bolalar bilan ishlashning muqobil shakllari va metodlarini izlash vazifasi mavjud. Integratsiyalashgan ta'lim va tarbiya mazmunini aniqlash va tanlash muammosi bo'yicha xalqaro ilmiy-uslubiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish, O'zbekiston Respublikasi MTMlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etishning ahamiyatli yondashuvlari va zamonaviy texnologiyalarini belgilash imkonini berdi.

Maktabgacha ta'lim mazmuni integratsiyalashuvining o'ziga xosligi hozirgi vaqtda shakllangan muayyan shartlar asosida yuzaga keladi. Bu pedagog va bolaning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida ta'limiy ishlarni amalga oshirishning yetakchi tamoyillari, yo'llari va vositalarini belgilovchi bolalar ta'limi yondashuvlariga taalluqli.

Rus olimi M.V.Lazarevaning integratsiyalashgan yondashuvi misolida maktabgacha ta'limning asosiy komponentlarining o'zaro aloqasi xususiyatlari ochib berilgan¹.

Integratsiyalashgan yondashuv – uning yaxlitlik darajasini oshirishga olib keluvchi, tarbiya va rivojlanishning u yoki bu maqsadlari va vazifalariga muvofiq tarzda pedagogik jarayonning ixtiyoriy komponentlaridagi o'zaro aloqadorlik va o'zaro munosabatlar g'oyalarini aks ettiradi.

Maktabgacha ta'limga integratsiyalashgan yondashuv quyidagilardan iborat:

- atrof-olam to'g'risidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirish asosida shaxsning rivojlanishi va tarbiyasining dolzarb maqsad va vazifalarini amalga oshirish;

- tarbiya va rivojlanishning nafaqat mazmunli, balki rasmiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish;

- dasturning turli bo'limlari (turlararo integratsiya) va bo'limlari ichidagi (tur ichidagi integratsiya) tarkibiy qismlari mazmunining aloqadorligini kuchaytirish;

- ta'lim va tarbiya jarayonining metod, usullarining o'zaro munosabati (metodik integratsiya);

- bolalar faoliyati turlarining sintezi;

- ta'limni tashkil etishning integratsiyalashgan shakllarini joriy etish: murakkab tuzilishga ega integratsiyalashgan mashg'ulotlar, mashg'ulotlar davomiyligi, mavzuga oid kunlar.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning integratsiyalashgan ta'limi, o'z mohiyatiga ko'ra, shaxsga yo'naltirilgan hisoblanadi, chunki undagi e'tibor bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga ko'chirilgan. Bunda bilim, ko'nikma va malakalar tarbiya va rivojlanish vositasi sifatida

¹ *Лазарева М. В. Интегрированное обучение детей в дошкольных образовательных учреждениях. Автореф. дис... д-ра пед. наук М., 2010.*

namoyon bo'ladi. Integratsiyalashgan ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- ta'lim mazmunining hayotiy zarur bilishga doir materiallar, bilishga doir vazifalar bilan boyitilganligi, ularni hal qilishga intilish yangilikni o'rganishga undaydi;

- pedagog shaxsining kongruentligi, ya'ni o'zini hissiyotlari fikrlariga mos ravishda tutish, o'zining haqiqiy "men"ini namoyon etish, bu bolalardagi zo'riqish va psixologik himoya holatini yengadi, unga qanday bo'lsa shundayligicha o'zini tutishiga va o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishiga imkon beradi;

- farovon psixologik muhitni yaratishga olib keluvchi bolani shartsiz ravishda tushunish va qabul qilish, unga nisbatan ijobiy munosabat;

- shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirishga tayanish, ta'lim jarayonida uning ichki imkoniyatlarini aniqlash va namoyon etish, shaxsiy o'sishiga undash.

Integratsiyalashgan ta'limga **aksiologik yondashuv** quyidagilarda aks etadi:

- bolaning atrof-olamga, o'z-o'ziga qadriyatli munosabati asoslarini shakllantirish;

- faoliyatning sodda madaniy usullarini egallash;

- kattalar va boshqa bolalar bilan muloqot madaniyati me'yorlariga mos bo'lgan shaxslararo munosabatlarni shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar integratsiyalashgan ta'limiga aksiologik yondashuv olamning yaxlit tasvirini tushunishga asoslangan atrof-olamga qadriyatli munosabatni shakllantirishni va qadriyatlar asosida atrof-olamning yaxlit obrazini anglash va loyihalashni aks ettiradi; qadriyatli munosabatlar, qadriyatli me'yorlar (atrofdagi insonlarga, o'z-o'ziga, turli faoliyat turlariga, san'at asarlariga, kattalar mehnati va boshqalarga), qadriyatli sifatlar (mehrbonlik, hamdardlik, tartiblilik va boshqalar)ni shakllantirish maqsadida qadriyatlar yaxlit tizimiga o'rgatish.

Integratsiyalashgan ta'limga **faoliyatli yondashuv** quyidagi belgilarning namoyon bo'lishida aks etadi: asosiy e'tibor bolalarning xilma-xil faoliyat turlarini tashkil etilishiga qaratiladi; tarbiyachi nafaqat belgilangan bilimlar majmuasini taqdim etuvchi, balki pedagogik jarayonning tashkilotchisi sifatida qatnashadi; bilishga oid material ta'limning maqsadi sifatida emas, balki faoliyatni o'zlashtirish vositasi

sifatida qo'llaniladi; malakalar atrofidagi hayot to'g'risidagi o'zaro bog'liq bilimlarni o'zlashtirish orqali shakllanadi;

- maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning atrof-olamdagi predmetlar va hodisalar to'g'risidagi tasavvurlarining yaxlit shakllanishi predmetlar, obyektlar va ularning qismlari orasidagi mantiqiy aloqadorlikning ko'rgazmali taqdim etilishida samarali amalga oshadi;

- bilish faoliyatida bilimlarni mustahkamlash va qo'llash orqali ularning sifatini tekshirishning zaruriyati;

- maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning bilish jarayonlarida hissiy va ratsional hodisalar yaxlitligini ta'minlash;

- bilimlarni o'zlashtirish usuli sifatida bilish jarayonida izlanish metodlarini qo'llash;

- bolaning imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi uchun ijodiy pedagogik jarayonlarni yaratish.

Kompleks yondashuv – integratsiyalashgan ta'limning xususiy holati, integratsiyalashgan ta'limda o'zaro bog'liq san'at turlari va bolalar badiiy-estetik faoliyati turlarini qo'llashda namoyon bo'lib, quyidagilarni inobatga oladi:

- san'at va umumiylikning o'zaro aloqasi – san'atning obrazli-badiiy tabiati yaxlitligini yaratish;

- har bir san'at turining o'ziga xosligi;

- hissiy va mantiqiy o'zaro aloqadorligi (turli analizatorlarning o'zaro ta'siriga asoslangan holda);

- har xil san'at turlarining o'zaro ta'sir xususiyatlari;

- ijodiy faollik (bolaning reproduktiv darajadan ijodiyga o'tishi; motiv – biror san'at turiga qiziqish, moyillik; faollik asosi – badiiy-estetik bilimlar, hissiy ta'sirchanlik, tasavvurning rivojlanganligi, hayotiy hodisalarni estetik baholash qobiliyati).

Integratsiyalashgan ta'lim konsepsiyasi tayanuvchi keyingi yondashuvlar guruhi uning tuzilish xususiyatlarini belgilaydi: tizimli, funksional-tuzilishli va texnologik yondashuv.

Integratsiyalashgan ta'lim maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning bilimlarini tizimli shakllantirish zarurligi to'g'risidagi, faqat shunday sifatdagina ular shaxsiy-ahamiyatli xususiyat kasb etishi va bolaning rivojlanishi, tarbiyasida samarali bo'lishi to'g'risidagi **tizimli yondashuv** holatlariga asoslanadi.

Tizimli yondashuvdan kelib chiqadigan **funksional tuzilishli**

yondashuv integratsiyalashgan ta'limni undagi har bir komponentni funksional sifatida uni boshqasi bilan ahamiyatli aloqadorlik va bog'liqlik orqali solishtirish yordamida aniqlanuvchi yaxlitlik sifatida qarashga imkon beradi.

Texnologik yondashuv tashxis va bashorat qilinadigan natijaga erishishni ta'minlovchi harakatlar, operatsiyalar va jarayonlar belgilangan ketma-ketligidagi pedagogik jarayonni qurishning tizimli usulini nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning integratsiyalashgan ta'limi konseptual asoslari sifatidagi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning umumiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- shaxsga yo'naltirilgan mazmunni tahlil qilish va tanlash;
- ta'limiy vaziyatni tashxis qilish; ta'lim oluvchilarning psixik xususiyatlarini inobatga olish;
- pedagogning psixik xususiyatlarini hisobga olish;
- bolaning shaxsiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni qo'yish;
- pedagog va bolaning dialogi asosidagi o'zaro munosabatiga asoslangan vositalarni tanlash;
- ta'lim oluvchilarni o'z ta'limi, o'z faoliyatini loyihalashga jalb etish;
- madaniy muhitni yaratish.

Integratsiyalashgan ta'limning yetakchi tendensiyalari zamonaviy ta'limning umumiy tendensiyalarini aks ettiradi – dunyoviy, milliy, hududiy hamda o'z ichiga maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning integratsiyalashgan ta'limi uchun xos bo'lgan maxsus yo'nalishlarni: insonparvarlik, ijtimoiylashuv, demokratlashuv, mazmunning variativligi, maktabgacha ta'lim mazmunining jadallashuvi va integratsiyasi, axborotli ta'lim metodlaridan faol ta'lim metodlariga o'tilishi (ta'limning faoliyatli asosini kuchaytirish), gnoseologik, aksiologik, madaniy yo'nalishlarni qamrab oladi. Mazkur tendensiyalar maktabgacha ta'limda umumiy holda namoyon bo'ladi, integratsiyalashgan ta'limda esa belgilangan xususiyat kasb etadi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning integratsiyalashgan ta'limi qarama-qarshiliklarini tahlil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy ilmiy bilimlarning rivojlanishi sharoitida ayniqsa fanlarning integratsiyasi va differentsiatsiyasi bilan bog'liq masalalar:

ta'limda klaster yondashuvning rivojlanishi, integrativ pedagogika g'oyalarini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'limda bolaning rivojlanishini optimallashtirish va boyitishga yo'naltirilgan mazkur tamoyilni joriy etishning muvaffaqiyatli amaliyoti mavjud (N.N.Poddyakov, 1973; A.A.Mayer, 2000; A.I.Ivanova, 2007 va b.q.), Ammo yangi sharoitlarda integratsiyani mazmun jihatidan ham, shaklan ham yangicha tushunish talab etiladi.

Maqsadni integratsiyalash – maktabgacha ta'lim jarayonida bolaning rivojlanishida jamlovchi ta'sirni ta'minlovchi vazifalarning o'zaro aloqadorligi. Demak, vazifalarning qo'yilishi bir tomondan “vazifalar – mazmun – texnologiyalar – natija” mantiqida yaxlit pedagogik jarayonni loyihalashi, boshqa tomondan “emotsiyalar – ong – xulq” mantiqida bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi kerak.

Mazmunning integratsiyasi – ta'lim mazmuni tarkibida ijtimoiy tajriba asosiy komponentlarining o'zaro bir-birini to'ldirishi, o'zaro boyitishi. Ta'lim mazmunining (tasavvurlar va bilimlar, ko'nikmalar va malakalar, faoliyat va ijod tajribasi, munosabatlar tajribasi) dastlabki komponentlari har bir ta'lim sohalarida hamda ularning har biri bilan o'zaro aloqadorlikda va uzviylikda oqilona taqdim etilishi lozim. Bu bolalar bilan ta'limiy ishlarning muvofiq ravishdagi texnologiyalari orqali ta'minlanadi.

M.V.Lazarevaning¹ ishlarida berilgan maktabgacha ta'lim mazmunini integratsiyalash usullarining tasnifi alohida e'tiborga loyiq. Integratsiyalashgan ta'limning mazmuni murakkab tuzilishga ega. Tarkibida dasturning bir bo'limi mazmuni aks etuvchi an'anaviy bir turdagi mashg'ulotlardan farqli ravishda, integratsiyalashgan mashg'ulotlar tarkibiga dasturning turli bo'limlaridan ikki va undan ortiq komponentlari kiritiladi. Tarkibiy tahlil integratsiyalashgan mashg'ulotlar mazmunining komponentlari integratsiyaning belgilangan usullari bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Integratsiyalashgan mashg'ulotlar mazmunini o'rganishda tarkib komponentlari orasidagi munosabatlar tahlili ikki turini ajratishga imkon berdi: tenglikdagi munosabat va teng bo'lmagan munosabat. Tengsizlikda bir komponent boshqasiga turli darajada bo'ysunishi mumkin. Mazmun komponentlarining turli

¹ *Лазарева М. В. Интегрированное обучение детей в дошкольных образовательных учреждениях: Автореф. дис. ... д-ра. пед. наук. М., 2010.*

sifatililigini bartaraf etish va yaxlitlikni yaratish maqsadida umumiy va fanga oid integratsiya omillari kiritiladi. Integratsiya omili – pedagogik jarayon komponenti bo‘lib, turli sifatli mazmunni yagona yaxlitga birlashtirish va uning rivojlantiruvchi hamda tarbiyaviy yo‘nalganligini kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Deyarli barcha sanab o‘tilgan integratsiya omillari u yoki bu darajada maktabgacha ta‘lim mazmunida namoyon bo‘ladi. Umumiy holdagi integratsiya omillariga quyidagilar kiradi: mavzu, maqsad va vazifalar; mazmunning faoliyatli xususiyati; intellektual texnologiyalar; o‘yin, “Men” obrazi; sodda muammoli vaziyatlar; hududiy va ekologik komponentlar.

Fanga oid integratsiya omillariga “integratsiya asosi”ga kiritiladigan va umumiy bo‘lgan, demak integratsiyalashgan mazmunning barcha komponentlarini birlashtiruvchi badiiy obrazlar, atrof-olamdagi predmetlar, obyektlar, hodisalar to‘g‘risidagi tasavvurlar kiradi¹.

Texnologiyalar integratsiyasi – bolaning shaklan (erkin va maxsus tashkil etilgan faoliyat, mustaqil va hamkorlikdagi faoliyat, tartib o‘rnatilgan faoliyat) va mazmunan (bilishga oid, badiiy-nutqiy, o‘yinli, mahsuldor va boshqalar) har tomonlama va yaxlit rivojlanishi maqsadida bolalar faoliyatlari va muloqotlari (faoliyatlararo asos) turlarining yig‘indisidan foydalanish.

Integratsiyalashgan ta‘limni tashkil etish shakllari va ta‘lim hamda tarbiyaning metodlari va usullarining xususiyatlari integratsiyalashgan mashg‘ulotlar (shu jumladan, majmuaviy, mavzuga oid, ustun va boshqalar), integratsiyalashgan (mavzuga oid) kun, integratsiyalashgan davr sifatida belgilanadi. V.M.Lazareva tomonidan integratsiyalashgan mashg‘ulotlar mazmuni murakkab tuzilishga ega bo‘lgan, maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning sodda o‘quv-biluv faoliyatlarini maxsus tarzda tashkil etilishi sifatida belgilanadi². An‘anaviy mashg‘ulotlardan farqli ravishda tadqiqotchi quyidagilarning mavjudligini aniqlaydi:

- mashg‘ulot tarkibida ikki va undan ortiq komponentlarni;
- mazmun komponentlari o‘rtasidagi tabiiy, hayotiy aloqalar (mazkur aloqalar ko‘rinarli bo‘lgani ma‘qul);
- komponentlar orasidagi munosabatlar (tenglik yoki tengsizlik) va

¹ *Лазарева М. В. Интегрированное обучение детей в дошкольных образовательных учреждениях. Автореф. дис.... д-ра. пед. наук. М., 2010.*

² Ўша жойда.

o‘zaro ta‘sir kuchi (kuchsiz, o‘rta, kuchli) xususiyatlarini aks ettiradigan integratsiya usullari;

– mashg‘ulot tarkibiga kiruvchi barcha komponentlar uchun umumiy hisoblangan mazmunni aks ettiruvchi “integrativ asos”; umumiy va maxsus integratsiyaviy omillarni.

S.D.Sajinaning¹ ishlarida integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni o‘tkazish texnologiyalari batafsil ko‘rib chiqilgan. Eng samarali metodlar va usullarga quyidagilar kiritiladi:

- solishtirma tahlil, taqqoslash, izlash, evristik faoliyat.
- muammoli savollar, “isbotla”, “tushuntir”, “qanday bilding” kabi topshiriqlardan foydalanish va boshqalar.
- madaniy-nutqiy qoidalar bilan tanishtirish, lug‘at boyligini faollashtirish, o‘z kuchiga ishonch tuyg‘usini tarbiyalash uchun nutqqa oid turli-tuman didaktik o‘yinlar.

Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni o‘tkazish talablari tarkibida quyidagilar belgilangan:

- o‘quv materialining aniqligi, ixchamligi, ravonligi.
- har bir mashg‘ulotda dastur bo‘limlarining o‘rganilayotgan materialining o‘ylanganligi va mantiqiy o‘zaro aloqadorligi.
- mashg‘ulotning har bir bosqichida integratsiyalashgan fanlar materialining o‘zaro aloqadorligi, o‘zaro bog‘liqligi.
- mashg‘ulotda qo‘llaniladigan o‘quv materialining katta axborot hajmi.
- materialni bayon etishning tizimlilik va tushunarlilik.
- mashg‘ulot vaqt chegaralariga amal qilish zarurati.

Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarning **afzalliklari**:

- ta‘lim olish motivatsiyasining oshishiga, tarbiyalanuvchilarning bilishga oid qiziqishlarining shakllanishiga, olamning yaxlit tasavvuri va hodisani bir necha tomondan ko‘rib chiqilishiga yordam beradi;
- odatiy mashg‘ulotlardan ko‘proq darajada nutqning rivojlanishi, tarbiyalanuvchilarning solishtirish, umumlashtirish, xulosa yasash, malakalarini shakllantirish, zo‘riqishni, charchoqni yozishga yordam beradi;
- tushuncha to‘g‘risidagi tasavvurni, tushuncha bilan bog‘liq qonuniyatlarni chuqurlashtiradi, tasavvurni kengaytiradi;
- xulosalarni tasdiqlovchi yoki chuqurlashtiruvchi dalillar

¹ *Сажина С.Д. Технология интегрированного занятия в ДОУ. М., 2008.*

orasidagi yangi aloqalarning aniqlanishiga, tarbiyalanuvchilarning kuzatuvlariga asoslanadi;

- bolalarni emotsional jihatdan rivojlantiradi, chunki musiqa, rang-tasvir, adabiyot, harakatlar plastikasi va shu kabilarga asoslanadi.

Mualliflar integratsiyalashgan mashg'ulotlarning pedagogik va metodik texnologiyalari turlicha bo'lishi mumkinligini, ammo har qanday vaziyatda ham ularni modellashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Yangi optimal sxema-modellarni mustaqil izlash – pedagogning ijodiy faolligi namoyon etilishidir.

Natijaning integratsiyasi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning asosiy yangi shakllangan bilimlarida aks etuvchi, shaxsning integrativ xususiyatlari va faoliyatining shakllanishiga yo'naltiradi. Bu, avvalo, katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning shaxsiy yutuqlari va mos faoliyat turlarida shakllanuvchi subyektiv xususiyatlariga tegishlidir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar erishadigan yutuqlarini batafsil ko'rib chiqamiz. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ta'limining o'ziga xosligi bolaning yosh va individual xususiyatlari (psixologik jihat), ijtimoiy buyurtmaning ta'lim dasturlarida aks etgan mazmuni (ijtimoiy jihat), bolalar va kattalar o'zaro munosabatlarining o'ziga xosligi, o'zaro munosabatlarning tashkiliy sharoitlari (pedagogik jihat)ga bog'liq.

Haqiqatda, deyarli barcha tadqiqotchilar, bolalik fenomeni, uning o'rganilgan darajasi, jamiyat va fanning bolalikka e'tibori darajasi jamiyatning rivojlanish darajasi (taraqqiyoti)ga bog'liqligini tasdiqlaydilar. Rivojlangan bolalik borlig'iga nisbatan (V.T.Kudryavsev) bolaning psixik rivojlanishi madaniy ijodning alohida shakli sifatida, madaniyatning tarixiy rivojlanishida teng ravishda ham uzluksizlik, ham bog'lovchilikni amalga oshiruvchi mexanizm tarzida madaniy ijodning alohida shakli sifatida ko'rilishi mumkin. Madaniy ijod funksiyasining mavjudligi – bolalikning yetakchi mezonidir.

Shu tariqa, bolalar ta'limida bir tomondan, bolaning yosh va individual rivojlanish qonuniyatlari, bolalar bilan ta'limiy ishlarning psixologik asoslarini, boshqa tomondan esa, jamiyat tomonidan yetarli ijtimoiy ta'sirlarning tashkil etilishini inobatga olish zarur.

Asosiy tushunchalarni belgilab olib, maktabgacha ta'limda integratsiyaning amalga oshirilishiga, avvalo maktabgacha ta'limda erishilishi rejalashtiriladigan natijalarning asosiy mexanizmi sifatida

pedagogning bolalar bilan o'zaro munosabatlari jihatiga e'tibor qaratamiz.

MTMda integratsiya jarayoni maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim ishlarning barcha bo'g'inlarining o'zaro ta'siri, o'zaro uyg'unlashuvi va o'zaro aloqadorligini ta'minlovchi majmuaviy tarbiya, ta'lim, rivojlanish sifatida qaraladi.

1.2 Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tarbiyasida ota-onalar bilan samarali hamkorlik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv

Maktabgacha ta'lim muassasasi pedagogining mehnati uning barcha asoslari bo'yicha o'ziga xosliklariga ega: me'yoriy, obyektiv tuzilishidan (maqsad, vazifalar, predmet, vositalar, mehnat sharoitlar) boshlab va subyektiv jihatiga qadar (kasbiy muhim va kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarining xususiyatlari).

Maktabgacha ta'lim yosh davridagi bolalar bilan ishlashda pedagog kasbi ijtimoiy fikr, kommunikativ qobiliyatlar, bolalar bilan jadal, samarali va ijodiy o'zaro munosabatlarga kirishish malakalariga yuqori talablar qo'yilishi bilan ajralib turishi bejiz emas.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha (M.P.Bobrova, I.A.Zimnyaya, N.P.Nevzorova, A.N.Orlov, S.Ya.Romashina), maktabgacha ta'lim pedagogining faoliyati ko'p qirrali, o'zgaruvchan, ijodiy tabiatga egadir. I.A.Zimnyayaning fikricha, maktabgacha ta'lim sohasidagi mutaxassisning aynan kasbiy-psixologik portreti "ta'limning har qanday boshqa daraja va shaklidagi o'qituvchisi bilan solishtirganda yanada rivojlangan kasbiy-predmetli, shaxsiy (individual-psixologik) xususiyatlari va kommunikativ (interfaol) sifatleri bilan" tavsiflanadi¹. Bu MTMdagi butun ta'limiy jarayonning mantiqi bilan bog'liq. Asosan tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning ustunligi tarbiyaviy-ta'limiy jarayonning qurilishi va amalga oshirilishi texnologiyalarini belgilab beradi. Bunda, pedagog ayniqsa bolaning tajribasini talab etishga, uning qobiliyatlari, imkoniyatlari, qiziqishlari va yosh xususiyatlarini imkon boricha inobatga olishga intiladi. Shuningdek, pedagogning bolalar bilan o'zaro munosabatga mohir texnolog sifatida emas, balki shaxs sifatida kirishishi, uning tarbiya, rivojlanish va ta'lim berish vositasi sifatida

¹ Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник для вузов. М., 1999. с. 159

predmetni erkin egallaganligi – pedagogik faoliyat samaradorligini ko‘p jihatdan belgilab beradi.

Yetakchi mutaxassislar A.N.Orlov va S.Ya.Romashina MTM pedagoglarining asosiy malakaviy tavsiflarini tahlil qilib, “maktabgacha yosh davridagi bolalar bilan ta’limiy-tarbiyaviy ishlarda ijodiy yondashuvni amalga oshirishga imkon beruvchi malakalar majmuini shakllantirish maktabgacha ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy tayyorlovi tizimini takomillashtirishning zarur talabi hisoblanishi”ni ta’kidlaydilar. Pedagogning ijodi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi, bolalar tarbiyasidagi samarali hamkorlik va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni mualliflar “mutaxassisning pedagogik faoliyati obyektiv qadriyatlari” deb tushunadilar¹.

M.P.Bobrova didaktik tayyorlov jarayoni va natijani – maktabgacha ta’lim pedagogining didaktik tayyorgarligini tadqiq etib, mutaxassisning pedagogik faoliyati asosiy jihatlarini ochib beradi².

Professional faoliyatning asosiy jihatlarida (maqsadni aniqlash, mazmunni belgilash, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar bilish faoliyatlarini boshqarish metodlari va vositalarini tanlash, tashkiliy tarkibni loyihalash, pedagogik o‘zaro munosabat, natijalar tashxisi) bolalarning psixologik xususiyatlari, pedagogning kasbiy yondashuvi va hamkorlikka yo‘nalganligiga asosiy urg‘u beriladi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, maktabgacha ta’lim pedagogining kasbiy-pedagogik faoliyati va shaxsiy sifatlarining o‘ziga xosligiga nisbatan quyidagicha turg‘un talablar va tavsiflar kasbiy faoliyatning o‘ziga xos qirralari bilan boyitilishi to‘g‘risida xulosa qilish mumkin. Pedagogning empatik, shaxsga yo‘naltirilgan faoliyatga berilishi tufayli

hissiy yuklamaning kuchayishi, undan o‘z-o‘zini tashkil qilishning rivojlangan malakalarini talab etadi.

Pedagogning psixologik-pedagogik tayyorgarligiga talablar bolalarning yosh xususiyatlari va maktabgacha ta’lim mazmuni bilan belgilanadi. Pedagog tomonidan bolani rivojlantirish vositasi sifatida predmetdan foydalanishi, ta’lim jarayonining barcha komponentlarining tarbiyaviy-rivojlantiruvchi xususiyatdagi maqsadlarga bo‘ysunishi uning shaxsiy sifatleri va faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

¹ Ромашина С.Я., Орлов А.Н. Психолого-педагогическое обеспечение подготовки специалистов дошкольных учреждений. Барнаул., 1997. С.27

²Боброва М. П. Дидактическая подготовка педагогических кадров дошкольных учреждений в контексте профессиональной деятельности: Метод, пособие. Барнаул, 1997. С.58-60

Bizning tadqiqot ishimiz ma'lumotlarining tahlili ham muhim tamoyil sifatida tarbiyada shaxs va tengdoshlar guruhi munosabatlarining obyektiv zarurati holatini ajratishga imkon beradi. Mazkur tamoyil o'zbek psixologlari (R.I.Sunnatova, S.A.Axundjanova, M.Sh.Rasulova) tadqiqotlarida o'z tasdig'ini topadi, ularga ko'ra maktabgacha yosh davridagi bolaning xulqi ko'p jihatdan tengdoshlari bilan muloqot sohasiga va hamkorlikning ta'siriga bog'liqdir.

Ko'rsatib o'tilgan maktabgacha ta'lim pedagogining kasbiy psixologik-pedagogik kompetentligining xususiyatlari tarkibiy-funksional yondashuv asosida uning mazmunini o'rganishga oqilona yondashish imkonini beradi.

Mazkur yondashuv tizimli yondashuvning operatsion darajasi sifatida qaralishi mumkin. Maktabgacha ta'lim pedagogining kasbiy kompetentligini tadqiq etishda tarkibiy-funksional yondashuvni qo'llash natijalari quyidagilar bo'lishi mumkin:


- pedagogning kasbiy rivojlanish muhiti va omillari;
- pedagogning kasbiy faoliyatni amalga oshirishiga motivatsion, nazariy, texnologik va natijaviy tayyorgarligini namoyon etuvchi "kasbiy kompetentlik" tizimli hodisasining tarkibiy tashkil etilishi;
- tarkibiy komponentlarning funksional vazifalari, ularning o'zaro ta'siri mantiqi (mazkur hodisaning rivojlanish bosqichlari va davriyligi motivatsion dasturiy-maqsdali psixologiyaning maqsadlari mantiqida ifodalanadi).

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi belgilangan darajasiga – yakuniy natijaga – uning komponentlarini quyidagi ketma-ketlikda shakllantirgan holda erishish mumkindir: pedagogning pedagogik haqiqatga motivatsion-qadriyatli va emotsional-baholovchi munosabati (professional rivojlanish jarayonida subyektning mohiyati va qadriyatlari) keyingi bosqichlar uchun belgilovchi ahamiyatga ega; mazkur blok pedagogning uning individual tajribasini dolzarblashtirish asosida mehnatga psixologik tayyorgarligini shakllantirish keyingi bloklar predmetlarida hisobga olingan.

Pedagogning nazariy tayyorgarligi uning kompetensiyasini (tayyorligini) belgilaydi – pedagogik dalillar, tamoyillar, qonuniyatlar, maqsadlar, mazmun, texnologiyalar va ta'lim natijalari to'g'risidagi bilimlar majmui; mazkur blokning vazifasi pedagogning maktabgacha ta'lim sohasidagi bilimlar asosida faoliyatning amaliy usullarini egallashiga tayyorligini shakllantirish hisoblanadi.

927095

17



Texnologik tayyorlik – ma'lum usullarni amalga oshirish tajribasi va pedagogik faoliyatni ijodiy amalga oshirish pedagogning kasbiy vazifalarni amalga oshirishga tayyorligini predmetlashtiruvchi ko'nikmalar majmui.

Natijaviy tayyorlik, o'zining kasbiy faoliyati va umuman rivojlanishning mahsuldorligi va natijaviyligini aniqlash qobiliyati sifatida, barcha bloklari bilan birgalikdagi kasbiy kompetentlikning yaxlit obrazini shakllantirish maqsadiga ega bo'lib, kasbiy kompetentlikning shakllanganligi darajasini o'lchashda (malakaviy standart) operatsional jihat hisoblanadi.

Inson ongining shakllanishi tabiiy ravishda hayot mazmuni, insonning bu olamdagi roli va atrofdagilar bilan o'zaro munosabatining o'rni taalluqli bo'lgan asosiy uch savollarga javobni nazarda tutadi: "Men kimman? Qayerdaman? Bu yerda nima qilyapman?". Mazkur savollarni pedagog uchun qo'yamiz: "Men tarbiyachi sifatida kimman?", "Bola – kim u?", "Faoliyatim maqsadi nimadan iborat?".

Amaliyotning ko'rsatishicha, qiyinchiliklar birinchi savolga javob berishdan boshlanadi. Chunki "tarbiya" tushunchasida turlicha, ko'pincha bir-birini inkor etuvchi mazmun jamlanadi. "Tarbiyachi" tushunchasida esa inson ongida bola to'g'risidagi g'amxo'rlik va bolalar bilan ishlashni ifodalovchi barcha ma'nolar jamlanadi.

Ammo, tarbiyachi o'zini pedagog sifatida mustaqil ravishda shaxsiy qarashlarini shakllantirmaguniga qadar, kasbiy yo'li boshlana olmaydi va u ayniqsa samarali davom etmaydi. Shu sababli, integratsiyaga va pedagogik jarayonning yaxlitligiga yo'naltirilgan tizimli pedagogik ishni tashkil etish uchun shaxsiy kasbiy faoliyatning yaxlit va qadriyatli asoslarini ishlab chiqish zarur.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida tarbiyachi innovatsion faoliyatiga zarurat tug'ildi. Tarbiyachining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga tarbiyachining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabati, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi.

Chunki, ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu o'zgarishlar MTM tarbiyachisi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tarbiyachi

shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati – bu tarbiyachining o'z mustaqillik mavqeini mustahkamlashga, dunyoga, pedagogika faniga, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir.

Tarbiyachi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmasdan, u pedagogik tajribasining boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda tarbiyachining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi. Keyingi sharti – bu tarbiyachining madaniyat va muloqotga shayligi. O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir.

Tarbiyachi, rahbar va tarbiyalanuvchi hamda ota-onalar o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tengdoshlarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Shu o'rinda innovatsion faoliyatning quyidagi asosiy funksiyalarni izohlab o'tishimiz lozim: kasbiy faoliyatning ongli tahlili; me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv; kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik; dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish; o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Demak, tarbiyachi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida tarbiyachi innovatsion faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi: ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi; ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi; pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabat harakteri o'zgarishi.

Psixologik nuqtai nazardan MTM tarbiyachisi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki tarbiyachilik

mehnatining asosiy xususiyati ham shundadir. Pedagog hamma vaqt odamlar orasida bo'larkan, u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Masalan, ayrim ota-onalar bolalar bog'chasida bo'lish borasida o'z salbiy tajribalariga ega bo'lib, tarbiyachilar davrasida ba'zan o'zlarini noqulay his qilishadi. Boshqalar esa tarbiyachilar "qanday bo'lishi kerak"ligini hamisha biladilar, deb hisoblaydilar va ular bilan muzokara olib borishga ehtiyoj yo'q, deb o'ylaydi. Shuningdek, tarbiyachilarda ham ba'zan bolalarni qanday tarbiyalash to'g'risida maslaxat beradigan ota-onalar bilan aloqada bo'lishga nisbatan salbiy tajriba bo'ladi. Bunday holatlar mo'tadil aloqa o'rnatishga xalaqit berishi mumkin. Oiladan olinadigan ma'lumot qanchalik muhimligi haqida avval boshdan ota-onalar bilan gaplashib olish va buni ularga tushuntirish zarur. Diqqat bilan eshita bilish – ochiqcha muloqotning muhim sharti. "Sardor uyda nima bilan shug'ullanishni yaxshi ko'radi?" yoki "Madina bolalar bog'chasi haqida sizga nimalarni hikoya qiladi?" kabi ochiq savollarni berish bilan tarbiyachi ota-onalarga o'z bolalari to'g'risida hikoya qilishlari uchun imkon yaratishi, hamda muloqotga kirishar ekan, tarbiyachilar ota-onalar uchun tushunarli, ravshan bo'lgan tildan foydalanishlari va ularga savol berish imkoniyatini berishlari kerak.

MTM tarbiyachisining mustaqil bilim egallashi deganda, uning o'z bilimlarini doimiy ravishda kasbiy va umummadaniy axborotlar bilan to'ldirib, o'zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda doimo yangilab borishi tushuniladi. Odatda aksariyat MTM tarbiyachilari mustaqil bilim egallash zarurligini tushungan holda, undan yuqoridagi kabi holatlarda muvaffaqiyatli foydalanadilar.

Buning motivlari odatda pedagogik faoliyatdagi muloqot jarayonida tarbiyachi oldida yuzaga keladigan muammolarni anglab olish natijasida shakllanadi. Ko'p hollarda bunday motivlar MTM tarbiyachilarini qanday o'qitib va qanday tarbiyalash kerak, degan xohish-istaklar tariqasida, fanning oxirgi yutuqlari, o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish ehtiyoji tug'ilishi munosabati bilan shakllana boradi.

Shu bilan birga yaqqol ko'zga tashlanib turgan ayrim hollardan ko'z yuma olmaymiz. Masalan, pedagoglar ommasining ma'lum qismi mustaqil izlanishda bo'lib, o'z bilim saviyasini oshirish bilan faol shug'ullanmaydi, malakasini oshirishga intilmaydi, ba'zilar muayyan

bilimlar sohasida taraqqiyotdan butunlay ortda qolmoqdalar. Bunday tarbiyachilar o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiya taraqqiyotiga jiddiy zarar keltiradilar.

Muammoni hal etishda asosiy vazifa malaka oshirish tizimi zimmasiga tushadi. Respublikamizda MTM xodimlarining malakasini oshirish institutlarining tarmoqlari joriy etilgan. Bular maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish respublika o'quv-metodika markazi va viloyatlardagi xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish institutlaridir.

Bu tizimning asosiy vazifasi doimiy ravishda pedagog kadrlarning malakasini oshirish, pedagog kadrlarni o'zlarining kasbiga xos bilim saviyasini, ko'nikma, malakalarini, ma'naviyat va ma'rifatini, shu bilan bir qatorda iqtisodiy, ekologik va huquqiy ma'lumotni oshirishga da'vat etuvchi ijtimoiy psixologik sohalarini rivojlantirib borishdan iboratdir.

MTM tarbiyachisining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirishi pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda zaruriy shartlardandir. Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib tursagina – o'qituvchi bo'la oladi, agar u o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda o'qituvchilik ham o'ladi, deb juda haqqoniy aytganlar.

Bu haqiqatni yoshi qancha bo'lishidan, pedagogik mahoratidan, qanday mashg'ulot o'tkazishidan qat'iy nazar barcha MTM tarbiyachilari yaxshilab bilib olishlari lozim. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

Maktabgacha ta'lim tizimini isloh etish pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni talab etadi. Chunki MTM tarbiyachisi mehnatining ijtimoiy ahloqiy samaradorligi va obro'si uning tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Bu jarayon kasbiy faoliyatga egalik qilishning pedagogik qonun-qoidalariga amal qilishga bog'liq.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishda mahoratli pedagog bolalar va ularning xatti-harakati yuzasidan oilalar bilan samimiy aloqada bo'lishi nihoyatda muhim. MTM va oila bir-biri bilan mustahkam bog'liq hamda ular o'rtasida aloqa qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilsa, bola shuncha ko'p yordam oladi hamda uning dastlabki ta'lim tajribasi muvaffaqiyatli bo'lishi extimoli ortadi. Tig'iz

ish sharoitida oila bilan doimiy aloqa uchun vaqt topish hamisha ham oson emas, lekin tarbiyachilar bolaning muvaffaqiyatlari uchun uni juda muhim deb hisoblashsa, u kundalik ishning bir qismiga aylanadi.

Har bir bola alohida holda o'sadi va rivojlanadi, biroq shunga qaramay barcha bolalar rivojlanishning ma'lum ketma-ketlikdagi bosqichlaridan o'tadilar. Ushbu bosqichlarning har birida bir xil yoshdagi bolalar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar kuzatiladi. Bola qaysi yosh davridagi psixologik va fiziologik xususiyatlarini boshdan kechirmasin, ular haddan tashqari o'z oilasiga bog'liq bo'ladi, chunki oila: yashashi, ovqatlanishi, kiyinishi, sog'ligi haqida qayg'urish orqali ularning jismoniy sog'-salomatligini; mehr-muhabbat, qo'llab-quvvatlash, nima yaxshiyu nima yomonligi to'g'risida doimiy ravishda eslatib turish vositasida his-tuyg'ularining jo'shqinligini; muloqot qilish, emaklash, yurish, yugurish, tirmashish, o'ynash, shuningdek, yangi taassurotlar olish imkoniyatlari bilan ularning kamol topishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

MTM tarbiyachilari oilaning bolani ilk tarbiyachisi sifatidagi ustivor mavqeini e'tirof etishlari juda muhim. Zamonaviy MTM tarbiyachisi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Bola maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnay boshlaguniga qadar oila unga elementar harakatlardan tortib, to'p uloqtirishgacha bo'lgan ko'pgina narsalarni o'rgatgan xolda ertak eshitishdan zavq olish ko'nikmasini hosil qilgan bo'ladi. Bolaning ilk rivojlanishida oilaning ahamiyatini yetarli baholash juda qiyin. Bolalar oilada tarbiyalanadi, unda sodir bo'ladigan voqealar ularga katta ta'sir ko'rsatadi. Oila, bu – o'z bolalari hayotida doimiy ravishda ishtirok etadigan, ular to'g'risida qayg'uradigan, ularni o'qitadigan, qarorlar qabul qiladigan odamlar.

Oilalar turlicha bo'ladi. Ular kichik, uncha katta bo'lmagan yoki katta, keng bo'lishi mumkin. Ularda ko'plab aka-uka va opa-singillar yoki birgina bola bo'lishi ham mumkin. Ayrim oilalarda bola asrab olingan bo'ladi yoki qarindoshlari bilan yashaydi. Bola ota-onasidan tashqari, amma-xola, amaki-tog'a, bobo va buvi, oilaning yaqin do'stlari kabi ko'plab o'zi uchun hurmatli bo'lgan katta yoshdagi kishilar bilan mustahkam aloqada bo'lishi mumkinligi sababli ota-

onalar bilan aloqa o'rnatishni yetarli hisoblamay, bola hayotiga real ta'sir ko'rsatadigan barcha kishilar bilan hamkorlik qilishi kerak.

Bola vositasida oila bilan muloqot qilish – murabbiylar jamoasi majburiyatlarining muhim qismi hisoblanadi. Barcha oilalar o'z bolalarining baxt-saodatidan manfaatdor va ularning yaxshi va mamnuniyat bilan o'qishlarini istaydilar. Shuning uchun oila a'zolari uning yutuqlaridan xabardor bo'lishni xohlaydilar. Pedagoglar ota-onalar bilan bola haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirish va imkon qadar samarali ishlash uchun bolaning uydagi va MTMdagi holati, uning kuchli va zaif tomonlarini, tashvish tug'diradigan barcha jihatlarini mamnuniyat bilan muhokama qilishlari kerak.

Mahoratli MTM tarbiyachisi oilalar bilan aloqa qilishda quyidagi tamoyillarga rioya qiladi: vaqt topadi, imkoniyat yaratadi hamda ota-onalarning o'z fikr-mulohazalari, quvonchlari, tashvishlari va niyatlarini gapirib berishlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Ko'z-ko'zga tushib suhbat qilish mumkin bo'lgan joyni tanlaydi va ma'lumotlarga hamisha maxfiy sir sifatida munosabatda bo'ladi.

Oilalar tarbiyachilar bilan eng shaxsiy ma'lumotlarni o'rtoqlashadilar, binobarin, ularni sir saqlash muhim.

Ishlaydigan ota-onalarda ko'pincha bo'sh vaqt juda kam bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachilar oilalar bilan suhbatlashishi mumkin bo'lgan tabiiy norasmiy vaziyatlar bog'cha va uy o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirish uchun juda muhim.

Yetakchi psixologlarning e'tirof etishlaricha, ko'pgina tarbiyachilar ota-onalar bilan aloqa qilish uchun ular bolalarini bog'chaga olib kelgan yoki bog'chadan olib ketayotgan vaqtdan foydalanishga harakat qiladilar. Bu vaqtda ular ota-onalarga kun mobaynidagi voqealar, bolaning muvaffaqiyatlari to'g'risida ~~xabar~~ berishlari, o'tkazilishi rejalashtirilgan majlis va boshqa narsalar haqida eslatishlari mumkin (lekin bunda bolaning qandaydir muammolari (agar ular bo'lsa) to'g'risida so'z ochmagan ma'qul). Kunning avvali va oxirida ota-onalar bir-birlari bilan muloqot qilishlari, tarbiyachilarga savollar berishlari, uchrashuv haqida so'rashlari, bolalar bilan o'ynashlari, ularga kitob o'qib berishlari mumkin.

Ota-onalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, muloqot uchun norasmiy vaqt belgilanganda uchrashuv jadvali o'zgaruvchan qilib tuzilishi hamda kun avvali va oxiridagi erkin suxbatlashish sharoitiga muvofiqlashtirilishi kerak. Ota-onalarning bog'cha ostonasini hatlab

o'tar-o'tmas bolalarini shosha-pisha tashlab ketishlaridan iborat holatlarni kamaytirish uchun shunday tartib o'rnatish kerakki, unga muvofiq ota-onalar bolani guruh turgan yergacha kuzatib kelishlari va uning boshlanayotgan kunni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishiga ko'maklashishlari kerak bo'ladi.

Yana shuni ham e'tirof etish kerakki, tarbiyachilar va bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lishi kerak. Bolalar bog'chasida guruh deb ataluvchi uyushmada hurmat zarur tarkibiy element hisoblanadi. Tarbiyachilar ular bolalardan kutadigan o'zaro bir-birini tushunish, hurmat qilish va bir-biriga g'amxo'rlik ko'rsatishda namuna bo'ladilar. Bolalar boshqa bolalar bilan ijodiy o'zaro munosabatlarning mustahkam po'ydevorini qo'yadi.

Pedagoglar guruhdagi har bir bolaga hurmat ko'rsatsalar, bolalar qolgan barcha bolalarni – sekin yuguruvchilarni ham, a'lo darajada rasm chizuvchilarni ham va hatto kam uchraydigan yoki ziddiyatli fe'l-atvorli bolalarni ham qabul qilishni o'rganadilar. Bolalar boshqalar ularning har birini qabul qilishlari va hurmat qilishlarini ko'rganlarida hamda sezganlarida o'zlarini qulay his qiladilar va erkin tutadilar, shu bilan birga o'zlarining shaxsiy qiziqishlarini amalga oshiradilar.

Tarbiyachilar shuni tushunib yetishlari kerakki, bolalar ham kattalardek o'zlariga bildirilgan samimiyatni his etadilar va seza-dilar. Bolalarni ular bajargan ish natijalari uchun maqtash samimiyatni talab etadi, o'zaro ta'sir tabiiy holda va majbur etmaslik tarzida bo'lishi lozim.

O'z ustida ishlaydigan va mahoratini uzluksiz oshirib boradigan tarbiyachi maktub va kundaliklardan foydalanishi ham mumkin. Shuningdek, bola orqali ota-onalarga maktub jo'natish yo'li oilalar va pedagoglar jamoasi o'rtasidagi yaqinlikni ta'minlashga yordam beradi. Bu bolaning yangi muvaffaqiyatlari to'g'risidagi qisqagina xabar yoki raxmatnoma bo'lishi ham mumkin. Odatda ota-onalar bunday maktublarni qiziqish bilan o'qiydilar va javob yo'llashga harakat qiladilar.

Bundan tashqari aloqalar rivojida tarbiyachilardan ota-onalarga yuboriladigan, ulardan yana tarbiyachilarga qaytariladigan kundaliklar (yoki aloqa daftari) katta rol o'ynaydi. Xususan, ota-onalarning vaqti juda cheklangan yoki oilada telefon bo'lmaganda bu o'zaro aloqaning juda yaxshi usuli hisoblanadi. Agar bolada qandaydir shikoyat yoki muammolar bo'lsa, kundalik doimiy aloqani ta'minlaydi hamda ota-

onalar yoki pedagoglar jamoasini u yoki bu o'zgarishlardan xabardor qiladi. Bu usul ayniqsa, ota-onalar uchun qo'l keladi. Chunki ular o'z fikrlarini yozma shaklda oson ifodalaydilar.

Umuman olganda, oila bu – qudratli kuch, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida kafolatlangan ijtimoiy institutdir. Tahlillarimiz asosida bola tarbiyasi borasida MTM va oilaning samarali hamkorligiga erishish tarbiyachining qay darajada pedagogik mahoratni egallaganligiga bog'liqdir. Demak, oila bilan hamkorlik shaxsni ilk tarbiyalash tizimi sifatida bolaning dunyoqarashi, ma'naviy olamining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglarining asosiy vazifalaridan biri pedagogik madaniyatni egallash hisoblanadi. Umumiy mazmunda madaniyat tushunchasi ostida ma'naviy va moddiy boyliklarni jamlash tushuniladi, katta inson esa ularni tarixdan hozirgi vaqtga va kelajakka yetkazuvchi hisoblanadi. Bunda MTM pedagoglari va tarbiyalanuvchilarining ota-onalarida bir xilda yuzaga keladigan qator muammolarni ajratish lozim. Birinchidan, pedagogik madaniyat nima ekanligi va uni namoyon etish usullari qandayligi to'g'risidagi yaqqol tushuncha mavjud emas. Ikkinchidan, ota-onalarning o'z ishlarida, tarbiyachilar esa pedagogik jarayonni amalga oshirishda haddan ortiq bandliklari tufayli kattalarning teatrlar, muzeylar, ko'rgazmalarga tashrif buyurishga vaqtlari yetishmaydi. Uchinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalarining barcha pedagoglari ham ota-onalarda pedagogik madaniyatni shakllantirish metodikasiga bir xilda ega emaslar.

Pedagogik faoliyat, madaniyat bilan inson faoliyatining boshqa faoliyat turlaridan ko'proq bog'liqdir. U jamiyatning alohida sohasi hisoblanib, maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy-madaniy insonni shakllantirishni amalga oshiradi, madaniy meros, shaxsni ijtimoiylashtirish, uning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini boshqarish vazifalarini bajaradi.

Shuning uchun ham, mutaxassisning madaniyati uning kasbiy faoliyatida alohida rolga ega, u shaxsga yaxlit ta'sir ko'rsatadi, kasbiy-shaxsiy munosabatlar tizimida mustahkam o'rin egallashga, o'zini va faoliyatdagi o'z rolini anglashga ko'maklashadi, tanlangan kasb doirasida ijodning integral ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi. Mutaxassis madaniyatining umumiy mazmundagi ko'rsatkichi sifatida shaxsning dunyoqarashi kengligi va yo'nalganligini, ijtimoiy faolligi darajasini, hissiy ta'sirchanlik xususiyatlarini ham qabul qilishi mumkin.

Pedagogik madaniyat mutaxassislar pedagogik muloqot vaziyatida xulqni tashkil etishga amal qiladigan talab, me'yor, namunasi sifatida tushuniladi. Ba'zan pedagogik madaniyatni kasbiy savodxonlik, bilimlilik, pedagogik texnika yoki taktika bilan o'xshatish sodir bo'ladi.

Nazariy jihatdan pedagogik madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi sifatida qaraladi, chunki u:

- insoniyatning tarixiy-madaniy tajribasini birlashtiradi, alohida pedagog esa mazkur tajribani tarbiyalanuvchilarda belgilangan qadriyatlar va munosabatlar hajmi orqali aks ettiradi;

- o'qituvchi ijtimoiy amaliyotining bir qismi hisoblanadi va uning talablar bilan an'analar, o'zaro munosabatlar me'yorlari orqali o'zaro ta'siri sohasida namoyon bo'ladi;

- inson bilimlari sohasini ifodalaydi va o'qituvchi amalga oshiradigan, mohir pedagog faoliyatining ahamiyatli komponenti hisoblangan pedagogik konsepsiyalar, tizimlar, texnologiyalarda o'z ifodasini topadi;

- pedagog tomonidan jamiyatning obyektiv ehtiyojlarini aks ettirish usuli hisoblanadi.

Pedagogik madaniyat – bu murakkab tuzilgan tizim bo'lib, pedagogik ta'sir etish subyektining ko'p darajali tarkibiga egadir. Shuning uchun ham pedagogik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi fikrni nafaqat mohir pedagoglarga nisbatan, balki butun jamiyat doirasida ham qo'llash lozim.

Madaniyat insonning ixtiyoriy faoliyat turiga me'yoriy talablarni aks ettiradi. Shuning uchun ham, inson faoliyatining turlari qancha bo'lsa, shuncha madaniyat turlari ham mavjuddir. Madaniyat – insonning hayot faoliyatida o'zlashtirgan tajribasidir.

Aytilganlarga ko'ra, pedagogik madaniyat pedagogik jarayonning integrativ tavsifini ifodalaydi. U insonlarning orttirgan ijtimoiy tajribalarini hamda bir avloddan boshqa avlodga yetkazib berish bo'yicha bilimlar, ko'nikma, malakalar, kompetensiyalar va maxsus institutlar ko'rinishida mustahkamlangan mazkur faoliyatning natijalarini yetkazib berish bo'yicha bevosita faoliyat yaxlitligidan tarkib topadi.

Agar madaniyat ixtiyoriy aniq bir faoliyat turiga qo'yiladigan me'yoriy talablarni ifoda etsa, unda pedagogik madaniyat yosh avlodni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bo'yicha faoliyatga qo'yiladigan talablarni ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat butun jamiyatning hamda har bir alohida insonning umumiy madaniyatini aks ettiradi. Shuning uchun ham, jamiyatning pedagogik madaniyati ommaning pedagogik madaniyati darajasi bilan belgilanadi va umumiy madaniyatning ajralmas qismini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat umuminsoniy madaniyatning bir qismi sifatida jahon pedagogik tajribasidan tashkil topadi, madaniy davrlarning almashinishi oqibatida bunga mos ravishdagi pedagogik sivilizatsiyaga olib keladi, ta'lim paradigmalarini o'zgartiradi.

Har bir davr o'z pedagogik madaniyatini shakllantiradi. Uning har xil turlarini ajratishga asos bo'lib ma'naviy qayta yaralish jarayoni xizmat qiladi, uning ostida umumiy mazmunda ma'naviy qadriyatlardan foydalanish va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan jamoat munosabatlari tizimi tushuniladi. Madaniyatning har xil ko'rinishlari ta'lim va tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqishning turli modellarini hosil qiladi.

Pedagogikaning toifasi sifatida, pedagogik madaniyat ijtimoiy-pedagogik, ilmiy-pedagogik, kasbiy-pedagogik, shaxsiy darajada o'rganilishi mumkin.

Ijtimoiy-pedagogik soha quyidagi usullar bilan belgilanadi:

- ota-onalar va bolalar, kattalar va kichiklar munosabatlarini ifodalovchi an'analar, marosimlar, qoidalarni saqlash;
- umuminsoniy va milliy ma'naviy madaniyatning bir qismi sifatida ijtimoiy-pedagogik tajribani yetkazib berish va shaxslararo, insoniy munosabatlar;
- umuminsoniy va pedagogik qadriyatlarni shakllantirish;
- jamiyatning pedagogik tafakkuri, pedagogik ongida, amaliy bilimlar tizimida namoyon bo'luvchi pedagogik nazariya, madaniy namunalarni boyitish;

Pedagogik madaniyat shaxsiy yo'nalishlari ko'rsatkichlari quyidagicha:

- pedagogning bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabati, uning tarbiyachi bo'la olish qobiliyati;
- tarbiyalanuvchi nuqtai nazarida yuzaga kelgan muammolarni hal etishga imkon beruvchi psixologik-pedagogik kompetentlik va rivojlangan pedagogik tafakkur;
- fan sohasi bo'yicha bilimliligi, shaxsiy yo'nalganlik asosida, ta'lim mazmuni va texnologiyasi bilan ishlashni bilish;

- tarbiyachining o'z pedagogik texnologiyasi, ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga mualliflik yondashuvini asoslash imkonini beruvchi ijodiy faoliyat tajribasi;

- kasbiy xulq madaniyati va o'z-o'zini rivojlantira olish qobiliyati;

- maktabgacha ta'lim yoshidagi bolani tarbiyalash va to'laqonli rivojlantirishga ota-onalarning qadriyatli-maqсадli yo'nalganliklari.

Pedagogik madaniyat shartli ravishda uchta darajaga ajratiladi.

Pedagoglarda ham, ota-onalarda ham pedagogik madaniyat asoslarini shakllantirish uchun quyidagicha metodlar guruhini qo'llash mumkin: kattalarning rag'batlantiruvchi refleksiv ko'nikmalari (keys metodi, o'yinli modellastirish metodlari, o'zining tarbiyaviy faoliyatini tahlil qilish). Yagona foydalanishda mazkur metodlar katta insonning bolaga nisbatan munosabatini shakllantiradi, egallangan bilim va kompetensiyalarni faollashtiradi; taqlidga asoslanmagan faol metodlar (munozaralar, bahslar, muhokamalar, treninglar, basket-metod va boshqalar). Sanab o'tilganlardan kuzatuv metodi alohida hisoblanadi, uni pedagoglar va ota-onalarga kundalik yozuvlarni yuritish ko'rinishida taklif etish mumkin¹.

"Pedagogik madaniyat" tushunchasining mazmun va mohiyatini o'rganish xulosasini chiqarishda, ma'naviy va moddiy qadriyatlar eng ko'p darajada aks etgan umuminsoniy madaniyatning bir qismi sifatida, shuningdek avlodlar almashuvi va shaxs ijtimoiylashuvi (ulg'ayishi) tarixiy jarayoniga xizmat qilish uchun insoniyatga zarur bo'lgan insonlar pedagogik faoliyatini amalga oshirish usullari sifatida ta'riflash mumkin.

Shu tariqa, pedagogik madaniyat pedagogning pedagogik qadriyatlari, faoliyat usullari va kasbiy xulqi dinamik tizimini aks ettiradi. Jamiyat hayotini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, madaniyatni jamiyat va alohida shaxsning ma'naviy holati asosiy ko'rsatkichi deb olinishiga sabab bo'ladi. Madaniyat tufayli uning jamiyat hayotida qatnashishi sodir bo'ladi, atrof-olamni aks ettirish qobiliyati hosil bo'ladi, o'zini yorqin individual sifatida namoyon etishning yangi metodlari va vositalarini izlash qobiliyati rivojlanadi. Pedagogik madaniyat sababli shakllangan shaxs madaniyati jamiyat qadriyatlarini o'zlashtirishning holati va natijalari hamda mahsuldor jarayonidir.

¹Зверева, О. Л. Семейная педагогика и домашнее воспитание детей раннего и дошкольного возраста [Текст] / О. Л. Зверева, А. Н. Ганичева, Т. В. Кротова. - М.: Сфера, 2009.-256 с.

Pedagogik madaniyat rivojlanuvchi hodisa sifatida komponentlarning uyg'unligi va xilma-xilligini ifodalaydi, ular qatorida pedagogik munosabat va shaxsiy sifatlarni; kasbiy bilimlar va pedagogik tafakkur; kasbiy ko'nikmalar va faoliyatning ijodiy xususiyati; shaxsning o'z-o'zini tartibga solishi va kasbiy xulq madaniyatini ajratish mumkin.

Pedagogik madaniyatning shartlari pedagogning pedagogik yo'nalganligi, psixologik-pedagogik bilimdonligi va ma'lumotlilik, pedagogik mahorati va hokazolar bilan to'ldirilishi mumkin.

MTM mutaxassislarining pedagogik madaniyati muhim ko'rsatkichi bo'lib ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik va ularni tarbiyaviy-ta'limiy hamda korreksion-rivojlantiruvchi jarayonga jalb etish qobiliyati hisoblanadi. Afsuski, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining Davlat talablarida ham, "Bolajon" dasturida ham ota-onalarni bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish jarayoniga jalb etish bo'yicha ko'rsatmalar berilmagan.

Malaka oshirish kurslarida davra suhbatlarida MTMlardagi farzandlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan hamkorlikdagi faoliyatga ota-onalarning ishtiroklari muammosini muhokama qilishda, MTM rahbarlari va pedagoglari qo'yilgan savolga o'z fikrlari va takliflarini bildirdilar.

Savol. Siz haqiqatdan ham ota-onalar ta'lim muassasalarida "taraqqiyot mexanizmi" bo'lishlari mumkin deb hisoblaysizmi? Shuningdek, MTM ta'lim dasturini ishlab chiqishda doim ham ularning manfaatlarini inobatga olish kerakmi? Balki ularning o'zlari nimani istashlarini bilmaslar ham? Chunki ular bu masalada mutaxassis emaslar-ku!

Javob. Deyarli barcha ota-onalar nimani istashlarini biladilar: ular o'z farzandlarini sog'lom va baxtli ko'rishni istaydilar. MTM ularga bu nafaqat mumkinligiga ishonishlariga ko'maklashishi, balki buni amalga oshirishi ham lozim. Muassasada bolalar chin dildan quvonch bilan kelib-ketishlari uchun sharoitlar yaratilishi lozim: bolalar MTMga shunchaki kelmasliklarini anglab yetishlari kerak. Chunki bu yerda ularni kutadilar, tushunadilar va yaxshi ko'radilar. Mazkur tushunish va mehr nurini ular keyin o'z oilalariga olib ketadilar.

Savol. Bizning vazifamiz – ota-onalarda qiziqish uyg'otish hamda bolaning maktabgacha bolalik davri xursandchiliklarga boy tarzda o'tishi uchun MTMdagi ta'lim-tarbiya jarayonini o'zlari yaratishlarini taklif etishdan iborat. Bu ota-onalar o'zlari ta'lim dasturini ishlab chiqishlari,

o'qitish metodikasini tanlashlari va bolalar bilan mashg'ulotlar o'tishlari kerakligini anglatmaydi albatta. Bu MTM ochiq o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim bo'lishi mumkinligi, mustaqil ravishda o'z atrofida samarali ta'lim-tarbiya va ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishi mumkinligi, uning bir qismi ota-onalar hisoblanishini anglatadi. Siz bu fikrni ma'qullaysizmi?

Javob. Bu biz uchun odatiy emas, ammo MTMning ochilishiga tayyorgarlik ko'rishdayoq biz ota-onalar nafaqat ta'lim muassasasining o'z-o'zini boshqarish jarayonida, balki yillik tadbirlarni rejalashtirish, individual ta'lim yo'nalishlari va har bir bola hamda bolalar guruhlar uchun portfoliolarni ishlab chiqish, bolalar ijodiy va ilmiy-tadqiqot loyihalari va jamoaviy ijodiy ishlar tanlovlarini o'tkazishda ishtirok etishlari kerakligini tushunganmiz. Bundan tashqari, bizning ota-onalar, hatto otalar jismoniy-sog'lomlashtirish va ekologik-badiiy studiyadagi mashg'ulotlarni o'tkazishda faol ishtirok etishlari mumkin. Bu ayniqsa ilk va kichik maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muhim hisoblanadi. Qisqa muddatli guruhlarda bolalar bilan ishlashning boshqa yo'nalishlari doirasida bu kabi mashg'ulotlarni: ijtimoiy-psixologik treninglar, bolalar va ota-onalar munosabatlari treninglari, oila doirasidagi mashg'ulotlarni o'tkazish imkonini mavjud. Shu bilan birga, mashg'ulotlarda va guruhlar ishlarida ishtirok eta olmaydigan ota-onalar uchun biz interfaol muloqot shaklini taklif etamiz – monitoring, videokuzatuv tizimi orqali va ularning imkoniyatlarini interaktiv doska va Internet taqdim etadilar. Ularning yordamida MTMda ota-onalar bilan hamkorlikning boshqa shakllarini o'tkazish ham rejalashtirilgan: ota-onalar majlislari, seminar-praktikumlar, pedagogik ustaxonalar va davra suhbatlari.

Savol. Ba'zi ota-onalarda Siz bolalarning tarbiyasi va ta'lim uchun mas'uliyatning bir qismini ularga yuklayotganligingiz hissi yuzaga kelmaydimi?

Javob. Biz ularga mas'uliyatni yuklash emas, balki ta'lim va tarbiya natijalari uchun vazifalarni va mas'uliyatni taqsimlash tamoyilini qo'llaymiz. Biz bunga Toshkent shahri va Toshkent viloyati MTMlaridagi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tarbiyasining ko'p yillik monitoringini o'tkazish, ularning tarbiyalanganliklarini baholash natijasida ongli ravishda keldik. Bunda, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tarbiyaliligi har bir komponentining shakllanishi jarayonida ijobiy o'zgarishlar ustunlik qiladi, bundan ikki holat mustasno: tarbiyalilikning mazmunli komponentini rivojlantirishga salbiy siljish

(18,5 foizga) kuzatildi. MTMga qatnaydigan bolalarning ota-onalari pedagoglar bilan hamkorlik qilish va ta'lim-tarbiya jarayoni natijalarining samaradorligini nazorat qilishga yetarli darajada

qiziqmagan hollarida faoliyatli komponentni rivojlantirishdagi siljish umuman kuzatilmadi.

Savol. Demak, MTMda ko'p narsalar ota-onalarga bog'liq ekan. Unda pedagoglarga nimalar bog'liq?

Javoblar. Monitoring natijalariga ko'ra, tarbiyachilarning metodik kompetensiyalari darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ota-onalarida ham bu kompetentlik shu qadar yuqori bo'ladi. Teskari qonuniyatlar aniqlanmagan. Shuning uchun ham MTMda pedagoglar va ota-onalar uslubiy uyushmasini tashkil etishga katta e'tibor qaratiladi.

Savol. Bolalar bilan mashg'ulotlarni o'tkazishda qanday "nou-xau" yangiliklar mavjud?

Javob. Mashg'ulotlar o'tiladigan kichik guruhlar (6-8 nafar) qobiliyatlar asosida emas, balki Yaponiyadagidek ularning faoliyatlarini samaraliroq qiladigan kommunikativ ko'nikma va malakalariga muvofiq ravishda shakllantiriladi. Bu guruhlarda ijobiy psixologik muhitni shakllantirish va alohida muhit – bolalar hamjamiyatining yaratilishiga ko'maklashadi. Unda har bir bola o'z atrofida qanchalik kommunikativ muhitni yaratishni bilsa, shunchalik muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin, bu o'sib kelayotgan avlod, ularda axborot va kommunikativ madaniyatni shakllantirish, buzg'unchi ijtimoiy ta'sirlarga qarshi bardosh berish ko'nikmalarini shakllantirish uchun juda muhim.

Suhbat yakunida, biz kelajak MTMLarini ochiq muassasa, o'z rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash va amalga oshirishga qodir bo'lgan o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim sifatida tasavvur qilishimizni ta'kidlaymiz. Ammo gap bunda ota-onalarni MTM ta'lim-tarbiya va korreksion-rivojlantiruvchi muhitga jalb etish to'g'risida emas. Bunda yagona uslubiy muhitni shakllantirish to'g'risidagi g'oya ilgari suriladi.


O'tkazilgan suhbat asosida o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim sifatidagi MTM faoliyatining sxemasi tuzildi.

Taklif etilayotgan sxema asosida pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi ishlarini tashkil etish pedagoglarning kasbiy kompetentliklari darajasi va oila hamda MTM

sharoitidagi tarbiyaning samaradorligi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni o'rnatishga imkon beradi.

Yuqorida ko'rsatilgan, majmuaviy vazifalarni hal etish uchun, quyidagi sharoitlarni yaratish lozim:

— tarbiyalanuvchilarning ota-onalarida ularning farzandlarining rivojlanish imkoniyatlari tashxisi natijalari bilan tanishtirish orqali hamkorlik hissini shakllantirish;



1-rasm. O'z-o'zini tashkil etuvchi tizim sifatidagi MTM faoliyatining sxemasi

— muammoli seminarlar o'tkazish vaqtida ota-onalar va pedagoglarda bolalarni MTM va oilada rivojlantirish, tarbiyalash va ta'lim berish vazifalari to'g'risidagi tasavvurlarini muhokama etish;

— tabaqalashtirilgan ota-onalar guruhleri bilan pedagogik hamkorlik maxsus muammolarini belgilash va individual hamda kichik guruhlar konsultatsiyalarini tashkil etish;


— an'anaviy va noan'anaviy muloqot usullarini qo'llash orqali ota-onalar va tarbiyachilarga hamkorlik funksiyalarini o'rgatish;

— ijodiy loyihalar usuli bo'yicha jamoaviy faoliyatni tashkil etish jarayonida bolalar va kattalarning aqliy va ijodiy tashabbuslarini rivojlantirish.

Yuqorida sanab o'tilgan sharoitlar ota-onalar bilan hamkorlik dasturini ishlab chiqish jarayonida amalga oshirilib, unda quyidagi yo'nalishlar nazarda tutilgan:

1. O'zaro hamkorlikni modellashtirish.
2. Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasida hamkorlikka yo'naltirilgan ijobiy shaxslararo munosabatlarni o'rnatish.
3. Ota-onalarda bolaning yanada to'liq obrazini va uni to'g'ri qabul qilishni shakllantirish.
4. Ota-onalarning pedagogik nuqtai-nazarlarini o'rganish va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolani tarbiyalashda oilaviy muammolar bilan tanishtirish.
5. Ota-onalarni qiziqishlari bo'yicha guruhlariga birlashtirish, oilaviy mehmonxona va oilaviy klublarni tashkil qilish.

Ishning barcha bosqichlari va davrlarida, ota-onalar bilan ishlashning turli-tuman usullari faol qo'llaniladi.



2-rasm. Ota-onalarni faollashtirish metodlari

Tajribalar ko'rsatishicha, tarbiyachilarning pedagogik madaniyati va metodik kompetentligi qanchalik yuqori bo'lsa, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ota-onalarining mazkur ko'rsatkichlari ham shunchalik yuqori bo'ladi.

1.3 Maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari (xorijiy tajribalar asosida)

Dunyoning ko'pgina davlatlarida maktabgacha ta'lim yagona ta'lim-tarbiya tizimining dastlabki bo'g'ini hisoblanadi. Mazkur tizimga mahalliy hokimiyat organlari, sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari, diniy va jamoat tashkilotlari, jismoniy shaxslar tomonidan e'tibor ko'rsatiladi. Odatda, ko'pgina davlatlarda statsionar va mavsumiy yasli, ish vaqti davomiyligi turlicha bo'lgan MTM, boshlang'ich sinflarda maktabgacha bo'limlar, onalar maktablari, maydonchalar faoliyat yuritadi. Tarbiyaviy ishlarning maqsadi bolalarning barkamol rivojlanishi, ularda ijtimoiy hayot malakalarini shakllantirish hisoblanib, bu ishlar ta'lim va tarbiya dasturlari asosida amalga oshiriladi. Barcha davlatlarda pedagogik xodimlarni tayyorlash tizimi mavjud (kurslar, o'rta maxsus, oliy ta'lim muassasalari). Maktabgacha ta'limning har bir milliy tizimi o'ziga xosliklarga va o'z ilg'or tajribalariga egadir.

Shu jihatdan xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'lim tizimi tajribalari o'rganildi va tahlil qilindi.

CHEXIYAda maktabgacha ta'lim. Tarixi. Chexiya Respublikasida zamonaviy maktabgacha ta'limning yetakchisi Yan Svoboda (1803-1844) hisoblanadi. 1832 yilda u Pragada Xradku yonida Emmaus ostida "namunaviy vasiyga" asos soldi. O'yin, she'r va qo'shiq yordamida, o'z-o'zidan ma'naviy tamoyillar asosida 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning tarbiyasi bilan shug'ullangan hamda ularga o'qish, yozish asoslarini va nemis tilini o'rgatar edi. U "Bolalar bog'chasi", "Kichik kitobxon", "Kichik yozuvchi" va boshqa qator nufuzli nashrlarni chop etdi.

Mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimining tuzilishi. 1. Chexiyada maktabgacha ta'lim keng ko'lamdagi va yaxshi tashkil etilgan MTMLar tarmog'iga asoslanadi. Odatda, chex MTMLariga bolalar 3 yoshdan qabul qilinadilar. Ularga qatnash, odatda majburiy emas.

2. Chexiyadagi MTMLar asosan davlatga qarashli va ular hovlisiga, bolalar maydonchalariga ega bo'lgan yaxshi jihozlangan alohida binolarda joylashadi. Deyarli barcha MTMLar yilda 10 oy ishlaydilar, iyul va avgust oylarida ko'pgina MTMLar ishlamaydilar, ta'til vaqtida shaharda qolgan bolalarni esa butun shahardan yoki tumandan bir yoki bir necha ishlayotgan MTMLarga joylashtiradilar.

3. MTMLar Chexiya Sog'liqni saqlash vazirligi nazorati ostida faoliyat yuritadilar.

MTM maqsadi va ish yo'nalishlari. Chexiyada maktabgacha ta'limning vazifasi oilaviy tarbiyaga qo'shimcha, to'ldirish hisoblanadi. Shu bilan birga u bolalarning faol rivojlanishlari va ta'lim olishlari uchun yetarli qiziqish uyg'ota oladigan muhitni ta'minlashda ko'maklashishi lozim.

Bular yaslilar (go'dak bolalar uchun) va MTMLar tomonidan amalga oshiriladigan maxsus turdagi "bolalar parvarishi" hisoblanadi.

Mamlakat MTM ishidagi o'ziga xosligi

1. Ota-onalarni bolalarni MTMLarga har kuni (dam olish va bayram kunlaridan tashqari) tonggi soat 7 da olib keladilar va soat 17 da olib ketadilar.

2. MTMdagi tarbiya uchun to'lov, birinchidan uning mavqeiga (davlat, xo'jalik, xususiy), ikkinchidan, MTM joylashgan tumaniga bog'liq bo'ladi.

3. Iyul va avgust oylarida oylarida ko'pgina MTMlar ishlamaydilar, ta'til vaqtida shaharda qolgan bolalarni esa butun shahardan yoki tumandan bir yoki bir necha ishlayotgan MTMlarga joylashtiradilar.

4. MTM dasturiga ekskursiyalar, teatrlarga borish, rivojlantiruvchi mashg'ulotlar va xorijiy tillarni o'rgatish kiritilgan.

5. Kiyim almashtirish xonalaridagi bolalar shkaflari ochiq, eshiksiz bo'ladi (bolalar soniga bo'yicha). Ular to'rt qavatdan iborat: yuqori qavat – bosh kiyimi uchun, keyingisi – shaxsiy gigiyena predmetlari uchun, keyingisa – eng katta joy - ustki kiyimlar va bolalar MTM hududidan tashqariga chiqqanlarida kiyadigan yorug'liqni aks ettiruvchi nimchalar: ekskursiyalarga chiqishda, teatrga borishda. Eng quyi qavat – poyabzal uchun.

6. MTMda musiqa va jismoniy tarbiya uchun alohida xonalar bo'lmaydi. Musiqiy va sport markazlari aynan guruhning ichida joylashadi.

7. Bolalarning yotoqxonolari quyidagicha jihozlanadi: choyshablar bilan statsionar krovatlar faqatgina 24 soatlik guruhlarda mavjud, boshqa guruhlarda esa matrasli plastik zambillar qo'llaniladi. Bolalar kiyimlarini yechmasdan, almashtirmasdan uxlaydilar. Choyshablar ishlatilmaydi.

8. MTM mudirasining va uslubiy xona bir yerda joylashadi. Muassasa rahbari shuningdek uslubchi ham hisoblanadi.

9. Praga MTMlarida oshxonalar bo'lmaydi. Ovqatlarni MTMga yetkazib beradilar. Buning uchun har bir guruhda kichik oshxonasi bo'lib, unda yordamchi ovqatni isitadi, tarqatadi va idishlarni yuvadi.

10. MTMlarda tasviriy san'at bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar ko'zda tutilgan. U MTM qo'shimcha binosida joylashgan kulolchilik ustaxonasi tomonidan o'tkaziladi. Katta yoshdagi bolalar guruhlari bilan kichik guruhlarda kechki vaqtlarda shug'ullanadilar. Bolalar ota-onalarining portretlarini, kichik o'lchamdagi skulpturalar, o'yinchoqlar, vazalarni yasaydilar. Materiallar ota-onalarning hisobidan xarid qilinadi.

GRETSIYA maktabgacha ta'lim tizimi.

Maktabgacha ta'limning tarixiy jihati. Gretsiya G'arb taraqqiyotining beshigi hisoblanadi. Bolalarni hayotga tayyorlash, ularga o'rttirilgan tajribani yetkazish insoniyatda qadim o'tmishlarda yuzaga kelgan. Dastlab bolalar bog'chasi tarbiyachisi kasb sifatida mavjud bo'lmagan. Uning taraqqiyoti maktabgacha yoshdagi bolalarni

tarbiyalash, uydagi guvernerning nazorati ostidagi ta'limning aksi bo'lgan yangi tarbiya turining ommalashuvi davriga to'g'ri kelgan.

Qadimgi Gretsiyada bolalar tarbiyasi bilan qul shug'ullangan, keyinchalik bu uy tarbiyachisi sifatida alohida kasbiga aylandi va biroz bolalar bog'chasi tarbiyachisi zamonaviy tasavvuriga mos bo'ldi.

Ma'naviy tarbiya vositasi bo'lib folklor xizmat qilgan (ertak, rivoyatlar). Keyinchalik bolalarni onalar enaga-qullar yordamida go'daklarini tarbiyalaganlar. Ko'pincha ular pedagogik tajribaga ega bo'lgan, ma'lumotli ayollar bo'lgan. Enagalar bolalarning hayoti va sog'lig'i to'g'risida qayg'urganlar, zarur xulq-atvor malakalarini shakllantirganlar. Bolalarni yo'rgaklamaganlar, ovqat tanlamaslik, qorong'udan qo'rqmaslik, ochlik, chanqoq, noqulaylik va qiyinchilikni oson boshdan kechirishga o'rgatganlar.

Mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimining tuzilishi. Maktabgacha ta'lim majburiy hisoblanmaydi, ammo ko'pgina bolalar 2,5 yoshdan 6 yoshga qadar MTMlarga qatnashadilar. Qabul faqat yashash joyi bo'yicha amalga oshiriladi. Qonun tarbiyachilarning ishlarini qat'iy tarzda nazorat etadi: 30 nafar bola uchun 1 murabbiy.

Mazkur muassasalardagi barcha dasturlar, avvalo ta'lim jarayoni va ijtimoiy moslashuvni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Ta'limiy va psixologik guruhli va individual mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bolalarning estetik va aqliy rivojlanishiga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, kichik bolalarning ijodiy rivojlanishlari uchun turli-tuman studiyalar mavjud, ularning soni kundan-kunga ortib bormoqda. Bundan tashqari, alohida ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun xususiy MTMlar kichik bolalarning ijodiy rivojlanishlari uchun kun davomida soat 08:00 dan 15:00-16:00 ga qadar ishlaydi, ularning soni doimiy ravishda ortib bormoqda. Bolalar ikki yil davomida MTMga qatnaydilar. Shuningdek, Gretsiyada xorijiy bolalarni qabul qiluvchi xususiy MTMlar amal qiladi. Ular boshqa xususiy MTMlardan ko'ra arzonroq turadilar va davlat MTMlaridan farqli ravishda ularda bolalarni 2 yoshdan qabul qiladilar hamda ularning ish vaqti soat 18:00 ga qadar. Xususiy MTMlar qatorida asosiy muloqot tili ingliz tili bo'lganlari ham mavjud. To'rt yoshdan olti yoshga qadar MTM bolalarni boshlang'ich maktabga o'tishlarida ko'maklashuvchi dastlabki bosqich hisoblanadi. Bunday MTMlarga bepul qatnashish huquqiga Gretsiya fuqaroligiga yoki ota-onalari Gretsiyada yashash huquqiga ega bo'lganlar haqlidir. Davlat MTMlari to'liq bepul va soat 3 ga qadar ishlaydi. Nonushta,

tushlik, kechki nonushta kabi barcha oziq-ovqatlarni o'zi bilan paketlarda yoki tog'orachalarda olib kelish kerak.

Bolalar yoshlariga mos tarzda 3 guruhga bo'linadilar – birinchi guruh 3 yoshgacha, ikkinchi 5 yoshgacha, uchinchi guruh – maktabga tayyorlov guruhi. Uch nafar tarbiyachi. Uch nafar tarbiyachidan tashqari, bolalarga tushlik tayyorlaydigan xodim ishlaydi. Boshqa MTMLarda ovqat boshqa yerda tayyorlanadi va uni muassasaga keltiradilar. Gretsiya MTMLarida sut umuman berilmaydi – allergen mahsulot hisoblanadi. Tushlikka birinchi yoki ikkinchi taom va mevalar beriladi. Menyu 3 oy avval tuziladi va ota-onalarga tarqatiladi.

Tongdan bolalar barchalari birgalikda o'ynaydilar, so'ngra navbat bilan nonushta qiladilar va mashg'ulotlar o'tkazish uchun guruhlariga bo'linadilar. Tushlikdan so'ng barcha bolalar yana birgalikda o'ynaydilar. Mashg'ulotlarda turli faoliyat turlaridan foydalaniladi. Ko'pgina foydali qo'llanmalar mavjud. Mashg'ulotlarda bolalarga ko'pgina narsalarga ruxsat etiladi. Tarbiyachi ertak eshitish yoki rasmlarni tamosha qilishda bolalarni stullarda o'tirishga o'rgatgan bo'lsada, biror bolaning polga yotib olishi yoki stol tagiga kirib olishi nazorat etilmaydi. MTMda juda kichik maydonchasi mavjud, ammo unda arg'imchoq, mashinalar, tepaliklari bo'ladi.

Sayr vaqti: bolalar ularga xonada o'tirish yoqmay qolishi bilan sayrga chiqadilar. MTMda sayrlar havo yong'irgarchilik bo'lmagan vaqtlarda har kuni o'tkaziladi. Kunduzi barcha uchun majburiy uyqu vaqti belgilanmagan. Kim xohlasa uxlashi mumkin va ixtiyoriy vaqtda. MTMda shifokor yoki hamshira shtati ajratilmagan. Ikki oyda bir marta rahbariyat bilan kelishilgan holda shifokor kelib, bolalarni ko'rikdan o'tkazadi. Yil boshida barcha bolalarga o'qish dasturi tarqatiladi. Tayyorlov guruhlarining dasturi 3 betga sig'adi. Masalan, butun sentyabr oyida bolalar 1 raqamini va asosiy yo'nalishlarni o'rganadilar: yuqoriga-pastga, oldinga-orqaga. MTM dasturida shuningdek, ingliz tili mavjud. Katta guruh bolalar uchun haftada 1 marta – basseynida suzish darsi, u yerga bolalar maktab avtobusida boradilar. Ba'zan MTM tashqarisiga – muzeylar, teatrlarga ekskursiyalar rejalashtiriladi.

Maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari. Odatiy Yangi yil ertaliklari o'rniga – Injil syujetlari asosidagi rojdestvo ertaligi. Bolalar she'r va qo'shiq yod oladilar, matnlar uyda takrorlash uchun ota-onalarga beriladi.

Majlislar: majlisni psixolog o'tkazadi. U MTMga har hafta keladi, bolalar bilan shug'ullanadi, kuzatadi va 2 oyda bir marta majlis o'tkazadi. Ota-onalar yig'ilishlariga qadar tarbiyachilar shag'am yoqadilar, qahva ichadilar, turli masalalarni muhokama qiladilar. Barcha yig'ilganida psixolog mavzuni e'lon qiladi va kimda fikrlar borligini so'raydi. Ota-onalar biroz maslahatlashadilar, ammo mutaxassis fikrini tinglashga qaror qiladilar. Diqqat bilan tinglaydilar va hatto konspektlar yozib oladilar. Qiziq jihati hech kim hech qayerga shoshmaydi, qahva ichib, pedagogik muammolarni xotirjam muhokama qiladilar. Albatta, ta'mirlash yoki ovqatlanish kabi maishiy masalalar muhokama etilmaydi. Ota-onalar ta'minot uchun haq to'laydilar va bunday masalalar to'g'risida qayg'urmaydilar. MTMlar rahbariyati agar bola o'zini yomon tutsa, janjallasha va hokazo holatlarga uni qabul qilishdan bosh tortishi mumkin. Bu ota-onalar farzandiga e'tibor bermasliklarini anglatadi va u MTMga qabul qilinmasligi mumkin. Yana grek MTMlarning farqli jihati – hech kim MTMga o'zi bormaydi, har bir MTMning o'z avtobusi bolalarni olib ketgani yetib keladi. Avtobus uygacha keladi, ona yoki enagalar bolani avtobus eshigigacha kuzatadilar. Bolalarni qabul qilishda uning emlanganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma talab etilmaydi. Agar bola xastalanib MTMga qatnay olmasa, u nima bilan kasallanganligi, yoki boshqa bolalar bilan muloqot qilishi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotnoma talab etilmaydi. Hatto bolalar suvchechak bilan kasallanganlarida ham karantin e'lon qilinmagan.

Maktabgacha ta'limning maqsadi. Maktabgacha ta'limning maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

1. Bolani boshlang'ich maktabga tayyorlash, shuningdek, jinsi va kelib chiqishidan qat'iy nazar ularning shaxs sifatida shakllanishlari va ijodiy hayot kechirishlari uchun tengdosh bolalarning o'zaro munosabatlari rivojlantirish hamda umuman ta'lim muhiti bilan tanishtirish.

2. Oila tomonidan amalga oshiriladigan ta'lim jarayonini qo'llash hamda ijtimoiy moslashishni quvvatlash va kuchaytirish.

3. Guruhli va individual darajada kichik bolalarning ijtimoiy, emotsional, aqliy va ma'naviy rivojlanishlarini mustahkamlash.

KANADAning maktabgacha ta'lim tizimi.

Tarixiy jihati. Kanada ta'lim tizimining turli-tumanligi va murakkabligi uning geografik joylashuvi bilan tavsiflanadi. Rossiyadan

so'ng kattaligi bo'yicha dunyoda ikkinchi davlat bo'lib, aholisi jihatidan nisbatan kam sonli. Aholisining asosiy 30 millionlik qismi mamlakatning sharqiy qismida AQSh bilan chegaradosh hududida yashaydi. Shu bilan birga 60 foizdan ortiq kanadaliklar ikki viloyati Ontario va Kvebekda yashaydilar. Foydali qazilma boyliklarining notekis taqsimlanganligi sezilarli hududiy tengsizliklarga olib keldi, bu o'z navbatida mamlakat ta'lim tizimining rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Har bir viloyat o'z hukumati va qonun chiqaruvchi organlariga ega. Konfederatsiyani tuzishda, ta'lim viloyat hukumatlarining vakolati hisoblanishi qaror qilindi. Kanadaning ta'lim tizimida, 13 ta mustaqil tizimlar amal qiladi. Ta'lim kabi muhim sohaning bunday markazlashmaganlik xususiyati Kanada tizimining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Kanada ta'lim masalalariga an'anaviy tarzda alohida e'tibor qaratadi. 2001 yilda Kanada ta'lim sohasiga yalpi milliy daromadning 7,3% ni sarflagan, AQShda bu ko'rsatkich – 6,8%, Germaniyada - 5,7%, Yaponiyada - 4,9%. Kanadada "boshlang'ich ta'lim" tushunchasi ko'pgina viloyatlar va hududlarda maktabgacha va boshlang'ich ta'limni qamrab oladi. 4-5 yosh davridagi maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar 1-2 yillik dastur bilan ta'minlanadi. Ba'zi hududlarda maktabgacha ta'lim ijtimoiy ta'minot vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi va nazorat etiladi.

Kanada bolalar maktabgacha o'quv muassasalarini joriy etishda ilg'or hisoblanadi.

1885 yildayoq Ontario hukumati Shimoliy Amerikada ularni viloyat ta'lim tizimiga kiritdi. 1900 yilda Ontarioning 166 MTMLarda 11 mingdan ortiq bolalar ta'lim olganlar. Dastlabki Kanada maktablari 17 asr boshlarida Fransiya Katolik cherkovi diniy buyrug'i bilan ochilgan.

Tuzilishi va bo'limlari. Kanada maktabgacha ta'lim 8 oylikdan majburiy maktab yoshigacha bo'lgan davrga tegishli. Ontario viloyatida yosh davri 3 yoshgacha qisqartirilgan, 3 yoshdan bola doimiy tarzda ta'lim olishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tizimida xizmat ko'rsatuvchi ko'pgina muassasalar mavjud. Ular maktablar (MTMLar, boshlang'ich maktablarda bolalar uchun sinflar) va ko'ngilli ota-onalar va xususiy organlarni qamrab oladi. Maktab boshqaruv organlari MTMLar uchun qabul tizimini erkin tuzishlari mumkin. Ota-onalar farzandlarini qayerga joylashtirishni tanlashlari mumkin: yoki xususiy, yoki davlat MTMLariga, ular ham o'z navbatida qabul siyosatini o'zlari belgilaydilar. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun bepul muassasalarning moliyalashtirilishiga muvofiq, maktabgacha ta'lim muassasalari kamida

33 haftalik maktab ta'limi sessiyalarini taklif etishlari kerak. Odatda yil sentyabrda boshlanadi va iyulda yakunlanadi. U uch semetrga bo'linadi. Shu bilan birga ko'pgina MTMLar ko'zlangan vaqtdan ortiq ishlaydilar. Ta'minlanadigan sektordagi xizmatlar taqdim etuvchilar boshlang'ich maktablar singari (MTMLar va sinflar) odatda xuddi shunday semestrlarda ishlaydilar, shuning uchun ham 38 hafta ochiq bo'ladilar. Kunduzgi MTMLar yil davomida ishlaydi. Tarbiyachi ma'lumotga ega bo'lmasligi va oliy ma'lumotli bo'lishi mumkin.

Kanadada maktabgacha ta'lim – MTMLar yordamida ota-onalarning zimmasidadir. Kanadada ikki turdagi MTMLar mavjud – davlat va xususiy MTMLari. Davlat MTMLarida parvarish va tarbiya bepul. Ammo mahalliy MTMLarda jihozlar yetarlicha ta'minlanmagan. Bolalar o'yin o'ynaydigan yerlarining o'zida polda bo'yralar ustida uxlaydilar. MTMda ovqat tayyorlanmaydi – bolalar ota-onalari o'zlari bilan berib yuborgan oziq-ovqatni yeydilar. MTMda Yer yuzining barcha burchaklaridan kelgan bolalarni uchratasiz, chunki Kanadada asosan muxojirlar ishlaydilar. Bolalarga munosabat bir xilda, bu yerda yomon va yaxshi bolalarga ajratilmaydi, barcha bolalar yaxshi. Sizing bolangizga baqirmasliklari, u nima qilsa ham uni urishmasliklariga 100% ishonishingiz mumkin. Hukumat MTMLar uchun subsidiyalar ajratadi, ammo mazkur mablag'larni ba'zan juda uzoq kutishga to'g'ri keladi, bepul MTMLarga navbatni ham uzoq kutish kerak. Kanadaliklar bolani MTMga joylashtirish uchun uni dunyoga keltirishdan avval ro'yxatga qo'yish lozim deya xazillashadilar. Xususiy MTMLar ham mavjud. Bolaning xususiy MTMda tarbiyalanishi kuniga 25-30 dollarni tashkil qiladi. Bu MTMning afzalligi, siz bolangizni u yerga har kuni emas, zarur bo'lgan vaqtlarda olib borishingiz ham mumkin. U yerda ota-onadan ortiqcha narsa talab qilinmaydi – faqat shippak, uyqu kiyimi, bosh kiyimi va sochiq olib kelishni taklif qilishadi. Xususiy MTMda bola bilan o'ynaydilar, musiqa bilan shug'ullanadilar, faqatgina tabiiy va sifatli mahsulotlar bilan yaxshi ovqatlantiradilar. Odatda bunday MTMLar xususiy uylarda joylashadi, ular yaxshi jihozlanadi, guruhda tarbiyalanuvchilar soni - 5-7 nafar. Bunday MTMLarda odatda maxsus ma'lumotga ega bo'lgan 2-3 mutaxassis ishlaydi.

Maqsad va vazifalar. Har bir sohani rivojlantirish uchun sarflanadigan vaqt belgilanmagan. Shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanish; muloqot, til va savodxonlik; matematik qobiliyatlarni rivojlantirish; tafakkurni rivojlantirish; jismoniy rivojlanish; ijodiy

rivojlanish. Hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan barcha MTMlarda rahbariyat va xodimlar o'qitish metodi va aqliy rivojlanish uchun zarur materiallarni o'zlari belgilashlari mumkin. Maktabgacha ta'lim majburiy hisoblanmasada, so'nggi yillarda ommaviy tus olmoqda. Ko'pgina viloyatlarda bu bosqichdagi bolalar qamrovi 90 foizni tashkil etadi. MTMlarning maqsadi bolani boshlang'ich maktab ta'limiga tayyorlash hisoblanadi. MTMlarga 3-7 yoshdagi 20 nafar bolalar qatnaydilar. Ularni maktabga tayyorlaydilar, ammo bolalar o'zlarini maktabda o'qiyaptilar deb hisoblaydilar.

Maktabgacha ta'lim sinflari. Maktabda ular bir nechta (kichik va katta sinflar) turli yoshdagi va turli madaniyatli: bu sinflarda nafaqat Kanadada tug'ilgan, balki Yevropa va Osiyoda tug'ilgan bolalar ham o'qiydilar. Ba'zi bolalar gapirishni bilmaydilar, ingliz tilida gapirmaydilar. Bolalarning rivojlanish darajalari turlicha. Bir bola BSP tashxisi bilan – ammo aqliy yaxshi rivojlangan, ikki bolada psixik rivojlanishdan ortda qolish, ular bilan individual mashg'ulotlar o'tkaziladi, ammo ba'zi mashg'ulotlar, masalan sport mashg'ulotlarida umumguruh faoliyatiga qo'shishga harakat qiladilar. Barcha bolalar juda faol – barcha biror ish bilan mashg'ul bo'ladilar. Barchasi ular uchun qiziq va odatiy ekanligi his etiladi. Kanadada hech qanday alohida belgilangan tarbiya tizimi mavjud emas. Bolalarga "Yo'q" deyish taqiqlanadi. Bolalar istaganlarini qiladilar, ammo qaysar va to'polonchi bolalarni ham ko'chalarda uchratmaysiz. Kanadada tarbiyaning asosiy tamoyili xorijiy tarbiya tamoyillari asosidagi – qat'iy qoida va kun tartibining o'rnatilmasligidir. Kanadada erkin shaxsni tarbiyalashga harakat qiladilar, uning rivojlanishida erkin fikrlash va ijodga e'tibor qaratiladi.

Faoliyat yo'nalishlari. Davlat va xususiy MTMlarga qabul 8 oylikdan 6 yoshgacha. Ko'p sonli xususiy maktablar mavjud, ammo haqiqiy xususiy ta'lim tizimi mavjud emas. Mazkur maktablar Valdorf texnologiyasi va Montessori kabi metodlarni qo'llaydilar. Ularni maktab ta'limiga tayyorlaydilar, ular bilan ijodiy rivojlantiruvchi darslarni o'tkazadilar.

Xususiyatlari. Davlat va xususiy MTMlarga qabul 8 oylikdan 6 yoshgacha. Ko'p sonli xususiy maktablar mavjud, ammo haqiqiy xususiy ta'lim tizimi mavjud emas. Mazkur maktablar Valdorf texnologiyasi va Montessori kabi metodlarni qo'llaydilar. Ularni maktab ta'limiga tayyorlaydilar, ular bilan ijodiy rivojlantiruvchi darslarni o'tkazadilar.

Jazolash ta'qiqlanadi. Bolani jazolash uchun qo'ni-qo'shnilar yoki bolaning o'zi shikoyat qilishi mumkin. Kanadada bolalarni 12 yoshga qadar nazoratsiz qoldirish mumkin emas. Kanadada ota-onalar uchun jazolashsiz tarbiyalashning asosiy qo'llanmasi: "1-2-3 Magic. Effective Discipline for children 2-12", Thomas W. Phelan, Ph.D. hisoblanadi.

Qisqacha bolaning xulqi ikkiga bo'linadi: salbiy ("stop") va ijobiy ("start"). Salbiy xulqning oldini olish uchun 1-2-3 metodi qo'llanadi. Ijobiy xulq uchun maqtov qo'llanadi.

Metod 1-2-3: metodning mohiyati shundan iboratki, ota-ona vaziyat nazoratini yo'qotib jahli chiqqan hollarda, bolani jazolash yoki baqirish o'rniga ovozini chiqarib, sovuqqonlik bilan sanaydi: "Bir" bola salbiy xulqida davom etadi, "Ikki" bola davom etadi, "Uch" sanoq 3 yoki beshgacha davom etishi mumkin.

Agar bola baribir quloq solmasa, ota-ona jazolashni qo'llashi mumkin. Jazolashning mohiyati, bolani kattaning e'tiboridan mahrum qilish + yolg'izlik, do'stlari bilan muloqotni ta'qiqlash. Hammasi vaziyatga bog'liq turlicha hal etiladi. Insonning shaxsiy muhitini hurmatlash lozim. juda yaqin borish, tegajog'lik qilish, tajovuz ko'rsatish mumkin emas. Muloyim munosabat talab etiladi. Kanadaliklar sabrlilik va xotirjamlik bilan ajralib turadilar.

GERMANIYA maktabgacha ta'lim tizimi.

Maktabgacha ta'limning tarixiy jihati. Kichik bolalar uchun dastlabki muassasalar XIX asr boshlaridayoq paydo bo'lgan. Ularning asosiy vazifalari sanoat ishchilari ish vaqtlarida ularning farzandlarini parvarishlash hisoblangan. Ota-onalarni bolalarni parvarishlash dasturiga ta'limning joriy etilishi qiziqtirmagan. Shu vaqtning o'zida badavlat oila bolalari uchun MTMLarda ularni maktabga tayyorlash amalga oshirilardi.

F. Frebel tomonidan 1840 yilda tashkil etilgan va Kindergarten (bolalar bog'chasi) yangi institutlar, aqliy, hissiy tarbiyaning pedagogik jihatlariga yo'naltirildi va bu bilan avval mavjud bo'lgan MTMLarga keskin farq qildi. F. Frebelning g'oyasiga ko'ra, MTMLar bolalarning oilada oladigan tarbiyalarini to'ldirishi hamda bolalarning ijodiy va ijtimoiy rivojlanishlariga ko'maklashishi lozim. MTMLarga faoliyati 1933 yilga qadar, MTMLarni ta'minlovchi hayriya ijtimoiy tashkilotlar – Volkswolilfahrt Milliy sotsialistik ijtimoiy organ tomonidan zabt etilguniga qadar davom etdi. Uchinchi reyx davrida ayollarning ishga

chiqishlari man etildi va ko'pgina MTMlar o'z faoliyatlarini to'xtatdilar. Ayollarning ish kuchi, ayniqsa qurol ishlab chiqarish sohasida yana zarur bo'lgan vaqtda MTMlar tizimi yana rivojlana boshladi. Ikkinchi jahon urushining yakunida FRG va GDR da turlicha maktabgacha ta'lim tizimlari rivojlana boshladi. Sharqiy Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalari ochish 1945 yildan boshlandi va ular tayyorlov muassasalari sifatida qaraldi. 1965 yildan esa ular ta'lim tizimiga kiritildi. GDRda barcha bolalar uchun MTMda joy ajratilishi to'g'risidagi qonun qabul qilinishi bilan, 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan har bir bola uchun MTMdan joy ajratildi. Istagan ota-ona farzandini MTMda kun bo'yiga qoldirishi mumkin edi va buning uchun to'lov tushlik vaqtidagi ovqatlanish narxidan oshmas edi. Qolgan xarajatlar davlat byudjetidan moliyalashtirilgan. MTM xodimlarining vazifalari yagona sotsialistik ta'lim tizimi to'g'risidagi qonunda belgilangan edi. Shu tariqa maktabgacha ta'lim xalq ta'limi tizimiga o'tkazildi va mamlakat tarixida ilk bor ta'limiy jarayonning bosqichiga aylandi. Shuningdek, FRGda 1960-yillarda maktabgacha ta'lim va bolalarning boshlang'ich ta'limga o'tishlari masalalari jonli muhokama etilardi. Noqobil oilalardan bo'lgan bolalarning maktabga borishlari imkoniyatlarini qanday yaxshilash va olti yosh o'rniga besh yoshdan boshlab majburiy boshlang'ich ta'limni joriy etishning foydaliligi hal etilar edi. Ilmiy muassasalar ko'magida pilot loyihalarini amalga oshirish bo'yicha rivojlantiruvchi dasturlar tashkil etildi. Muammoning jonli muhokamasi jamoatchilik e'tiborini mazkur masalaga qaratdi va mazkur vaqtdan maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi boshlandi. Sharqiy va G'arbiy Germaniyada urushdan keyingi pedagogika gitler g'oyasini rad etuvchi tamoyillar asosida qurildi va bu maktabgacha ta'limni tashkil etish asosiy yondashuvlarini belgilab berdi. Mazkur davr yosh oilalarga yordam ko'rsatish jadal siyosati bilan tavsiflanadi. FRGda ota-onalarning bolalarni oilada tarbiyalash huquqlarini ta'minlashga katta e'tibor qaratilar edi. Shuning uchun FRG maktabgacha ta'limida tarbiyaga davlat aralashmagan. Bolalarning o'z-o'zini anglashi, erkin muhitni yaratish, mebel tanloviga alohida e'tibor qaratilgan va GDR maktabgacha ta'lim tizimiga xos bo'lgan jamoaviy tarbiya, bolalar individualligini cheklash, yagona dastur asosida ishlash rad etilgan. Shu bilan birga FRG maktabgacha ta'lim tizimi gigiyena, bolalar xavfsizligiga yetarli e'tibor berilmasligi, pedagogik jarayonda tarbiyachilarning passivliklari, bolalarning kattalarga yaqin do'stdek

munosabatlari tufayli tanqidlarga duch keldi. Germaniyaning birlashishidan so'ng FRG ta'lim tizimi afzal deb topildi. Shu sababli sobiq sharqiy Germaniyada tayyorlovdan o'tgan xizmatchilar sonining ko'pligi, G'arbiy Germaniya MTMLarida esa – bilimli tarbiyachilarning yetishmasligi kuzatildi. Mazkur masalaning hal etilishi GDR pedagoglariga pedagogik faoliyatdan voz kechishlariga kompensatsiya to'lash yo'li bilan amalga oshirildi.

Mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimining tuzilishi. 1957 yildan MTMLarga erkin qatnashish to'g'risidagi qonun amal qiladi, ularning 20 foizini davlat ta'minlaydi, 80 foizi cherkovlarga, kasaba uyushmalari, nemis Qizil yarim oy jamiyati, yoshlar xizmati va boshqa hayriya tashkilotlariga tegishli. Ota-onalar bolalar ta'minotining 50 foizini to'laydilar, boshqa xarajatlarni maktabgacha ta'lim muassasasining egasi qoplaydi.

Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalarining quyidagi **turlari** mavjud: 3-6 yoshli bolalarga mo'ljallangan to'liq kunlik va yarim kunlik MTMLar; bir guruhli maktabgacha ta'lim muassasalar (ko'proq katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun); maktablar qoshidagi guruhlar (besh yoshdagi bolalar uchun); besh yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi umumta'lim maktablarining tayyorlov sinflari; 3-6 yoshdagi sog'lom bolalar uchun sutkalik internatlar; salomatligi va rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar uchun internatlar; onalar markazlari. Unda onalar o'z farzandlari bilan birgalikda qiziqarli va foydali faoliyat bilan shug'ullanadilar, bir-birlari va pedagogika hamda psixologiya sohasidagi mutaxassislar bilan muloqot qiladilar.

Germaniyada tarbiyachilarni tayyorlash bizning mamlakatimizga nisbatan o'zgacha amalga oshiriladi. Tarbiyachilar universitetlarda tahsil olmaydilar, balki o'rta kasb-hunar ta'lim muassasalarida tayyorlanadilar. Tayyorlov 5 yil davom etadi va 3 bosqichni qamrab oladi. Birinchi bosqichda 2 yil davomida amaliy stajirovka o'tadi, bunda bo'lajak mutaxassislar tajribali pedagog rahbarligida MTM hayotiga jalb etiladilar hamda turli topshiriqlar bajaradilar. Mazkur bosqich insonga o'z yo'lini to'g'ri tanlashi, kasb tanlovining to'g'ri ekanligini tushunib yetishi, bolalar bilan dastlabki amaliy tajribaga ega bo'lish imkonini beradi.

Ikkinchi bosqich – 2 yillik nazariy ta'lim bo'lib, uning jarayonida talabalar bolalar psixologiyasi, maktabgacha pedagogika, yosh fiziologiyasi va boshqalardan bilimlar egallaydilar.

Uchinchi bosqich – bir yillik yakuniy amaliy. Unda yosh mutaxassis malakali hamkasbi bilan hamkorlikda ishlaydi va o‘z kasbining texnik ko‘nikmalarini egallaydi.

Tarbiyachilarning qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini tashkil etilishini alohida ta’kidlash zarur. Har bir tarbiyachi har yili 5-6 marta malakasini oshiradi. Bu kurs juda qisqa bo‘lishi (1-3 kun) va davomli bo‘lishi ham mumkin (2 haftagacha). Pedagogning turli faoliyat sohalariga bag‘ishlanishi mumkin – ota-onalar bilan ishlash, bolaning rivojlanishini kuzatish tamoyillari, tashxis, maxsus predmetlar – masalan, MTMda tadqiqot ishlarini o‘tkazish, qiziqarli musiqiy o‘yinlarni qanday o‘tkazish yoki ekskursiyalarni va uning asosida syujetli o‘yinlarni qanday o‘tkazish va boshqalar. Shu tariqa pedagog muntazam (2 oyda bir marta) ravishda, ishdan deyarli ajralmagan tarzda o‘zining kasbiy darajasini oshirish, zamonaviy pedagogik va psixologik innovatsiyalar bilan tanishish, bolalarni tarbiyalash va rivojlanishlariga yangi metodikalarni joriy etish va muhimi hamkasblari bilan yangi g‘oyalari, ijodiy izlanishlari bilan o‘rtoqlashish imkoniga ega bo‘ladi. MTMda 7-10 nafar pedagog va 1-2 nafar stajerlar ishlaydi. Bolalar bilan har bir xonada 2 nafar pedagog bolalarni kuzatadilar, zarur hollarda qiziqarli mashg‘ulotlarni taklif qiladilar va bolalar faoliyatini yo‘naltirib turadilar, nizoli vaziyatlarni hal qiladilar. An’anaviy guruhlarini bo‘lmasligiga qaramay, pedagoglar belgilangan bolalarni nazorat qiladilar va ular uchun javobgarlikni oladilar. Har bir pedagogga 20-25 nafar turli yoshdagi bolalar birlashtiriladi. Tarbiyachilar o‘z bolalarini kuzatadilar, bolalar muassasasi chegarasida ularning harakatlanishlarini nazorat qiladilar va zarur holda uni tuzatadilar. Masalan, agar bola o‘zi uchun faqat bir mashg‘ulotni tanlayversa, pedagog asta-sekinlik bilan uning e’tiborini boshqa mashg‘ulotga qaratadi (bunga mos ravishda boshqa xonaga ko‘chiradi), ammo yakuniy tanlovni bolaning o‘zi qabul qiladi. Germaniyada ochiq MTM pedagogi ishining farqli jihati tashqi nazorat organlarining yo‘qligi hisoblanadi. Bolalar muassasalari davlat organlari oldida o‘z ishlari to‘g‘risida hisobot bermaydilar. Bu tarbiyachining ishini tashkil etishda juda muhim holat, chunki nazoratning yo‘qligi, bir tomondan tarbiyachining javobgarligi va mustaqilligini oshiradi, ikkinchi tomondan – tarbiyaviy ishlarni tekshiruvchi komissiyalarga emas, balki bolaga yo‘naltiradi.

MTM maqsadi va ish yo‘nalishlari. Germaniyada bolalar maktabgacha ta’lim muassasalari bugungi kunda ta’lim tizimining

ajralmas tarkibiy qismi sifatida qabul qilinadi. 1990 yildagi qonunga muvofiq bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarining **maqsadi** asosan, bolani parvarishlash. Uning tarbiyasi va ta'limi orqali bolada mustaqil va ijtimoiy yo'naltirilgan shaxsni tarbiyalash hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim sohasida bilimlar alohida sohadagi mashg'ulotlar yoki haftada alohida soatlar ko'zda tutilmagan, shuningdek qat'iy belgilangan o'quv dasturlari ham qo'llanilmaydi. MTMda 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan ishlash doirasida bolalarning ma'naviy, jismoniy, hissiy va ijtimoiy kompetentliklarini rivojlantirish maqsadida quyidagi yo'nalishlardagi pedagogik faoliyat ko'zda tutilgan: nutq rivojlanishi, shrift, kommunikatsiya; shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish, ma'naviy qadriyatlar tizimi (diniy tarbiya); matematik bilim, tabiat, texnika asoslari (shu jumladan, axborotli); musiqiy rivojlanish, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish; odam organizmi, harakatlanish, salomatlik; ijtimoiy va jonli atrof-olam.

Qiziqarli dalillar. Germaniyada maktabgacha ta'lim mashhurlikka ega emas. "Bolani maktabda o'qitadilar", - deb hisoblaydilar ota-onalar. Bolani kuniga bir necha soatlarga olib kelinadigan "O'yinli guruhlar" onaning boladan dam olishi uchun imkoniyat bermaydi. Ularda bolalar onasi yoki enagasining ishtirokida vaqt o'tkazadilar. Enagalar odatda bolalar o'yin o'ynagunlari, muloqot qilgunlarigacha, choy ichadilar, bir-birlarini uyda tayyorlangan shirinliklar bilan mehmon qiladilar, uzoq suhbat quradilar.

Germaniyada MTM – erta tongda ish boshlab, eng kechi bilan kunduzi 2 da ishini tugatuvchi, bolalar uchun klublarga o'xshaydi.

Bolalar MTMda tushlik qilmaydilar. Bunday muhim odat uyda o'tkazilishi lozim, bo'lmasa bola o'zini oilada ajralib qolgandek his qilishi mumkin deb hisoblanadi. Ona bolaning tarbiyasi va parvarishida muhim rol o'ynaydi, yoki enaga buni amalga oshiradi. MTM ikkinchi darajali hisoblanadi, ammo uning ahamiyatini onaning roli bilan solishtirib bo'lmaydi. Germaniyada bolalar (8 yoshda ham) umuman televizor ko'rmaydilar, chunki uyda televizor bo'lmaydi, yoki ota-onalar uni faqatgina bolalar uxlaganlaridagina ko'radilar. Nemislar qoidaga qat'iy amal qiladilar: bola qanchalik uzoq televizor ko'rmasa, uning sog'lig'iga shunchalik foyda. Bolalar kanallari mavjud bo'lishiga qaramay, faqatgina ba'zi ota-onalar kuniga 15-30 daqiqa televizor ko'rishga ruxsat beradilar. Bolalar bilan kinoteatrlarga bormaslikka harakat qiladilar. Yuqorida ta'kidlanganidek, bolalar deyarli kun bo'yi

uyda bo'ladilar: o'yinchoq o'ynaydilar, rasm chizadilar, musiqa bilan yoki to'garaklarda shug'ullanadilar (sport seksiyalarida). Germaniya, boshqa Yevropa mamlakatlari singari, davlat bolalarning huquqlarini himoyalashga jiddiy va mas'uliyatli yondashadi. Bolalar o'z huquqlarini biladilar. Bunga ularni MTMlardayoq o'rgatadilar. Shuning uchun ota-onalarga ko'pgina narsalar mumkin emas. Masalan, bolani urish, xafa qilish, jazolash, ularga baqirish mumkin emas.

KIPRda maktabgacha ta'lim tizimi.

Tarixiy jihati. Kiprda bolalarga, shu jumladan maktabgacha yoshdagi bolalarga bo'lgan munosabat ko'p yillik tarixiga ega: butun mamlakat bo'ylab keng nishonlanadigan bayramlardan biri – bu Bolalar kuni. Kiprda bu kun dam olish kunidir. Bu bayram 1920 yilda Anqarada birinchi Buyuk milliy majlis chaqirilishi munosabati bilan 23 aprelda nishonlanadi. Bu milliy-erkinlik kurashining boshlanishi bo'ldi va respublika boshqaruvi qurilishidagi birinchi qadam hisoblandi. Turk respublikasining birinchi prezidenti Kemal Otatyurk millatning kelajagi bolalarda va bolalikdan boshlanadi deb hisoblagan. Uning vasiyatiga ko'ra bolalar kuni nishonlanadi.

Kiprda **maktabgacha ta'lim tuzilishi.** Kiprda ta'lim quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Maktabgacha ta'lim bosqichi.
2. O'rta ta'lim bosqichi.
3. Oliy ta'lim.

Orolda maktabgacha ta'lim ikki bosqichga ajratiladi: MTM va tayyorlov maktabi. Bu MTM va boshlang'ich ta'limdan iborat asosiy ta'limning bir qismi hisoblanadi. Davlat tomonidan taklif etiladigan maktabgacha ta'lim MTMlar tarbiyachilarining oylik maoshlarini ham to'laydi. Shuningdek, davlat darsliklar va boshqa zarur o'quv materiallari xarajatlarini ham qoplaydi. Qolgan xarajatlarni bolalarning ota-onalari o'zlari to'laydilar. Kiprda MTMlar jamoatchilik, davlat va xususiyatlarga ajratiladi. Jamoatchilik MTMlar – faqatgina kiprlik bolalar uchun, davlat MTMlari biror jamoa bolalarining barcha ehtiyojlariga javob bermagan hollardagina ishlaydi. Bunday MTMlar Ota-onalar tashkiloti yoki mahalliy hokimiyat tomonidan tashkil etiladi va boshqariladi. Ular shuningdek, yillik qo'shimcha moliyaviy ko'mak ko'rsatuvchi Ta'lim va madaniyat vazirligida ro'yxatdan o'tishlari lozim. Mazkur muassasalar daromad keltiruvchi tashkilot hisoblanmaydi. Ularda malakali

mutaxassislar ishlaydi va ularning faoliyatini Ta'lim, madaniyat vazirligi nazorat qiladi. Mazkur MTMlarga 3 yoshdan 5 yoshu 8 oylikkacha bo'lgan bolalar qatnaydilar. Maktabgacha ta'limni davlat va xususiy MTMlar, boshlang'ich maktablarni nazorat qiluvchi qonunchilik hujjatlari boshqaradi.

Davlat MTMlariga bola uch yoshlik davridan qatnashishi mumkin. Tabiiyki, bolaning bunday MTMda tarbiyalanishi ota-onalar uchun xususiy MTMlarga nisbatan ancha arzon tushadi, chunki davlat MTMlari Kiprning Ta'lim va madaniyat vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi. Xarajatlarning bir qismini esa, o'yinlar, zarur jihozlar, xilma-xil oziq-ovqatlar, texnik ishchilarning xizmatlarini ota-onalar assotsiatsiyasi to'laydi. Davlat MTMlari dushanbadan jumaga qadar soat 7.45 dan kunduzi 13.05gacha ishlaydi.

Xususiy MTMlar jismoniy shaxslar tomonidan xususiy sektorda Ta'lim va madaniyat vazirligini ruxsati asosida tashkil etiladi. Ularning ishi xususiy maktab va institutlarga taalluqli qonunlar asosida boshqariladi. Xususiy MTMlar sentyabrdan may oyigacha faqat ish kunlarida (bolaning shanba kunlari MTMga kelishi shaxsiy tartibda kelishilari) ishlaydilar. Ko'pgina xususiy MTMlarning o'z oshxonalari mavjud va bola u yerda to'liq to'rt mahal ovqatlanishi mumkin. Bunday muassasada bolaning yarim kunlik tarbiyalanishi oyiga 130-170 yevro, kuni bo'yi bo'lishi esa 200-400 yevro atrofida tashkil etadi (MTMning sharoitlariga bog'liq holda).

Kiprda maktabgacha ta'lim maqsadi. Kiprda MTMlarning maqsadi –bolalarni maktabga tayyorlash, ya'ni maktab uchun zarur bo'lgan barcha ko'nikma, malakalarga o'rgatish va maktab tartib-intizomiga moslashtirishdan iborat. Kiprda bolalar maktabga olti yoshdan boradilar.

Ta'lim mazmuni:

MTMdagi kunduzgi dastur – bu bolalarning ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlari asosida o'qituvchi tomonidan rejalashtiriladigan darslardir. Darslar tartibi qat'iy belgilanmaydi. O'qituvchi qaysi darsdan so'ng qaysi darsni o'tishini o'zi hal qiladi. Darslar davomiyligi ham xuddi shunday belgilanadi. Dasturning asosiy qismlari: erkin tadbirlar (40 daqiqa): ijtimoiy, jamoaviy va badiiy tadbirlar: roli o'yinlar, tajriba-sinovlar, kuzatuv, o'qish, yozish asoslari va matematik topshiriqlarni bajarish.

1-dars (40 daqiqa): til, fan, matematika, jismoniy tarbiya, atrof-muhitni o'rganish, ijtimoiy ta'lim, dinshunoslik.

2-dars (40 daqiqa): hikoyalar aytish, teatr, musiqa, qo'g'irchoq teatrlari, o'yinlar va she'rlar aytish.

Ko'chadagi mashg'ulotlar (40 daqiqa): jismoniy tarbiya, o'yinlar, bog'dagi ishlar, atrof-muhitni kuzatish.

Sokin mashg'ulotlar (40 daqiqa) maktab kunini yakunida o'tkaziladi: til, matematika, mustaqil ish yoki kichik guruhlarda ishlash. Bu mashg'ulotlar orasida qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkaziladi (40 daqiqa): tozalash, yuvinish, nonushta va o'yinlar uchun bo'sh vaqt.

Maktabgacha ta'limning o'ziga xosligi. Davlat MTMlariga qaysi davlatda tug'ilganidan qat'iy nazar, ota-onalarda bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnomasi bo'lgan barcha bolalar qabul qilinadilar. Ammo ularda joylar soni chegaralangan – ularga joylashtirish oson emas. Avvalo moliyaviy jihatdan qiynalgan oilalarning arizalari ko'rib chiqiladi.

MTM o'qituvchilari (tarbiyachilar emas!) sentyabrning birinchi dushanbasidan ish boshlaydilar va yozgi ta'tilga iyun oyining so'nggi jumasidan chiqadilar. Mashg'ulotlar har yili sentyabr oyining ikkinchi dushanbasidan boshlanadi va iyun oyining uchinchi juma kunida yakunlanadi.

XITOIDa maktabgacha ta'lim.

Maktabgacha ta'limning tarixiy jihati. "Litszineysze" tarixiy hujjatida – er.avv. XI asr quldorlarning bolalarini o'qitish loyihasi taqdim etilgan edi, unda bolalarning yosh davrlariga ko'ra xususiyatlari e'tiborga olingan. Mazkur hujjat Xitoy tarixida maktabgacha ta'lim tilga olingan eng dastlabki hujjat hisoblanadi. Faylasuflar (Konfutsiy) va o'sha davr pedagoglari jamoaviy maktabgacha ta'lim g'oyalarini ilgari surganlar, muammo bolalarning tarbiyasi faqatgina oilaviy bo'lgan.

Faqatgina XIX asrda jamoaviy maktabgacha ta'lim muassasalari yuzaga kela boshladi. Xitoy maktabgacha ta'lim tizimi mohiyati jihatidan Yaponiyaning maktabgacha ta'lim tizimidan nusxa oldi. XXR tashkil etilganidan so'ng (1949 yil) maktabgacha ta'lim muassasalari sovet "mehnat maktablari" andozasi bo'yicha tashkil etildi. Xitoyga sovet olimlari tashrif buyurib, SSRda ta'lim tizimi amaliy tajribalari va nazariy g'oyalarini targ'ib qilardilar.

“Madaniy inqilob” davrida (1966-1976) Xitoy ta’lim tizimi deyarli butunlay barbod etildi. Faqatgina 1978 yildan uni tiklash va zamonaviy jamiyatga moslashtirish ishlari amalga oshirildi.

Mamlakatda maktabgacha ta’lim tizimining tuzilishi. Mamlakatda ta’lim bilan shug’ullanuvchi organ Ta’lim vazirligi hisoblanadi. U ta’limni yagona rejalashtirish, muvofiqlashtirish va boshqarish ishi bilan shug’ullanadi. Xitoyda MTMLar davlat, idoraviy va xususiylarga bo’linadi. Davlat MTMLari boy pedagogik va boshqaruv tajribasiga egadirlar, ularda tarbiyalanish uchun to’lov oz miqdorda – bu yerda bolalarni estetik tarbiyaviy jihatlargacha, mehnatga o’rgatadilar va maktabga tayyorlaydilar. Xususiy MTMLar esa oxirgi bir necha yillar davomidagina shakllandi, ulardagi ta’lim uchun to’lov nisbatan yuqori bo’lib, bu yerda bolalarning madaniy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Xitoyda xususiy MTMLarning bir necha tarmoqlari mavjud.

Ulardan biri – “Xunin”. Bu 90 dan ortiq shaharlardagi 200 dan ortiq MTMLar. Tarmoqni yaratuvchisi va tashkilotchisi pedagog Van Xunin hisoblanadi. “Xunin” tarmog’ida MTMLar uchun o’yinchoqlar, qo’llanmalar, kompyuter dasturlari ishlab chiqaruvchi fabrikalar ham mavjud.

Tuzilishi: Xitoyda MTMLar katta - 270 nafar tarbiyalanuvchilar va 60 nafar kattalar. MTMLar ularda bolalarning tarbiyalanish vaqtlari bo’yicha farqlanadilar: kunduzgi; ba’zilarida esa bolalar kechalari qoladilar. Bolalar yoshi 3 yoshdan 6 (7) yoshgacha. Yosh guruhlari: kichik, o’rta. Katta guruhlar. Kichik guruhlarda 25 nafar, o’rta guruhda – 30 nafar, katta guruhda – 35 nafar bolalar tarbiyalanadilar.

Odatda har bir guruhda maxsus tayyorlovdan o’tgan ikki tarbiyachi va bir yordamchi ishlaydilar. MTM qat’iy belgilangan kun tartibi asosida ishlaydilar, o’quvchilar bilan jamoaviy ish turlari qo’llaniladi. Bolalar bir xil kiyim kiyadilar.

MTM maqsadi va ish yo’nalishlari. Barcha MTMLar yagona tarbiyaviy – ta’lim dastur – maktabgacha ta’lim bo’yicha direktor dasturi bo’yicha ishlaydilar (tajriba-sinov varianti). Mazkur dastur (2001 yil) Ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan va L.S.Vigotskiy, J.Piaje, G.Gardner, xitoy pedagogi Dao Sichji nazariyalari, shuningdek Italiyaning Redjo’nel’Emiliya shahridagi pedagogik tajribalarni umumlashtirish asosila tuzilgan.

Dastur besh bo’limdan tashkil topgan:

- salomatlik (sog'liqni mustahkamlash, sog'lom turmush tarzi asoslarini tarbiyalash (odat va ko'nikmalar);

- nutq (kommunikativ faollikni oshirish, nutq qobiliyatlarini rivojlantirish);

- ijtimoiy ko'nikmalar (o'z-o'zini sevishni, o'ziga ishonch, boshqalar to'g'risida qayg'urish va ular bilan ijobiy aloqalar o'rnatishni tarbiyalash, shaxsning umumiy rivojlanishiga ko'maklashish;

- ilmiy qiziqishlar (qiziquvchanlik va bilim orttirishga intilishni rag'batlantirish, bilish qobiliyati rivojlantirish);

- san'at (estetik tuyg'ularni shakllantirish, emotsional hozirjavoblik va go'zallik yaratish istagini tarbiyalash).

Qiziqarli dalillar. Xitoydagi rasmiy talab – oilada bir farzandning dunyoga kelishidir. Xitoyliklar bolalarni musiqiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadilar, bunda boshqa qobiliyatlarning rivojlanishi uchun musiqiy qobiliyatlarni asosiy deb hisoblaydilar. Xitoy tarbiya tizimi o'zining jiddiyligi, haddan tashqari tashkiliyligi va individual yondashuvning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Ammo xitoy ota-onalar bunday hisoblamaydilar: "Oilada yolg'iz farzand xudbin bo'lib uyg'ayishi mumkin", ta'lim tizimi esa mazkur kamchilikni to'g'rilashi mumkin.

GOLLANDIYA (Niderlandiya) maktabgacha ta'lim tizimi.

Maktabgacha ta'limning tarixiy jihati. 1980 yilga qadar mamlakatda ayol-onalarning mehnat bozoridagi oz ishtiroki sababli maktabgacha muassasalar tizimining yaxshi rivojlanmaganligi xosdir. Davlat hukumati organlarining faoliyati samaradorligi haqida gap borganda, maktabgacha muassasalarga qatnovchi bolalar soni 4% dan 2010 yilda 51,2%ga ortganligini ta'kidlash zarur (MTMlar kabi mavqega ega bo'lgan o'yin zallariga qatnashish, enagalar xizmati va uzaytirilgan kun guruhlarini inobatga olmaganda). O'rganilgan davrdagi maktabgacha ta'limning miqdor va sifat ko'rsatkichlari yaxshilandi. Bolalar muassasalari soni, MTMlarda bolalar soni ortdi, asosan oliy ma'lumotli pedagoglar ishlay boshladilar. Boshqaruv sohasida maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat yuritishida ishtirok etuvchi tashkilotlar ro'yxati kengaytirildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining rivojlanishi quyidagi tamoyillar asosida amalga oshmoqda:

- xizmatlarga ijtimoiy adolat tamoyili asosida haq to'lanishi;

-maktabgacha ta'lim bilan maksimal miqdordagi bolalarni qamrab olinishi;

-ko'pgina onalarning ishlash istagini hisobga olish zaruriyati.

Mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimining tuzilishi. Bolalar parvarishi bilan Ijtimoiy rivojlanish va ish bilan ta'minlash vazirligi shug'ullanadi.

Bolalarga maktabgacha ta'lim rasman 4 yoshdan boshlab taqdim etiladi.

6 haftalikdan boshlab bolalar bilan ishlashga yo'naltirilgan ko'pgina ta'limiy-tarbiyaviy muassasalarning mavjudligi. 6 haftalikdan boshlab 3 yoshgacha bo'lgan bolalar to'g'risida g'amxo'rlik qiluvchi, dushanbadan jumaga qadar soat 8.00 dan 18.00ga qadar ishlaydigan kunduzgi bolalar yashilari mavjud. Bir bolalar guruhi bilan ikki nafar malakali o'qituvchilar ishlaydilar. Mazkur yosh guruhidagi bolalar uchun yarim ish kuni – kuniga jami 5 soatlik ishlaydigan yashilar mavjud.

Maktabdan tashqari mashg'ulotlar boshlang'ich maktab bolalari uchun mo'ljallangan – 4 yoshdan 12-13 yoshgacha – mazkur xizmatlarni taklif etuvchi ko'pgina muassasalar yil davomida ishlaydi.

Maxsus agentstvalar orqali tegishli ma'lumotga ega bo'lgan enagalarni topish mumkin.

Niderlandiyada 2-2,5 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalar o'yin guruhlaridan joy olishlari mumkin. Bunga qaramay, alohida muassasalar avvalo ijtimoiy yoki tibbiy muammoli bolalarga, shuningdek, rivojlanishdan ortda qolish xavfi bo'lgan bolalar parvarishiga e'tibor qaratadilar. Tug'ilganidan 4 yoshgacha bo'lgan bolalar kunduzgi yoki to'liq bo'lmagan smenada ishlaydigan MTMlariga qatnaydilar. Shuningdek, sutkalik ish rejimi xizmatlari bilan maktabgacha muassasalar ham mavjud. Guruhlar sig'imi ko'pi bilan 10-15 nafarni tashkil etadi. MTM xizmatlarining narxi muassasaning yuqori sifati, mahoratli pedagoglar tomonidan bolalarga xizmat ko'rsatilishi, xilma-xillashirilgan ovqatlanish, turli rivojlantiruvchi o'yinlar va boshqalar bilan oqlanadi. Ya'ni moddiy ta'minot bilan bog'liq muammolar deyarli yuzaga kelmaydi.

Moliyalashtirish mahalliy hokimiyat, ish beruvchilar, shuningdek ota-onalar tomonidan amalga oshiriladi. Ish beruvchilar tomonidan moliyalashtiriladigan bolalar muassasalari turli muassasa ishchilarining farzandlari uchun mo'ljallangan. Shu maqsadda bolalar xonalari maxsus tayyorlanadi yoki bolalar yashilari va MTMlarda ijaraga olinadi. Bolalar

xonalarining ta'minoti uchun ish beruvchilar qo'shimcha moliyalashtirish oladilar.

Davlat hokimiyati organlari bolalar parvarishi bo'yicha quyidagi qoidalarga amal qilish va faoliyatni tashkil etish va xizmat sifatini nazorat qilishga katta e'tibor qaratadilar:

- xavfsizlik va salomatlik;
- kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
- guruhda ishchilar va bolalar sonining nisbati;
- maktabgacha muassasalarda bolalarni parvarishlashning gigiyenik talablari.

Maktabgacha ta'lim maqsadi. Ta'lim bolaning emotsional sohasi, intellekti va san'atini rivojlantirishga, ijtimoiy, madaniy va jismoniy malakalar bilan bir vaqtda zarur bilimlarni egallashga yo'naltirilgan. Maxsus maktablardagi ta'lim oluvchilar sog'lom bolalar bilan teng ravishda ta'lim olishlariga yo'naltirilgan. Ta'lim dasturi quyidagilarni qamrab olgan:

- sensor koordinatsiya va jismoniy ta'lim;
- nemis tili;
- arifmetika va matematika;
- ingliz tili;
- dalilli fanlar, masalan geografiya, tarix, biologiya, ijtimoiy tuzilmalar (jumladan, siyosiy fan), shuningdek, diniy va g'oyaviy tarbiya,
- tilni, musiqani, o'yin, harakatlarni qo'llashga qaratilgan ifodali tadbirlar;
- ijtimoiy va hayotiy ko'nikmalar, jumladan ko'chada o'zini tutish qoidalari va sog'lom turmush tarziga amal qilish.

Qiziqarli dalillar. Bolalar parvarishiga ota-onalarning hissasi ularning moliyaviy imkoniyatlariga bog'liqdir. Ularning daromadlari qanchalik kam bo'lsa, ota-ona shuncha kam haq to'laydi. 2005 yil 1 yanvarda kuchga kirgan "Bolalar parvarishi to'g'risida"gi qonunga ko'ra bolalar uchun xarajatlar ota-ona, ish beruvchi va hukumat o'rtasida taqsimlanishi kerak. Qonun ish beruvchilar va ota-onalar xarajatlarning uchdan bir qismini qoplashlarini nazarda tutadi. Agar ular xarajatlarni qoplamasalar, hukumat yillik daromadi bo'lgan ota-onalarga belgilangan summadan kamroq kompensatsiyani taqdim etishi mumkin. Bola parvarishi uchun nafaqani ota-onalar nafaqat MTMlardan foydalanish,

balki o'yin zallari va enagalar xizmatidan foydalanish uchun ham oladilar.

Boshlang'ich maktablarda 4 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar.

Vakolatli organlar (maktab kengashlari) 4 yoshgacha bo'lgan bolalarga ularning tug'ilgan kunlariga qadar ikki oy davomida haftada 5 kungacha maktabga qatnash imkonini berishlari mumkin. Bu maktab muhitiga moslashishga ko'maklashadi. Rasman bola 4 yoshgacha maktabga qabul qilinishi mumkin emas, ammo amaliyotda bolalarning 98 foizi ular 4 yoshga to'lishlaridan avvalroq qatnay boshlaydilar. Maktabga to'liq qatnash muddati bola 5 yoshga to'lgan oyning birinchi kunidan boshlab bir oydan so'ng boshlanadi.

Niderlandiyada ota-onalar bolani ixtiyoriy davlat yoki xususiy maktabga berishlari mumkin. Maktab ma'muriyati u yoki bu predmetlarning qancha vaqt va qachon o'rganilishini mustaqil hal qiladi. Faqatgina "Boshlang'ich ta'lim to'g'risida"gi qonunning birgina cheklovi mavjud, bu yilida darslar minimal soniga taalluqli. Maktab kuni kun bo'yiga teng taqsimlangan tadbirlar bilan kamida besh yarim soat davom etishi zarur (tanaffuslar hisobga olinmaganda). Dastlabki o'quv yilida o'quvchilarning o'rtacha yuklamalari haftada 22 darsni tashkil qiladi.

Davlat organlari tomonidan muntazam ko'rib chiqiladigan sotsiologik so'rovlar o'tkaziladi. Vakolatli organlar orqali parlament saylovlarida ota-onalar dasturlari ota-onalarni himoyalashda ijtimoiy siyosatiga yo'naltirilgan partiyalarga ovoz beradilar, shuningdek aloqa elektron OAV, Internet-saytlar orqali murojaatlar orqali amalga oshiriladi, shuningdek fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri hukumat organlari yoki Niderlandiya qirolichasiga murojaat etishlari mumkin.

POLSHA. Tarixiy ma'lumot. Polshaning ta'lim tizimi Ta'limni tasniflash Xalqaro me'yorlariga (ISCED) mos keladi va dunyodagi eng ilg'or hisoblanadi. Polsha ta'lim tizimi quyidagi tuzilishga ega: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim. Yashash darajasi va narxlarni inobatga olganda Polsha ta'lim olish uchun eng e'tibor tortuvchi jozibali mamlakatlardan biridir. Oliy ta'lim olish pullik. Agar Polshada ta'lim olishni istasangiz, sizga ingliz tilidagi dasturlar keng tanlovi taklif etiladi. Masalan bunday imkoniyatni Polshaning eng nufuzli universitetlari hisoblangan Lazarski University

(Lazarskiy Universiteti), Kozminski University (Kozminskiy) taklif etadilar.

Mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimining tuzilishi. Polshada ta'lim tizimi tuzilishi: MTM, 8 yillik boshlang'ich maktab (majburiy), "boshlang'ichdan keyingi" deb nomlanuvi maktablar: 3 yillik asosiy kasb-hunar maktabi; 4 yillik texnik va kasb-hunar litseylari, 5 yillik kasb-hunar texnikumlari, litseylar va shunga teng maktablar, 2-2, 5 oylik yozgi maktablar.

MTM maqsadi va ish yo'nalishlari:

rivojlanib borayotgan axborot jamiyatida ta'lim mazmuni, texnologiyalari va metodikalarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni shakllantirish, muvofiqlashtirish va o'tkazish;

innovatsion o'quv-uslubiy majmualarni, jumladan maktabgacha, umumiy o'rta va maxsus ta'lim, maktabdan tashqari tarbiya va ta'lim muassasalari uchun elektron ta'lim vositalari maketli namunalarni ishlab chiqish, ilmiy-pedagogik ekspertizadan o'tkazish, tajriba-sinovda tekshirish va ta'lim amaliyotiga joriy etish;

maktabgacha, umumiy o'rta va maxsus ta'lim, bolalar va o'quvchi-yoshlar tarbiyasi sohasida ta'lim sifatini va tajriba-sinov faoliyati monitoringini metodik ta'minlash;

oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ta'lim jarayoni ishtirokchilari shuningdek maktabgacha, umumiy o'rta va maxsus ta'lim muassasalari uchun ta'limiy va konsalting xizmatlari ko'lamini kengaytirish;

Mazkur vazifalarni hal etish Milliy ta'lim institutining o'zaro bir-birini to'ldiruvchi funksiyalarni amalga oshirishini nazarda tutadi: ilmiy-tadqiqot, ilmiy-uslubiy, ilmiy-ta'limiy, tahrir-nashr.

Qiziqarli dalillar. Bugungi kunda Polshada yagona maktabgacha ta'lim Yevropa tizimi amal qiladi. Bu ota-onalar avvalgidek bolani boshlang'ich maktabga tayyorlov yilidan tashqari MTMga berish yoki bermaslik, to'liq yoki qisqartirilgan kunga berish ixtiyorlari mavjudligini anglatadi. Polshada ko'pgina MTMlar – mahalliy. Ularning darajasi yetarlicha yuqori. Chunki davlat mazkur sohasiga ko'p e'tibor qaratadi. Mahalliydan tashqari jamoat MTMlari rivojlanmoqda, ular ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va rivojlanishdan ortda qolgan yoki imkoniyati cheklangan bolalar uchun mo'ljallangan. Polshada xususiy MTMlar tarbiyachilar sonining ko'pligi va tarbiyalanuvchilarning

guruhlardagi soni ozligi hamda katta e'tibor va moddiy bazasi bilan ajralib turadi. Xususiyl MTMlarga juda badavlat insonlarning farzandlari qatnaydilar. O'rta sinf fuqarolari yaxshi sifatli mahalliy MTMlar xizmatlaridan foydalanadilar. MTMdagi oxirgi yil Polsha qonunchiligiga ko'ra istisnosiz ravishda barcha bolalar uchun, jumladan Polsha fuqarosi bo'lmagan – doimiy istiqomat qiluvchi bolalar uchun ham majburiy hisoblanadi.

AQShda maktabgacha ta'lim. Tarixiy jihati. AQShda birinchi MTM 1855 yilda ochilgan. U muxojirlar – nemislar tomonidan tashkil etilgan.

19 asr oxirlarida MTMlar soni sezilarli darajada ortdi, ular ayollar sanoat ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan, kam ta'minlangan aholi qatlamlari bolalari uchun yaratilar edi. Ammo hozirgi kunga qadar AQShda yagona davlat bolalar tarbiyasi tizimi mavjud emas. So'nggi vaqtlarda AQShda davlat maktablarida, kichik maktabgacha yosh bolalar (4 yoshgacha) ta'limi va tarbiyasi guruhlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda, jumladan sovet maktabgacha tarbiya tizimi o'rganilmoqda. Ammo amerikalik mutaxassislarining fikricha, bu yo'nalishdagi ishlar ko'p hollarda qoniqarsiz va sustlik bilan amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda atigi 24 ta Amerikaning shtatlarida maktab okruglari qoshida bunday "kichik maktabgacha" guruhlar tashkil etilgan.

Mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimining tuzilishi. AQShda ta'lim tizimi markazlashmagan, bu yerda mamlakatning barcha bolalari uchun yagona o'quv dasturlari va standartlari mavjud emas. Chunki ta'lim masalalari AQSh Konstitutsiyasida yoritilmagan, bu esa mazkur soha shtatlar hukumati boshqaruviga tegishli ekanligini anglatadi. Shunga qaramay, 1980 yildan AQShda Ta'lim vazirligi (bu AQSh hukumatining eng kichik vazirliklaridan biri, taxminan 5000 xodim) tashkil etilgan.

AQSh Ta'lim vazirligi ta'lim muassasalarini tashkil etmaydi va ularni boshqarmaydi. Uning tarkibiga quyidagi bo'limlar kiradi: nogironlik va reabilitatsiya masalalari bo'yicha Milliy institut; talabalarga federatsiya ko'magi boshqarmasi; turli konsultativ kengashlar hamda qo'mitalar va boshqalar.

Muassasalar turlari: davlat maktablari, kollejlari, universitetlari qoshidagi MTMlar; xususiyl MTMlar; bolalar markazlari; rivojlanish markazlari; cherkov va milliy jamoalar qoshidagi MTMlar; tashkilotlar

MTMlari. AQShda maktabgacha ta'lim majburiy hisoblanmaydi. Ota-onalar farzandlarini 3-5 yosh davrida ixtiyoriy tarbiyaviy muassasalarga berishlari mumkin.

Amerikada maktabgacha ta'lim ikki bosqichdan iborat: yasli (Nursery school) va MTM (Preschool) va maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi: yaslilarda, MTMlarda va maktabgacha tayyorlov markazlarida – maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xususiy va jamoatchilik MTMlarida, Nursery school.

Yasli. Yasliga 3-4 yoshli bolalar qabul qilinadilar, ular o'qish, hisob, rasm chizish va musiqa asoslarini o'rganadilar.

Children Day Care Center – turli yoshdagi bolalarni rivojlantirish markazi.

Nomlari: Child care, Babycare, Daycare.

Kindergarten – tarjimasida bolalar bog'chasini anglatadi, ya'ni bolalar muassasasi, u yerda bolalar ota-onalari ishda band bo'lganlarida vaqtlarini o'tkazadilar va maktabgacha tarbiya oladilar. Ammo Kindergarten atamasining umumqabul qilingan amerikacha mazmuni – bu maktabdan oldingi tayyorlov yili (5 yoshdan 6 yoshgacha). Agar bu yoshga qadar oila vaziyatga qarab, bolani enaga bilan qoldirishni yoki uni MTMga joylashtirishni qaror qilsalar, unda "tayyorlovchi"ga an'anaviy ravishda barcha vazifalar o'tadi. Kindergarten mohiyatiga ko'ra – bu nolinchii sinf bo'lib, kichik yoshdagi bolalarni boshlang'ich maktab ta'limiga tayyorlaydilar, unda o'yinlardan asta-sekin o'qish, yozish, matematika asoslari, ijodiy mashg'ulotlarga o'tiladi.

To'lov. Har bir shtatda va shaharda to'liq yoki qisman davlat ta'lim agentliklari moliyalashtiradilar, ularni maktablarda (distriktlarda) yoki davlat va mahaliy ta'lim xizmatlari rahbarligida boshqaradilar. Ammo asosiy maktabgacha ta'lim muassasalar – xususiy. Ulardagi to'lov odatda oyiga 1200-1600 dollarni tashkil etadi, barchasi muassasasining nufuzi, ta'lim-tarbiyaviy dasturlarning sifati, tarbiyachilarning soni va xizmatlar paketi, bolaning yoshi va u muassasada o'tkazadigan soatlar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, dotatsiyalar dasturi ham mavjud, masalan Head Start – kam daromadli insonlar bolalar uchun MTMlar. Bunda to'lov oyiga 400 dollargacha kamaytirilishi yoki umuman bepul bo'lishi mumkin. MTMning byudjeti, jumladan xodimlarning oylik maoshlari asosan ota-onalarning xissasidan yig'iladi.

Maktabgacha ta'limni yakunlashda, bu qaysi shtat ekanligiga bog'liq ravishda ota-onalar o'quvchi uchun yutuqlari baholangan

sertifikat oladilar. Bu bolani boshlang'ich maktabga qabul qilishda qator holatlarda zarur bo'ladi. Amerikaning maktabgacha ta'lim sohasi har bir shtatda boshqa shtatlarnikidan kuchli farqlanadi ko'pgina shtatlarda kam ta'minlangan oilalar uchun "Head Start" MTMlari va davlat maktablari qoshidagi rivojlanishdan ortda qolgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus guruhlardan tashqari, davlat MTMlari umuman mavjud emas.

Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalari. AQShda yagona maktabgacha ta'lim tizimi mavjud emas. U belgilangan vazifalarni hal etishga qaratilgan turli qisqa muddatli va uzoq muddatli dasturlar doirasida tashkil etiladi. AQShda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga mo'ljallangan to'liq kunlik va yarim kunga mo'ljallangan, shuningdek, turli vaqtlarga mo'ljallangan, ota-onalarga qulay vaqtni tanlashlariga imkon beruvchi dasturlar mavjud. 3-4 nafar alohida ehtiyojli bolalar uchun mo'ljallangan dasturlar yaratilgan. Odatda bular pullik dasturlar, ammo ular boshqa manbalardan ham to'lanishi mumkin.

Bola kunning birinchi yarmida bir dastur asosida, kunning ikkinchi yarmida boshqa dastur asosida shug'ullanishi mumkin. Bolalarning turli dasturlarda ishtirok etishlari qo'llab-quvvatlanadi, bu ularning turli-tuman tajriba orttirishlari, yangi katta insonlar bilan muloqot qilish orqali munosabat doiralarini kengaytirish imkonini beradi.

Bugungi kunda alohida ehtiyojlariga ega, maktab ta'limi qiyin o'zlashtirilishi ehtimoli bo'lgan bolalar ota-onalari bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etish masalalari dolzarbdir. Bunday bolalarning ota-onalari bolaning individual rivojlanish rejasini pedagoglar bilan birgalikda ishlab chiqishda ishtirok etadilar va uni tasdiqlaydilar.

Xususiyatlari. Amerikada MTMlarga navbat kutish muammosi mavjud emas. Odatda yaqin atrofdagi ko'pgina muassasalardan birini erkin tanlash va bolani guruhga qabul qilinishini bir-ikki oy avvaldan kelishib olish mumkin. Agar muassasa yoqmay qolsa, ixtiyoriy vaqtda boshqa MTMga o'tish mumkin.

Jihozlanishi. Bino. Alohida bino bo'lishi mumkin. Ammo ko'pincha bu ko'p qavatli binoning birinchi qavatida joylashgan, go'daklar uchun kuniga bir necha soatlarga o'z eshiklarini ochadigan bir necha xonalardan iborat MTM bo'lishi mumkin. Go'dak bolalar kattaroq yoshli bolalardan alohida bo'ladilar. Bir katta insonga – 3 nafar bola to'g'ri keladi. 2 yoshdan katta guruhlarda bu nisbat 1 katta insonga 8 nafar ko'pi bilan 12 nafar bola to'g'ri keladi. Bir yoki ikki tarbiyachining

bir guruhida 8-12 nafar ko'pincha turli yoshdagi bolalar tarbiyalanadilar. Bir guruh bolalari kuni bilan bir xonada bo'ladilar – unda shug'ullanadilar, o'ynaydilar, ovqatlanadilar va uxlaydilar. Bolalar ixtiyorida sanoqsiz o'yinchoqlar va ijod qilish uchun uskunalar mavjud bo'ladi. Uxlash uchun yumshoq matraslar bo'lib, unda bola istagan vaqtida dam olishi, yotishi yoki uxlab olishi mumkin. Amerika MTMlarida uxlash uchun vaqt qat'iy belgilanmagan, krovatlar va choyshablar, kiyim almashtirish imkoniyatlari nazarda tutilmagan. Ammo bolaning ixtiyoriy vaqtda uyqusi kelib qolganida unga ertak ham aytib beradilar, qo'ldan ushlab yonida birgalikda yotishlari ham mumkin. Uyqu vaqtini bolaning o'zi belgilaydi, tarbiyachilar unga faqatgina yordam ko'rsatishlari mumkin.

Ovqatlanish. Amerikadagi rusmga aylangan sog'lom turmush tarziga qaramay MTMlarda bunga rioya etilmaydi. Turli bo'tqalar tayyorlanmaydi, bolani ovqatini oxirigacha yeyishiga majbur etilmaydi, bolalar ota-onalari tayyorlagan va o'zlari bilan olib kelgan ovqatni yeydilar. Bu ko'pincha hamburger kabi oziq-ovqatlardan iborat bo'ladi.

Deyarli barcha muassasalarda harflar, raqamlar, ranglar geometrik shakllar va boshqalar o'rgatiladi. Barqaror ta'lim dasturi mavjud emas. Mazkur ta'limning natijalari hatto yashash mikrorayoniga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha rivojlanish guruhleri mavjud emas, faqatgina xususiy darslar olinishi mumkin. Futbol, gimnastika, suzish va boshqa sport turlari bo'yicha xususiy sektorlar mavjud (to'lov asosidagi va arzon bo'lmagan).

TURKIYAda maktabgacha ta'lim.

Tarixiy jihati. Turkiyadagi mavjud maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va tarbiyasi sohasining shakllanishi dastlabki davri XIX asrning birinchi yarmiga tegishli. Mamlakatda mustaqil maktabgacha ta'lim muassasani yaratishni yo'lga soluvchi dastlabki qoidalar to'plami 1915 yilda qabul qilindi. 1961 yilda (Ta'lim to'g'risidagi yangi Qonun) Milliy ta'lim vazirligi faoliyati doirasida bolalarni barvaqt rivojlantirish tizimining muhimligi to'g'risida ochiq muhokama eta boshladilar.

Mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimining tuzilishi. 1992 yilda Vazirlik tarkibida Maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi tashkil etildi. Mazkur boshqarma Turkiyada bolalarning maktabgacha rivojlanish dasturlarini tartibga solish, nazorat qilish va joriy etish bo'yicha asosiy javobgarlikni zimmasiga oladi. Ijtimoiy ta'minot va

bolalikni muhofazalash Agentligi qoshida ham bosh boshqarma mavjud. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarni maktabga tayyorlash MTMlari, tayyorlov sinflarida, yashilarda, kunduzgi parvarish uylarida amalga oshiriladi. Xususiyl ta'lim tizimi Turkiyada 1869 yildan faol rivojlana boshladi. Hozirgi vaqtda u barcha ta'lim muassasalari turlarida, ta'limning barcha bosqichlari, shu jumladan MTMlari taklif etiladi. Ularning faoliyatlari 1965 yil 8 iyundagi xususiyl ta'lim muassasalari to'g'risidagi Qonun bilan tartibga solinadi. Maktabgacha ta'limning fakultativ to'lovli shakllari va dasturlari mamlakatda 1953 yilda paydo bo'ldi. Turkiya MTMlari xodimlari asosan pedagoglardan iborat, ular albatta bolalar rivojlanishi yoki maktabgacha ta'lim sohasidagi OTMlar bitiruvchilari hisoblanadilar, xodimlar shtatiga shuningdek, haydovchi, shifokor, oshpaz, qorovul, texnik mutaxassis kiritilgan.

Maktabgacha ta'lim maqsadi va ish yo'nalishlari. Turkiyaning davlat hamda xususiyl MTMlarida amalga oshiriladigan maktabgacha ta'lim zamonaviyl dasturi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashga yo'naltirilgan. Turkiyada maktabgacha ta'lim majburiyl hisoblanmaydi. Shu bilan birga u jismoniy yoki ruhiyl nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun majburiyl hisoblanadi. Har bir bunday bola individual o'quv-tarbiya rejasiga ega bo'ladi, bunda ota-onalar bolaning har bir rivojlanish bosqichida pedagoglar bilan hamkorlikda ishlaydilar. Turkiya MTMlaridagi ta'lim-tarbiya dasturlari turli-tuman va mazmun jihatida boydir. Musiqa, savodxonlik va o'qish bo'yicha mashg'ulotlardan tashqari, bolalarning o'yinlarini tashkil etish, teatr va kinolarga borish, kostyumlashtirilgan tadbirlar va mavzuli kechalar o'tkazishga katta e'tibor beriladi. Ammo Turkiyaning zamonaviyl MTMlari dasturlarida aniq o'quv fanlarini o'qitish ko'zda tutilmagan. Turli MTMlarga qatnashish dasturlari bir-biridan farqlanadi (to'liq kunlik guruhlar, qisqa vaqtli guruhlar mavjud, amaliyotda soatlik mashg'ulotlar va o'yinlar joriyl etilgan). Qator muassasalarda ona va bolaning birgalikdagi bo'lishlari ko'zda tutilgan.

Xususiylatlari. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirishning vazifalaridan biri kam ta'minlangan oila farzandlari uchun farovon ta'lim muhitini yaratish hisoblanadi. Mazkur vazifani hal qilish doirasida mamlakatning davlat MTMlari yetarli bo'lmagan qishloq joylarida ularga kam ta'minlangan va noqobil oilalar farzandlarini qabul qilish ustuvor etib belgilanadi.

BUYUK BRITANIYAda maktabgacha ta'lim tizimi.

Tarixiy jihat. 18 asr oxirlarida kichik bolalar ta'limini tashkil qo'llab-quvvatlash yuzaga kela boshladi. 1996 yildan – maktabgacha ta'lim tizimi to'g'risidagi qonun, 1997 yil – erta ta'limdagi islohotlar. 1998 yil – maktab standartlari to'g'risidagi qonun, majburiy maktab yoshiga yetmagan (5 yosh) bolalar uchun vaqti bo'yicha to'liq va to'liq bo'lmagan maktabgacha ta'limni belgilab berdi. 2000 yil sentyabrdan ta'limning olti asosiy sohalariga asoslangan ta'limning asosiy bosqichi taqdim etildi. Ilk ta'lim – 3-5 yoshdan boshlanadigan ta'limning alohida bosqichi.

Tuzilishi va bo'limlari. Ish vaqti tonggi soat 8 dan kechki soat 6 ga qadar.

Ta'lim va fan departamenti. Buyuk Britaniyaning ta'lim tizimi tizimostilariga ajratiladi: Angliya va Uels, Shimoliy Irlandiya, Shotlandiya davlat (mahalliy), xususiy MTmlar, 3 – 5 yoshdan, guruhlar bo'yicha, yosh bo'yicha. 5 yoshdan majburiy ta'lim – “kichik bolalar uchun maktab”, 7 yoshdan – 11 yoshgacha kichik maktab, 11 yoshdan – 14 yoshgacha, 14yoshdan – 16 yoshgacha.

“Yasli maktab” 3-5 yoshdan, yasli sinflar, kunduzgi sinflar, o'yinli oilaviy markazlar, ona va bola klublari. Bolalarni tarbiyalashning yagona dasturi yo'q, har bir yasli maktabi” o'z dasturi asosida ishlaydi.

Maqsadi va vazifalari. Maqsad: parvarish sifatini oshirish, zamonaviy vaziyatda moslasha olishni bilish. Vazifalar: shaxsiy, ijtimoiy va hissiy rivojlanish; matematik qobiliyatlarni rivojlantirish; tafakkurni rivojlantirish; tilni rivojlantirish; jismoniy rivojlanish; ijodiy rivojlanish; fan va texnologiyada ilk tajriba; atrof-muhitni tanish va hurmat qilish.

Qiziqarli dalillar. Majburiy guruhli mashg'ulotlar o'tkazilmaydi, aqliy rivojlanish o'yin shaklida amalga oshiriladi. O'yinchoqlar va o'yin uskunalarini tanlashga alohida e'tibor qaratiladi. Mustaqil shug'ullanadilar, 15% vaqt guruhli ta'lim uchun, uyqu vaqti bo'lmaydi, maxsus kiyim, qat'iy tartib-intizom, ozgina kechikish uchun ota-onalar tushuntirish xati yozadilar. Bolaning kela olmasligi (biror sabab tufayli) to'g'risida ota-ona rahbariyatni oldindan yozma ogohlantirishi lozim.

Qabul vaqtida emlashlar to'g'risidagi ma'lumotnoma talab qilinmaydi. Ota-onalarga bu masalaga to'liq ixtiyorlari o'zlariga yuklatilgan. 3 yoshdan boshlab ota-onalar davlat tomonidan vaucherlar shaklidagi moliyaviy yordam oladilar, bu ularga haftada 5 marta ixtiyoriy MTMda bepul sessiyalarga borish huquqini beradi. Sessiya

davomiyligi – 2,5 soat. Bu kabi davlat va ota-onalarning moddiy hamkorliklari hayotni sezilarli darajada yengillashtiradi: bola 2,5 soatda MTMga bepul olib borish yoki mazkur haq to'liq kun hisobiga yig'iladi va to'liq hisobdan yechib olinadi.

Agar xususiy MTMdan bola o'z vaqtida olib ketilmasa, ustama haq har bir daqiqa uchun hisoblanadi.

VENGRIYAda maktabgacha ta'lim. Tarixiy jihati. Markaziy Yevropadagi birinchi maktabgacha ta'lim instituti 1828 yilda grafmya Teréz Brunszvik tomonidan Budapeshtda tashkil etilgan. Uning asosiy maqsadi – mamlakatning halol va foydali fuqarolarini o'qitish bo'lgan. Birinchi maktabgacha ta'lim institutlari Venada, Pragada vengriya modeli asosida qurilgan. 1891 yilda "Maktabgacha ta'lim institutlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu vaqtdan boshlab, birinchi maktabgacha ta'lim muassasalari tarmoqlarini ochishga asos solindi. 1938 yilda 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan 26,3% bolalar birinchi maktabgacha ta'lim institutlariga qatnasha boshladilar.

II Jahon urushidan so'ng maktabgacha ta'lim institutlari hech qanday kompensatsiyalarsiz milliy lashtirildi.

1950 yilda bolalarning faqatgina chorak qismi maktabgacha ta'lim institutlariga qatnashganlar, 1965 yilda esa bu ko'rsatkich ikki barobarga oshdi. Mazkur davrda iqtisodiyot jadal rivojlandi, ayollarni ommaviy ravishda ishga qabul qilish tufayli, sanoatning ba'zi sohalar va jamoat institutlari o'z xodimlarining bolalar uchun maktabgacha ta'lim institutlari va kunduzgi xonalarni ochdilar. 1989 yilda ta'lim institutlari hukumat vasiyligidan mahalliy boshqaruvga o'tkazildi. Institutlarda qo'shimcha xizmatlar yuzaga kela boshladi, maxsus pedagogik dasturlar ishlab chiqildi

Mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimining tuzilishi. Vengriyada maktabgacha ta'lim tarmoqlari quyidagi institut turlarida taqdim etiladi:

1. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatuvchi kunduzgi bolalar xonalari va institutlari, ular jamoat ta'lim tizimiga tegishli emas, ularni Ijtimoiy va oilaviy ishlar vazirligi nazorat qiladi.

2. Mahalliy boshqaruv, hukumat institutlari, kollejlari, cherkovlar va jismoniy shaxslar maktabgacha ta'lim muassasalari (institutlari)ni o'z ichiga olishi mumkin. Barcha maktabgacha ta'lim institutlarining 5 foizini hayriya asosidagi va xususiy MTMlar tashkil etadi. Xususiy

maktabgacha ta'lim institutlari odatda asosiy ta'limiy maqsadlarini o'z dasturlarida belgilaydilar va bolalar uchun maxsus rivojlanishni ta'minlaydilar (til o'rgatish, ot minishga o'rgatish, suzish, san'at darslari).

3. Kollejlar ham maktabgacha ta'lim institutlarini o'z ichiga oladilar, ularda o'quvchilar (maktabgacha ta'lim o'qituvchilari) amaliyotdan o'tadilar. Maktabgacha ta'lim institutlarida ishlash uchun tayyorlov maktabgacha ta'lim o'qituvchisi darajasini beruvchi kurslarida o'qitiladi (maktabgacha ta'lim o'qituvchisi, maxsus maktabgacha ta'lim o'qituvchisi). maktabgacha ta'lim o'qituvchisi – 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun malakali mutaxassis.

4. “Jamoatchilik ta'limi to'g'risida”gi Qonunga muvofiq Vengriyaning maktabgacha ta'lim institutlari mustaqil ta'lim institutlari yoki boshqa maktabgacha ta'lim muassasasiga birlashtirilgan institut yoki ko'p funksiyali institutning bir qismi sifatida ishlaydilar.

5. “Jamoatchilik ta'limi to'g'risida”gi Qonun u yoki bu rivojlanishida og'ishlarga ega 3 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan pedagog ishlarni kengaytirdi. Ular mazkur og'ishishlar aniqlangan vaqtdan boshlab, ularning aqliy va jismoniy holatlariga javob beradigan maxsus ta'lim olish huquqiga egalar.

Mahalliy hukumat tomonidan sog'liqni saqlash va jamoat ta'limi barvaqt rivojlanish markazlarida amalga oshiriladi.

Bunday markazlar har bir hudud va poytaxtda mavjud. Markazdagi xizmatlar bepul va markazda kasallarni parvarishlash toifasiga kiritiladi. So'ngra rivojlanish bo'yicha ishlar uyda davom ettiriladi.

6. Kunduzgi bolalar xonalari ham nogironligi bo'lgan bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatadi. Bolalar soniga qarab hamshiralar ular bilan birlashtirilgan yoki alohida guruhlarda shug'ullanadilar. Shu bilan birga o'qituvchilar, logopedlar va boshqa shifokorlar maslahati asosida har bir bola bilan alohida ishlaydilar.

7. Shuningdek nogironligi bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim institutlari tashkil etiladi. Ular uchun maktabgacha ta'lim uy parvarishi shaklida amalga oshiriladi, bolaning maxsus ehtiyojlari borasida suhbatlar o'tkaziladi, barvaqt rivojlanish va parvarishlash markazlari tashkil etiladi va h.k. og'ir buzilishlari bo'lgan, maktab ta'limini ololmaydigan bolalar 5 yoshdan majburiy tayyorgarlikdan o'tadilar. Maqsad va topshiriqlar bolaning sog'lig'i holati va individual rejasi asosida amalga oshiriladi. “Jamoatchilik ta'limi to'g'risida”gi

Qonun bunday bola qayerda: mazkur bolalar uchun maxsus tashkil etilgan alohida institutda yoki tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishi to'g'risida aniq ko'rsatma bermaydi. Ikki usul ham mumkin hisoblanadi. Shu bilan birga, Qonun nogironligi bo'lgan bolalar uchun yaratilishi kerak bo'lgan sharoitlarni belgilab bergan. Tibbiy va texnik uskunalariga belgilangan mos bo'lgan atrof-muhit omillariga qo'shimcha ravishda bolalarni mazkur buzilishlar turiga tegishli malakaga ega mutaxassislar (terapevtlar) kuzatishlari kerak.

Vengriyada maktabgacha ta'limning mazmuni. Maktabgacha ta'lim institutlarining asosiy ta'limiy maqsadlari "Jamoatchilik ta'limi to'g'risida"gi Qonunda belgilangan. Maktabgacha ta'lim muassasalari qonun talablari va maktabgacha ta'lim uchun milliy ta'lim dasturlari talablariga javob beradigan ta'lim dasturlarini tuzishlari lozim.

Mahalliy ta'limiy dasturlar maktabgacha ta'lim institutlari tomonidan mustaqil yoki Jamoatchilik ta'limi to'g'risida"gi Qonunga (01.09.1999y.). muvofiq o'zgaradigan mavjud dasturlar asosida qabul qilinadi.

Dastur o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi lozim: maktabgacha ta'limning tamoyillari, maqsadlari va ta'limiy topshiriqlari; bolalar va yoshlarni muhofaza qilishga yo'naltirilgan pedagogik tadbirlar; bolalarning ota-onalari, vasiylari va mutaxassis organlari bilan hamkorlik tamoyillari; shakllari va metodlari; ta'limiy ishni baholash va ta'lim sifatini kafolatlash tizimini yaratish; ta'limiy dasturni bajarish uchun zarur bo'lgan majburiy o'quv maqsad va vositalar ro'yxati.

Milliy ta'lim dasturi quyidagi tamoyillarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim maqsadlarini belgilaydi: maktabgacha ta'lim shaxsning rivojlanishi, inson huquqlarini va asosiy erkinligini hurmatlashni kuchaytirish; bolalar shaxs sifatida rivojlanishda maxsus himoya huquqiga egalar; bolalar ta'limi – birinchi navbatda oilaning huquqi va majburiyati; maktabgacha ta'lim institutlari faqatgina qo'shimcha rol o'ynaydilar; maktabgacha ta'lim institutlarining funksiyalari bolalarni, ularning ijtimoiy, ta'limiy va shaxsiy rivojlanishlarini himoyalashga asoslanadi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi:

– bolalarning barkamol rivojlanishlarini ta'minlash, yosh va rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda bolalar shaxsining rivojlanishi, jumladan alohida ehtiyojlarga bo'lgan bolalarning;

– maktabgacha ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy va jismoniy ehtiyojlari, jumladan sog'lom turmush tarzi, hissiy ta'lim, ijtimoiylashuv, aqliy rivojlanishni qondirishga javobgar hisoblanadi.

MTMni boshqarish. Ta'lim siyosatini nazorat qiluvchi hukumat ikki spravochnik-ma'lumotnomani nashr etdi: "Metodologiyaga sharhlar" (1953) va "Maktabgacha ta'lim institutida ta'limiy ishlar" (1957). Mazkur spravochnik-ma'lumotnomalar maktabgacha ta'limning majburiy ta'sirini tartibga solar edi.

1971 yilda maktabgacha ta'limning mohiyatini belgilab bergan dastur chiqarildi. 1989 yilda dasturning o'zgargar shakli paydo bo'ldi.

1990 yilda 1985 yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning o'zgartirilishi maktabgacha ta'lim o'qituvchilari tayyorlanishini kollejlarga birlashtirdi, 1993 yildan bu kollej fakultetlarida o'qitilmoqda. 1996 yilda "Maktabgacha ta'lim institutlari to'g'risida"gi Qonun maktabgacha ta'limni mustaqil ta'lim institutiga ajralishiga sabab bo'ldi, ammo shu bilan birga u jamoatchilik ta'limining tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Ta'lim vazirligi maktabgacha ta'lim institutining kasbiy nazorati uchun javobgar.

Ta'minotchilar (asosan mahalliy boshqaruv) maxsus maktabgacha ta'lim institutlari orqali MTMning ta'lim jarayoni samaradorligini kuzatishlari mumkin.

"Jamoatchilik ta'limi to'g'risida" gi Qonun maktabgacha ta'lim instituti guruhlarida bolalarning o'rtacha sonini 20 nafar etib belgilab berdi. Bir guruhdagi bolalarning maksimal soni – 25 nafar. Ikki maktabgacha ta'lim o'qituvchilari bolalar bilan navbatma-navbat, ikki soat – hamkorlikda ishlaydilar. Har bir guruhning o'z xonasi mavjud. Ko'pgina MTMlar jismoniy tarbiya uchun o'z sport zallariga egalar.

MTMlarda bolalar guruhlari sonini ikki turga ajratish mumkin:

1-turi – 1–3 turli yosh guruhlari ega institutlar;

2-turi – 4–8 teng yoshli guruhlari bo'lgan ta'lim muassasalari. Rivojlanishida og'ishlari bo'lgan bolalar maktabgacha ta'lim institutlariga boshqa bolalar bilan birgalikda yoki ularning buzilishlari turiga qarab maxsus muassasalarga qatnashishlari mumkin. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning ko'pchiligi birgalikdagi guruhlarda ta'lim oladilar. Birgalikdagi ta'limni taklif qiluvchi maktabgacha ta'lim institutlari o'zlarining mahalliy ta'lim dasturlarida alohida ehtiyojli bolalar uchun rejani qabul qilishlari kerak. Agar xodimlar orasida nogironligi bo'lgan bola bilan ishlaydigan malakali mutaxassis bo'lmasa

institut uni tashqaridan yollashi mumkin. Mos sharoitlarni taklif etuvchi maktabgacha ta'lim institutlari nogironligi bo'lgan bolalarni o'qitish uchun yaxshi moliyalashtiriladi. Maktabgacha ta'lim institutlarining ish vaqti ota-onalarning ish soatlariga mos ravishda belgilanadi va bolalar uchun haftada besh kun 10-12 soat atrofida xizmat ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim bepul, ota-onalar o'z bolalarning ovqatlari va qo'shimcha xizmatlari uchungina haq to'laydilar.

Bolalar 5 yoshdan boshlab maktab hayotiga tayyorlovchi sessiyalarda qatnashishlari kerak (kuniga 4 soat).

6 yoshga to'lgan bolalar (31 maygacha) qonunga ko'ra maktabga chiqishlari kerak. Ular maktab ta'limi uchun yetarli tayyorgarlikdan o'tdilar deb hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim instituti qoidalari bolalarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Mazkur qoidalar institut direktori tomonidan tuziladi va pedagoglar tomonidan qabul qilinadi. Maktabgacha ta'lim uchun quyidagilar xos: bolalar to'g'risida g'amxo'rlik, ularning ehtiyojlarini qondirish; ularning barkamol va muvofiqlashtirilgan rivojlanishlarini osonlashtirish; jismoniy imkoniyatlarning rivojlanishini osonlashtirish; bolalar salomatligini muhofazalash va yaxshilash; sog'lom turmush tarziga odatlantirish; o'sish va rivojlanish uchun zarur bo'lgan sog'lom va xavfsiz muhitni ta'minlash; bolalarning ijtimoiy ong, o'zlariga ishonchlarini oshirish; bolalarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, farqliliklarga bag'rikenglikni tarbiyalash; ona tili va boshqa muloqot shakllarini qo'llashni rivojlantirish; so'zlash istagini qo'llab-quvvatlash; ta'lim jarayonida olingan bilimlarni o'rtoqlashish va oshirish; aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish: his etish, idrok, xotira, diqqat, xayol, bilish va ijodiy qobiliyatlar.

Mashg'ulotlarning asosiy shakli o'yin hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi guruhda mos muhitni yaratishga mas'ul hisoblanadi.

Bolalar bilan qo'shimcha ish shakllari quyidagilar: she'r va masallardan misollar keltirish; kuylash, musiqiy jo'rlik; rasm chizish, origami; ish elementlari bilan tadbirlar; harakatlar; atrof-olamni faol o'rganish; o'rganish.

Bolalarning bir guruhdan keyingisiga o'tishlarida tarbiyachi o'zgarmaydi, u doimiy ravishda bolalar rivojlanishlarini kuzatadi (rivojlanish kundaligi, shaxs varaqasini yuritadilar). Vengriyada bolalarning maktabga tayyorlik darajalarini aniqlovchi aniq standartlar

mavjud emas. Amaliyotda o'qituvchilar baholashning turli usullarini qo'llaydilar (asosan o'tilgan mavzuni so'rashni afzal ko'radilar).

Vengriyada maktabgacha ta'limning xususiyatlari.

1. Bolalar kunduzgi xonalari xizmatlarini kengaytirish yangilik sifatida qaraladi (kunduzgi oilaviy parvarish, go'daklar uchun guruhlar, bolalarga uy nazorati, o'yinchoqlarni ijaraga berish).

2. O'rtacha aqliy og'ishlari bo'lgan kichik bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim institutlari mavjud emas.

3. Institutlarda guruhlar hisobga olinayotganida nutq va aqliy rivojlanishda og'ishlari bo'lgan bolalar ikki nafar o'rniiga sanaladi, jismoniy va o'rtacha aqliy og'ishlari bo'lgan bolalar hamda soqov bolalar uch nafar deb hisoblanadi.

4. Etnik va milliy ozchiliklar uchun MTMlar mavjud. Etnik va milliy ozchiliklarga kiruvchi bolalarning maktabgacha ta'limi o'z madaniyatiga hurmatini oshirishga yo'naltirilgan. Mazkur muassasalarda bolalarning o'z ona tillarida o'qitiladi.

5. Ko'pfunksiyali ta'lim muassasasi – asosiy madaniy markaz bo'lib, unda MTM, maktab yoki kutubxona bir binoda ishlaydi va alohida kasbiy boshqaruvga ega bo'ladi.

6. Maktabgacha ta'limda akademik yil maktab tizimidagi kabi 1 sentyabrdan boshlanadi va 31 avgustda yakunlanadi. Dars jadvali muassasa tomonidan belgilanadi. Yozgi ta'tillar, bayram va ish kunlari rejalashtiriladi (2 haftadan 6 haftagacha).

NORVEGIYADA maktabgacha ta'lim. Tarixiy jihati.

Norvegiyada maktabgacha ta'lim tizimining tashkil topishi nafaqat mamlakatga yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga, balki geografik xususiyatlar va madaniy rivojlanishiga bog'liq bo'ldi. Maktabgacha ta'limning yuzaga kelishi to'xtatib turuvchi asosiy omil aholining joylashuvi bo'ldi. Bir oila boshqasidan olisda joylashgan edi. Barcha tabiiy zaxiralardan foydalanish va oila barcha a'zolarining og'ir mehnati orqaligina yashash mumkin edi. Bunday oilalarda bolalar tabiiy ravishda maishiy va ijtimoiy hayotga jalb etilar edilar.

XX asrning oltmishinchi yillariga qadar maktabgacha yoshdagi bolalar oilada uddalay oladigan mehnat vazifalarini bajarganlar va uy xo'jaligida muhim suvanchig'i bo'lganlar.

XIX oxirlarida ishchi o'rinlarning o'sishi va shahar tipidagi sanoat punktlarining shakllanishi mamlakat hayot darajasini ko'tardi.

Mazkur jarayonning sustligi tufayli ko'pgina maktabgacha yoshdagi bolalar urushdan keyingi davrlarga qadar ham jamoat tarbiyasiga muhtojlik sezmay, oila tarbiyasini olganlar. XX asr 30-yillarida davlat hukumatining ta'lim siyosatidagi markaziy motivi har bir fuqaroga ta'lim uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash istagi bo'ldi. Bunday yakdillik jamoatchilik maktabgacha tarbiya tizimini yaratishda kuzatilmadi. Uning yaratilishida asosan mamlakat ayollari ishtirok etdilar va bu mazkur masaladagi kadrlar siyosatini belgilab berdi.

Hozirgi vaqtda hukumat o'z oldiga, 7 yoshgacha farzandi bo'lgan har bir oilaga yordam ko'rsatish vazifasini qo'ygan. Bu 7 yoshgacha bo'lgan barcha bolalarga MTMlarga qatnashish imkoniyatini taqdim etish muammosini hal etishga turtki bo'ldi.

Norvegiya hukumati 2009 yilda bir yoshdan besh yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun MTMga qatnashish huquqini ta'minladi.

Tuzilishi. Ta'lim va tadqiqotlar vazirligi (Norvegiya) ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va MTMlar uchun javobgar hisoblanadi. Vazirlik 1814 yildan tashkil etilgan. Bo'lim qonun chiqaruvchi hukumatga hisobot beradi.

(Stortingga). An'anaviy ravishda bu vazirlik shuningdek, cherkov ishlariga mas'ul bo'lgan, ammo bu vazifa 2002 yilda madaniyat va cherkov ishlari bo'yicha vazirlikka berilgan.

Tashkiliy tuzilma

Fan va oliy ta'lim vaziri

Maktabgacha va kichik maktab ta'limi vaziri

Uch davlat kotibi

Siyosiy maslahatchi

Departamentlar

Maktabgacha ta'lim va bolalar parvarishi departamenti

Ta'lim va kasbiy tayyorlov departamenti

Oliy ta'lim departamenti

Tadqiqotlar departamenti

Siyosat tahlili, hayot davomidagi ta'lim va xalqaro munosabatlar departamenti

Boshqaruv va moliya departamenti

Boshqaruv va taraqqiyot departamenti

Kommunikatsiya bo'limi

20 nafar bolalar guruhida 4 nafar tarbiyachi bo'lishi, ulardan 2 nafari maktabgacha ta'limdan oliy ma'lumotga ega bo'lishi lozim, 2 nafariga bu shart emas (ular yordamchi bo'lishlari mumkin). Bolalar ona

va otani idrok etishlari uchun guruhda tarbiyachilar orasida bir yoki ikki erkak bo'lishi kerak. Agar bir ishchi o'rniga MTMda ikki xohlovchilar to'g'ri kelsa, erkak kishi doimo bu o'rinni egallashga ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Norvegiya MTMlarida tarbiyachilik ishiga ega bo'lish uchun nomzod albatta poli-attestatini ko'rsatishi lozim, bu sudlanish to'g'risidagi ma'lumot ko'rsatiladigan hujjat. Jinoiy tarixiga ega insonni bunday ishga qabul qilmaydilar. 2-3 oyda tarbiyachilar bolalar psixologiyasi bo'yicha kurs va seminarlarda qatnashadilar. Tarbiyachi bolani koyish, unga baqirish, tana jazosini qo'llashga haqqi yo'q.

Maqsad va vazifalar. Maktabgacha ta'lim sohasidagi pedagogik qarashlarning rivojlanishi BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya tamoyillariga tayanadi. Norvegiya davlatida XX asr 70-yillaridan jamoat maktabgacha ta'lim muassasalari amal qilishi yagona tizimi yuzaga keldi va muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. U norvegiyalik bolalar ta'limining yagona tizimiga kiritilgan. U o'sib kelayotgan avlodning rivojlanishi va tarbiyasiga oid jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini amalga oshiruvchi davlat siyosatining murakkab tuzilmasi hisoblanadi.

1. Mamlakatda tarbiya va ta'limning yagona dasturining mavjudligi, barcha maktabgacha ta'lim muassasalarini qamrab oluvchi, tarbiyaviy ishlar mazmunining barqarorligiga sabab bo'ldi. Norvegiya dasturining asosiy xususiyati uning shaxsga yo'naltirilganligi va insonparvarlik pedagogikasi tamoyillari hisoblanadi.

2. Bolaning axloqiy, aqliy, estetik, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishi uning individualligi sifatida shakllanishi va rivojlanishi jarayonida amalga oshiriladi. Aqliy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi, sensor rivojlanish va nutq korreksiyasi – bularning barcha bolaning aqliy rivojlanishining tarkibiy qismlaridir. Sog'lom odatlar va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish, salomatlikni mustahkamlash uchun jismoniy tarbiya metodlari qo'llaniladi. Bolada ijodiy kurtaklarini ro'yobga chiqarish vositasi sifatida estetik tarbiya metodlari qo'llaniladi. Axloqiy hislarni, shaxsning ma'naviy munosabatlari shakllantirish, emotsional rivojlanish, diniy masalalarni bilish ehtiyojlarini qondirish kabi axloqiy tarbiyaning mazmuni hisoblanadi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi uning asosiy faoliyati – o'yin orqali amalga oshiriladi.

3. O'yin Norvegiya maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy faoliyat turlari hisoblanadi. O'yin davomida bolalarning jismoniy, aqliy, estetik va axloqiy rivojlanishlari amalga oshiriladi.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi bo'yicha turli modellarni o'rganish, insonparvarlik psixologiyasi va insonparvarlik pedagogikasi nazariyalari asosida o'z "tuzilmali pedagogika" modelining yaratilishiga sabab bo'ldi. U Norvegiyaning barcha MTMlarining amaliy ish faoliyatlari asosini tashkil qiladi.

5. Rivojlanish bosqichlari tuzilishi, turli yoshli guruhlarda faoliyatning barcha shakl va turlarini qo'llash va bolalarning bilish ehtiyojlarini qondirishni inobatga olgan holda istiqbolli individual rejalashtirish tizimi ishlab chiqilgan va keng qo'llaniladi. Barcha mavjud pedagogik metodlardan tarbiyachining bolaga ta'sir etish ko'rgazmali shakllarini ajratish lozim.

Norvegiya maktabgacha pedagogikasi M.Montessorining ta'lim nazariyasini keng qo'llagan holda, bolalarning atrof-olam bilan bevosita tanishishlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Eshitish va ko'rish orqali tanishishdan tashqari pedagoglar sezish, tuyishni keng qo'llaydilar. Og'zaki metodlardan ko'proq tushuntirish, hikoya, suhbat qo'llaniladi. Pedagoglar har bir bolaning qiziqish va moyilliklarini o'rganadilar, maslahatlar beradilar, ularning har tomonlama rivojlanishlari uchun sharoitlar yaratadilar, predmetli-moddiy muhitni ta'minlaydilar. Tarbiya metodlari ko'proq individual ishlashga yo'naltirilgan. Norvegiya maktabgacha pedagogikasi mustaqil va ijodiy shaxsni tarbiyalashda muammoli tarbiya va ta'lim metodlarini qo'llashni nazarda tutadi. Qaror qabul qilishni talab etuvchi turli vaziyatlarni yaratish MTMlar ishlarini tavsiflaydi.

Xususiyatlari. Norvegiyada davlat va xususiy MTMlari soni juda ko'p. Shu sababli bu yerda katta navbatlar yuzaga kelmaydi. Agar ot-onalar bolalarini biror sababga ko'ra MTMga berishni istamasalar, unda davlat ularga bolani uyda ta'minlash uchun oyiga 3 000 kron to'laydi. Norvegiyada bolani bir yoshlik davridan MTMga berish mumkin. MTMlar mazkur mamlakatda qimmatbahodir. Oyiga to'lov 3 000 kron va undan ortiqni tashkil etadi.

Norvegiya davlati oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi, shuning uchun agar sizning farzandingiz davlat MTMga qatnasa, yil oxirida sizga sarflangan mablag'ning 80 foizi qaytariladi, agar bola xususiy MTMga borsa 50% xarajatlar qoplanadi. Norvegiya MTMlarida

ovqatlanish keskin farqlanadi. Umumqabul qilingan sho'rva va bo'tqalar berilmaydi. Ota-onalar har kun tongda bolalariga "matpakke" - tushlik bilan patnislarni beradilar (buterbrodlar, yogurt, quruq nonushta, sharbat, sut, pechenye). MTMda esa har kuni mevalar beriladi. Issiq ovqatni bolalar faqatgina seshanba kunlari tushlikda yeydilar, boshqa kunlari esa buterbrodlar. Shirinlik, turli konfet, shokoladlarni bolalar faqat dam olish kunlari yeydilar, boshqa kunlarda bu nomaqbul va "noqonuniy" hisoblanadi.

Norvegiya MTMlarida bolalarning extimoiy havo sharoitlaridagi sayr qilishlari ko'zda tutilgan. Hech bo'lmaganda bir marta o'rmonga sayohat, turli qiziqarli joylarga sayrlar tashkil qilinadi. Hatto haftada uch marta sayrga chiquvchi maxsus guruhlar ham mavjud. Qishda bolalarni uch yoshdan boshlab chang'ilarda uchiradilar. Kunduzi bolalar uxlamaydilar, yotoqxonalar ajratilmaydi. Uyqu vaqti ikki yoshdan kichik bo'lgan ba'zi bolalargagina ajratiladi. Ular kolyaskada ko'chada uxlaydilar, chunki norvegiyaliklarni erta bolalikdan sovuq yerda uxlashga odatlantiradilar.

O'yinchoqlar MTMlarda juda ko'p. Rivojlantiruvchi, chiroyli va ijodiy o'yinchoqlar mavjud. O'z o'yinchoqlarini uydan olib kelish esa taqiqlanadi. Haftada bir marta tarbiyachilar bolalar uchun "rivojlanish soati"ni o'tkazadilar. Ular bolalarga o'z tanlovlari asosida biror rivojlantiruvchi va qiziqarli narsani aytib beradilar. Har kuni mashg'ulotlar o'tkaziladi: ertak o'qish, ertaklarni sahnalashtirish, hisob, savodxonlik (ilk bosqichlar) darslari, rasm chizish, loydan buyumlar yasash, loyihalash, to'qish (qo'lning mayda muskulaturasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar). Har bir guruhning o'z kinoteatri, musiqiy asboblari, o'yinchoqlari va hokazolari bilan o'yin xonalari mavjud. Mazkur xonalarda ular rasm chizadilar, o'ynaydilar, o'qiydilar, ovqatlanadilar va musiqa tinglaydilar. Bolalar turli xil bolalar qo'shiqlaridan boshlab rok musiqalarigacha tinglashlari, o'zlariga yoqqanini tanlashlari kerak deb hisoblanadi. Norvegiyada MTMlar yaxshi va zamonaviy jihozlangan. Bolalarni ilk yoshlaridan boshlab ular shaxs ekanliklariga o'rgatadilar. Har bir bola ta'tilga chiqishga majbur (yoz oyida bir oy).

Xulosa qilib aytganda, turli davlatlarning maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim va tarbiyasining milliy tizimlari qanchalik o'ziga xos va original bo'lsin, ularning barchasi o'z asosida universal tamoyillarga ega bo'lgan, maktabgacha ta'lim va tarbiya yagona va yaxlit tizimini taraqqiyotning umumiy hodisasi sifatida namoyon etadilar.

II BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TASHKIL ETILADIGAN PEDAGOGIK JARAYONLAR

2.1 Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmoqlarini kengaytirish va maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni faol joriy etishda olimlar va amaliyotchilar, maktabgacha ta'lim tizimi qaysi yo'nalishda rivojlanishi kerakligi, ta'lim mazmuni va metodlarini tanlash erkinligining maktabgacha ta'limga qo'yiladigan majburiy talablar va zamonaviy jamiyatning ehtiyojlari bilan qay darajada uyg'unlashtirish mumkinligi to'g'risida o'yladilar.

Mazkur muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun, tarbiyachilarning MTMning holati va rivojlanish istiqbollariga nuqtai nazarlari va munosabatlarini tahlil qilish lozim.

Biz MTM tarbiyachilariga ikkita savol bilan murojaat qildik: "Sizning fikringizcha, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hayotlarida erkin tanlov vaziyatlarini yaratish zarurmi?" va "Agar siz birinchi savolga ijobiy javob bergan bo'lsangiz, aytingchi, shaxsan Siz o'z tarbiyalanuvchilaringizni qanday erkin tanlov vaziyatiga jalb etgan bo'ladingiz?".

Birinchi savolga javoblar tahliliga ko'ra, 60% tarbiyachilar bolalarga tanlov erkinligi berish zarur deb hisoblaydilar, 40% esa bu zaruratni inkor etadilar yoki tanlash erkinligining ehtimoliy mumkinligi to'g'risida aytadilar.

Tarbiyachilarning ikkinchi savolga bergan javoblarini tahlil qilib, biz ular bolalarga nimalarda tanlov erkinligini berish mumkin deb hisoblashlarini aniqladik.

Anketalarda ko'proq uchraydigan vaziyatlarni keltiramiz.

Tarbiyachilar bolaning tanlash erkinligini o'yin faoliyati bilan bog'laydilar. Tarbiyalanuvchilarning tanlash erkinliklari bu holda o'yinni, sheriklarni, o'yinchoqlarni tanlash bilan bog'liq.

Qiziq jihati, MTMlarda bolalarning o'yin muhitlari to'g'risidagi fikrlar quyidagilarni tasdiqlaydi: "Guruhda o'g'il bolalar va qiz bolalar uchun qiziqarli o'yinchoqlar ko'p bo'lishi kerak", "O'g'il bolalar uchun radioboshqaruvli o'yinchoqlarning butun majmuini yaratish mumkin: dinozavrlar, avtomobillar va vertolyotlar bilan", "Qiz bolalar uchun turli

qo'g'irchoqlar va ularning o'zlari ham shahzoda kabi kiyinishlar uchun ularga ham kiyimlar bo'lishi kerak. Tarbiyachini ham kiyintirish mumkin!"

Bolalarning javoblari hissiyotlarga boy va xilma-xildir, bu ular o'yin jarayonida tanlash erkinligi huquqlarini amalga oshirayotganliklarini tasdiqlaydi, shuning uchun ham kelajakda nimani kutish mumkinligini biladilar.

Tarbiyachilar bolalarning tanlovlarini muloqot uslubi va kundalik hayotdagi faoliyat erkinligi bilan, o'yin faoliyatiga nisbatan kamroq bog'laydilar. Bolalar faoliyat va sheriklarni tanlashda, muloqot va do'stlar uchun vaqt tanlovida erkinliklarini ta'kidlaydilar.

Anketa so'rovlari natijalariga ko'ra, tarbiyachilar bolalarning ish topshiriqlarini bajarishlari jarayonida erkinlik berishga tayyorlar: 27% holatlarda tarbiyachilar bolalar ish topshiriqlari va sheriklarni tanlashda erkinlikka egalari deb hisoblaydilar. Shuningdek, 13% holatlarda tarbiyachilar bolaning tanlash erkinligini ma'naviy xususiyatdagi vaziyatlar bilan bog'laydilar. Bolalar u yoki bu vaziyatda qanday yo'l tutish, qanday so'rash va qanday javob qaytarish, tengdoshlarga qanday yordam ko'rsatish kerakligini mustaqil hal qilishlarini ta'kidlaydilar.

Tarbiyachilar mashg'ulotlarda bolalarga tanlash erkinligini berish imkoniyati to'g'risida kamroq qayd etadilar. Bu holatda tanlash imkoniyati u yoki bu materialni tanlash, tarbiyalanuvchilarning yasayotgan buyumlarining rangini tanlash, topshiriqni bajarish usullari, faoliyat sur'atida berilishi mumkinligi qayd etiladi.

Mazkur javoblarni tahlil qilib, kelajak to'g'risidagi erkinlik, bolalarda asosan faoliyatning sharoitlari va vositalarini shaxsan tanlash, buyumlar, predmetlar, o'yinchoqlar va h.k. olami bilan o'zaro munosabatlarda tushuniladi. Insonlar bilan muloqot va ma'naviy tanlov vaziyatlarida erkinlik kamroq berilib, bunda tarbiyachilar xulq yo'nalishi, o'zaro munosabat mazmuni va usullarini mustaqil aniqlashni taklif qilmay, tarbiyalanuvchilarga to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalar beradilar. Shu bilan birga, ko'pgina tarbiyachilar tarbiyalanuvchilar uning ko'rsatmalarisiz mustaqil ravishda qanday yo'l tutishlarini tasavvur ham qila olmaydilar, shuning uchun ham barchasiga aralashib, ko'pincha buning "barchasini" bolaning o'rniga amalga oshiradilar. Boshqalar esa umuman qarama-qarshi yo'l tutadilar: "Bolalar o'zlari nima qilish kerakligini biladilar – uddalaydilar". Bu balki, ko'pgina tarbiyachilar ta'lim sohasida juda uzoq ishlaganliklari va bolalardan,

ularning tarbiyasi va ta'limi natijalaridan xafa bo'lib charchaganliklari tufaylidir.

Bizni shuningdek, MTM tarbiyachilarining "Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasi"ni qanday tasavvur qilishlari to'g'risidagi fikrlari qiziqtirdi. Ba'zi fikrlar bizga ko'proq qiziq tuyuldi. Kelajak maktabgacha ta'lim muassasasi boshqacha bo'lishi kerak. Buning uchun unda barcha sharoitlar yetarli bo'lishi va unda baxtli insonlar ishlashlari lozim. Bunda bolalar va ularning ota-onalari bu insonlarning ijobiy hissiyotlariga intiladilar va ularni faqat yaxshilik kutayotganligiga ishonadilar. Balki, buning uchun pedagogik kasbning obro'sini yanada oshirish, bundan tashqari, MTMda do'stona psixologik iqlimni shakllantirish uchun sharoitlar yaratish lozimdir. Masalan, MTMda psixologik zo'riqishni yengish xonasini tashkil etish, hissiy qo'llab-quvvatlash treninglarini o'tkazish va boshqalar bo'lishi mumkin.

Bir qarashda, mazkur fikrlar zamonaviy MTM tarbiyalanuvchilari javoblari bilan mos kelmaydigandek tuyuldi. Ammo, bolalar fikrlarining chuqurroq tahliliga ko'ra, ularning deyarli barchalari: "Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari bolalarni sevishlari, yaxshi va aqlli bo'lishlari kerak" deb hisobladilar, - ehtimol tarbiyalanuvchilar bolalarga muhabbatni pedagogik baxt va ishdan qoniqishning garovi deb hisoblasalar kerak.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasi, kattalarni o'yinlarni o'ynashga o'rgatishi kerak – avvalo pedagoglar va ota-onalarni. Agar kattalar bolalar singari o'ynashga o'rgansalar edi, ular uchun bu murakkab olamda yashash ancha oson bo'lar edi. Ular, bolalar baxtli bo'lishlari uchun nimanidir emas, kim bilandir o'ynashlari muhim ekanligini tushungan bo'lardilar. Ehtimol shunda, mashg'ulotlar jadvalida o'yin singari fan yuzaga kelib, unda bolalarni turli o'yinlar: rejissyorlik, syujetli-rolli, qurilishga oid, dunyo xalqlarining ijodiy va marosim, harakatchan o'yinlari bilan tanishtiradilar.

Odatda MTM – ikkinchi uy deydilar. Kelajak maktabgacha ta'lim muassasasi nafaqat bola uchun, balki uning oilasi uchun ham uyga aylanishi kerak. Masalan, MTM qoshida oilaviy mehmonxona tashkil etish va u yerda nafaqat bolalar va pedagoglar, balki ularning ota-onalari bilan birgalikdagi tadbirlarni o'tkazish mumkin. Ota-ona-bola treninglarini tashkil etish mumkin. Ota-onalarga bolaga nisbatan mehrni turli ko'rinishlarda ifodalash mumkin ekanligini ko'rsatib berish kerak.

Kelajak maktabgacha ta'lim muassasasi – boy predmetli-o'yinli va

predmetli muhitdir. Bizningcha, buning uchun barcha sharoitlar allaqachon yaratilgan. Ammo muammo shundaki, muhit nafaqat funksional, balki amalda qo'llaniluvchi bo'lishi ham kerak. Shuning uchun MTMni rivojlantirishning yo'nalishlaridan biri predmetli-rivojlantiruvchi muhitni uslubiy ta'minlash bo'lishi mumkin. Masalan, MTM pedagoglari va mutaxassisleri tomonidan mazkur muhitdan yanada samarali foydalanish tanlovini e'lon qilish orqali.

Maktabgacha ta'lim muassasasi – xursandchilik uyiga aylanishi kerak. Tong “Bog'chaga ko'z yoshlarsiz qatnashaman” shiori ostida boshlanishi kerak. Butun sharoit va pedagogik muloqotning to'liq vaziyati bolaning moslashishi va ijtimoiylashuviga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Kun davomida bolaga unga yoqqan mashg'ulotlar, faoliyat va turini mustaqil tanlashi uchun imkoniyat berish kerak. Bolalarga o'z tanlovlari uchun javob berishlari imkonini yaratish kerak. Masalan, ma'naviy tanlov vaziyatlaridan ko'proq foydalanish lozim. Bunda har bir bola o'zini shaxs sifatida anglash va boshqalarni hurmat qilish, nafaqat o'zining, balki boshqalarning muvaffaqiyatlari uchun xursand bo'lishni o'rganadilar.

Kelajak maktabgacha ta'lim muassasasi – ta'lim texnologiyalarining diqqat markazidir. Bunda nafaqat bolalar bilan ta'limiy-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga va qo'yilgan maqsadlarga erishishga imkon beruvchi texnologiyalar, balki muloqot, tarbiya va o'qitishning samarali texnologiyalari hamdir. Shu bilan birga, bizningcha, asosiy e'tiborni muloqot texnologiyalariga qaratish lozim.

Pedagoglar javoblarida – predmetli-o'yinli muhit, bolalar bilan rivojlantiruvchi o'zaro munosabatlar va ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etishga e'tibor kabi umumiy xususiyat mavjudligiga qaramay – tarbiyachilar rivojlantirish g'oyasining o'zini izlashga e'tibor qaratadilar. Ular fikrlaridan misollar keltiramiz.

Kelajak maktabgacha ta'lim muassasasi mazkur kelajakni qurishni bilishi lozim. Uning qo'lida - mazkur kelajakning kurtaklaridir. U yaxshi, yorug', pedagoglari mehribon bo'lishi kerak. Shuning uchun ham avvalo ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish lozim. Bundan tashqari, bolalarni bolalar ijodi bilan oddiy tanishtirish emas, balki turli madaniy-ijodiy faoliyat ko'rinishlari bilan tanishtirish lozim. Shundagida ijodiy faoliyatning har bir turi shaxsiy mazmun bilan boyitiladi, bolani umuminsoniy qadriyatlarga o'rgatadi.

Kelajak maktabgacha ta'lim muassasasi – maktabgacha ta'lim

yoshidagi bolaning oilasi bilan ishlarni muvofiqlashtiruvchi markazdir. U ijtimoiy ta'minot, madaniyat va sog'liqni saqlash, huquq-tartibot organlari bilan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita o'zaro munosabatlarga ega bo'lishi kerak. Shundagina yagona ta'limiy muhitni yaratish, nafaqat ta'lim dasturlari, balki ijtimoiy-ta'limiy, madaniy-ta'limiy ishlar va boshqalarning uzluksizligi uchun imkoniyatlar yaratadi.

Kelajak maktabgacha ta'lim muassasasi raqobatbardosh bo'lishi kerak. Buning uchun u aholining ta'limiy ehtiyojlari monitoringini o'tkazish, asosiy va qo'shimcha ta'lim xizmatlarini loyihalash texnologiyalarini qo'llashni bilish, boshqa MTMlardan ajralib turish, e'tiborni jalb etuvchi imidjni yaratish texnologiyalariga ega bo'lishi lozim.

MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning yaxlit tarzda samaradorligini ta'minlashda alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillardan biri ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi bo'lib, u barcha shakllardagi ta'lim-tarbiya jarayonlari hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash zaruriyatini belgilaydi.

Shunday ekan, MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarini murakkab, turli shakldagi va ko'p darajali jarayonlar sifatida quyidagi bir qator xususiyatlarni ularga xos xususiyatlar deb hisoblash mumkin: *dialektiklik, davriylik, asoslanganlik darajasi, ixtiloflilik, ahamiyatlilik, tavakkalchilik, ta'lim metodlarini tavsiflash qobiliyati, vaziyatlarga aloqadorlilik, tarkibiy tuzilishga egaligi (strukturaviylik), boshqaruvchanlik, ijtimoiy mo'ljallanganlik, tabaqalashtirish qobiliyati, integrativlik.*

MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan *dialektiklik* MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni, ya'ni o'quv yoki o'yin mashg'ulotining takomillashish va rivojlanish jarayoni bo'lib, uning mazmuni va qo'llaniladigan metodlar sekin asta bosqichma-bosqich yangilanib borilishi natijasida tarbiyalanuvchilarda mashg'ulotlarga ijobiy munosabatlarining vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Tarbiyalanuvchilarda mashg'ulotlarga ijobiy munosabatlar va faollikni vujudga kelishi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining yaxlit tarzda samaradorligining ortib borish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan dialektiklik uning yana bir xususiyati bo'lgan *davriylikka* uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarbiyalanuvchilarning mashg'ulotlarga va uning mazmuniga qiziqishini shakllantirish va rivojlantirish asosida ularning faolligini maqsadga muvofiq holda ta'minlash bilan izohlanadi.

MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan mashg'ulotlar va ular mazmunining asoslanganlik darajasini ifodalaydi. Bunda *asoslanganlik darajasi* tarbiyalanuvchilarga berilayotgan ma'lumotlarning yangiligi, ishonchliligi va asoslanganligi, shuningdek davlat talablariga mosligi bilan ifodalanadi.

MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri *ixtiloflilik* bo'lib, tarbiyalanuvchilar uchun tashkil etiladigan mashg'ulotlarda uning mazmuni va qo'llaniladigan metodlar sekin-asta, bosqichma-bosqich yangilanib borilmasligi natijasida tarbiyalanuvchilarda mashg'ulotlarga salbiy munosabatlar, ya'ni charchash va zerikishlarning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarda erkin va mustaqil fikrlashga, tarbiyachilar fikrini tinglash va tahlil qilishga istak va qiziqishni susaytirish ehtimolining mavjudligi ixtiloflilikni vujudga kelishi mumkinligini bildiradi. Tarbiyachi tomonidan berilayotgan ma'lumotlarni o'zlashtirishga tarbiyalanuvchilarning ko'pchiligi ulgurmasligi hamda tarbiyachidan yuqori darajada pedagogik kompetentlilik talab etilishi ham MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari ixtiloflilik xususiyatiga ega ekanligini ifodalaydi.

MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlariga xos xususiyatlardan biri *ahamiyatlilik* bo'lib, maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda o'rganiladigan tushunchaning mazmun-mohiyatini tushuntirish bilan bir qatorda, shaxsiy munosabatlar jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalar haqida ham ma'lumotlar berish imkoniyatining mavjudligidir. Ya'ni o'rganilayotgan tushunchaning inson hayotidagi mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish asosida ularning faolligini rivojlantirishga mashg'ulotlar jarayonida zamin yaratilishi uning ahamiyatlilikini ifodalaydi.

MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlariga xos xususiyatlardan yana biri *ehtimollik* xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib,

mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachi tomonidan barcha tarbiyalanuvchilarning boshlang'ich tushunchalarini aniqlash va obyektiv baholash imkoniyatlari cheklanganligi sababli tavakkalchilik va xavotirlanish hissiyotlari vujudga keladi, bu o'z navbatida pedagogik jarayon samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlariga xos xususiyatlardan biri *ta'lim metodlarini tavsiflash* qobiliyati bo'lib, MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarida ixtiyoriy bir ta'lim metodi barcha vaziyatlarda qo'llanilishiga, ya'ni universallikka da'vogar bo'la olmasligi. Bu o'z navbatida MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorligi vaziyatlarga bog'liqligini ifodalaydi. Haqiqatin ham MTMda tashkil etiladigan mashg'ulotlar samaradorligi ko'p jihatdan tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, boshlang'ich tushunchalari darajasi hamda yangi tushunchalarni qabul qilishga moyilligi hamda vujudga kelayotgan vaziyatlarga bog'liq bo'lib, mazkur jarayon samaradorligini ta'minlashda vaziyatli yondashuv zarur hisoblanadi.

MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlariga xos xususiyatlardan yana biri uning *aniq tarkibiy tuzilishga ega bo'lishi zaruriyati* bo'lib, MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari ham kirish, yangi o'rganiladigan tushunchalarni bayon etish va yakuniy qismlardan iborat bo'lishi muhim. Mashg'ulotlarning tarkibiy tuzulishga ega bo'lishi zarurati uning strukturaviylik xususiyatini ifodalasa, mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarning qiziqishini shakllantirish va faolligini ta'minlash maqsadida tarbiyalanuvchilarning boshlang'ich tushunchalarini aniqlash va obyektiv baholash, o'rganilishi ko'zda tutilayotgan tushunchalarning o'zlashtirish zaruriyatini asoslash, o'rganish zarur bo'lgan tushunchaning mazmun-mohiyatini bayon etish, xulosa yasash va yakunlash kabi bosqichlari uning tarkibiy tuzilishga ega ekanligini asoslaydi.

MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini ta'minlash uchun vaziyatlarga ko'ra mashg'ulotlar jarayonlarini takomillashtirish va rivojlantirish loyihalarini va modellarini oldindan tayyorlash asosida tarbiyalanuvchilar faoliyatini vaziyatlarga ko'ra muvofiqlashtirish imkoniyatlarining mavjudligi uning boshqaruvchanlik xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mashg'ulotlar jarayonlarida tarbiyalanuvchilar qiziqishini rivojlantirish asosida ularning faolligini ta'minlash, tarbiyachilar faoliyati

hamda ularning funksional vazifalarini maktabgacha ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari bilan mutanosibligini ta'minlash asosida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish zarurati MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari ijtimoiy mo'ljallanganlik xususiyatiga ham ega ekanligini bildiradi.

Mashg'ulotlar jarayonlarida tarbiyalanuvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlariga ko'ra hamda guruhlarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra turli xil yondashuvlarning tatbiq etishning zarurati uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri tabaqalashtirish qobiliyati ekanligini tavsiflaydi. Mazkur xususiyatning o'ziga xosligi mashg'ulotlar jarayonida ma'lum bir tarbiyalanuvchi yoki tarbiyalanuvchilar guruhiga qaratilayotgan e'tiborning me'yoridan ortishi boshqa bir tarbiyalanuvchi yoki guruh tarbiyalanuvchilarining qiziqishi va faolligiga yoki mashg'ulotlar samaradorligiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatishida ham namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha integrativlik ham MTM tashkil etiladigan mashg'ulotlarga xos xususiyatlardan biri sanaladi, chunki mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarning faolligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro birligini ta'minlash samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

MTMda ma'lum bir yo'nalishdagi mashg'ulotlarni tashkil etishda mashg'ulotlar jarayonlarini yaxlit, bir butun dinamik tizim ko'rinishida tasavvur qilinib, mashg'ulotlar jarayonlarini oldindan loyihalashtirishda tarbiyalanuvchilarda shakllantiriladigan tushunchalarni ma'lum bir izchillik asosida integratsiyalashuvi orqali, ya'ni har bir tushunchani boshqa tushunchalarning mazmun mohiyatiga ko'ra o'zaro bog'liq holda o'rganish zaruratini inobatga olish ham samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yangi takomillashtirilgan "Bolajon" tayanch dasturiga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalarga 4 yo'nalish 3 bosqichda ta'lim-tarbiya berish ko'zda tutilgan:

1. Jismoniy rivojlantirish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena;
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlantirish;
3. Nutq, o'qish, savodga tayyorgarlik;
4. Bilish jarayoni, atrof-olam to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish va uni anglash.

Mazkur yo'nalishlarda tashkil etiladigan mashg'ulotlarni tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarda oldindan shakllangan boshlang'ich

tushunchalar, shuningdek, hayotiy misollar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarning faol ishtirok etishi, berilgan topshiriqlarni ijobiy yechimini topishi, ishtirokchilar va hamkorlar bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirishishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashg'ulotlar jarayonlarida muvaffaqiyatli o'zaro muloqotga kirishishi natijasida tarbiyalanuvchilar muloqotning turli xil uslublaridan foydalanishni o'rganishi, kommunikativ malakalarni o'zlashtirishi, eng asosiysi tarbiyalanuvchilarda o'zaro ta'sir ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarining kengligini ham ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari sifatida keltirish mumkin.

O'yinga asoslangan mashg'ulotlar jarayonida ishtirok etuvchi tarbiyalanuvchilar o'rtasida ham o'zaro ta'sir vujudga keladi va bu bevosita ta'sir jarayonida ularning muloqotga kirishishi natijasida ularda kommunikatsion malakalarni shakllanishiga xizmat qilishi mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarning faolligini ta'minlash, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bevosita muloqotga kirishishga undash hamda o'z fikrini erkin bildirishi uchun imkoniyatlar yaratish ham o'ziga xos xususiyatlardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

MTMda tashkil etiladigan sayr va ekskursiya shakllaridagi mashg'ulotlar jarayonlari ham MTMda tashkil etiladigan pedagogik tizimning komponenti hisoblanadi. Sayr yoki ekskursiya shaklidagi ta'lim-tarbiya jarayonlari o'rganiladigan tushunchaning yoki tabiat va tabiat xodisalarini o'rganishning ahamiyati va zaruriyatini tarbiyalanuvchilar tomonidan mustaqil anglab etishlari uchun ham imkoniyatlar yaratib beradi. Tarbiyalanuvchilarda ma'lum bir tushuncha, xodisa yoki tabiatni o'zini o'rganishga qiziqish shakllantirishda, ya'ni ularda ijobiy o'quv motivlarini shakllantirishda sayr va ekskursiya mashg'ulotlari o'ziga xos ahamiyat kasb etib, uning samaradorligi sayr va ekskursiya mashg'ulotlarini rejalashtirish va tashkil etishga, tarbiyalanuvchilarda o'rganilishi rejalashtirilgan tushuncha, xodisa yoki tabiat haqida boshlang'ich tushunchalarning shakllanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Demak, MTMda tashkil etiladigan sayr va ekskursiya shakllaridagi mashg'ulotlarni tarbiyalanuvchilarning boshlang'ich tushunchalariga asosan, ya'ni ularning boshlang'ich tushunchalarini o'rganish va tahlil qilish asosida loyihalashtirish va rejalashtirish, shuningdek, ular

tomonidan mustaqil ravishda to'plangan axborot va o'rganilgan ma'lumotlar asosida tashkil etish sayr va ekskursiya shakllaridagi mashg'ulotlarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

MTMda tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilar ayniqsa, ular uchun tashkil etiladigan turli sayr va ekskursiyalar jarayonlarida mustaqil fikrlash asosida mustaqil xulosalar chiqarish orqali o'zini-o'zi tarbiyalashga erishar ekan, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida ham muntazam xukm suruvchi o'zaro ta'sir jarayonlari asosida o'zini-o'zi tarbiyalash uchun juda keng imkoniyatlar yaratiladi.

Shunday ekan, MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligi nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga, balki tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini muvofiqlashtirish, tarbiyalanuvchilarda o'zini-o'zi tarbiyalashga xizmat qiluvchi motivlashtirish jarayonlarini tashkil etish, shuningdek, MTMdagi ta'lim-tarbiyaviy muhit hamda unda o'zaro ta'sir jarayonlarini keng qamrovliligiga bog'liq bo'ladi.

MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashda tarbiyalanuvchilarni ko'proq muloqotga chorlovchi, ko'proq mustaqil fikrlashga undovchi va ularning kelgusi hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi obyektiv xulosalarni mustaqil ravishda shakllantirishga xizmat qiluvchi vositalardan keng foydalanish muhim bo'lib, bunday vositalardan foydalanishning ahamiyatliligi MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning asosiy komponentlaridan biri bo'lib, o'z navbatida tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari ham tizim sifatida bir necha komponentlarni o'z ichiga oladi. MTM tarbiyalanuvchilari uchun ahamiyatli bo'lgan tarbiyaviy munosabatlarning barcha komponentlari nafaqat MTMda, balki oilada va maxallada ham mavjud bo'lib, ularning barchasi qayerda va qanday shakllanishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Bunday farqlanishni inobatga olishning zarurati ham MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Haqiqatdan ham, MTMda shakllanadigan tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari oilada yoki mahallada vujudga keladigan tarbiyaviy munosabatlar jarayonlaridan mazmun-mohiyatiga ko'ra tubdan farq

qiladi. Chunki MTMda rahbar-xodim, tarbiyachi-tarbiyalanuvchi yoki tarbiyalanuvchi-tarbiyalanuvchi o'rtalaridagi munosabatlar kabi oiladagi ota-ona, ota-bola, ona-bola, aka-uka, opa-singil munosabatlaridan mutlaqo biri-birini yoki biri-ikkinchisini takrorlamaydi va bir-biriga o'xshamaydi. Shunday ekan biz ko'proq MTMda vujudga keluvchi tarbiyaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz va ularning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining tizimga xos xususiyatlarga ega ekanligi;
- tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining keng qamrovliligi va takrorlanmasligi;
- tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining vaziyatlarga bog'liqligi;
- tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'zini-o'zi tarbiya va shaxsiy rivojlanishga ta'sirchanligi;
- tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida o'zaro bevosita ta'sir jarayonining mavjudligi;
- tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida o'zaro ta'sirning ahamiyatliligi;
- bevosita ta'sirning muloqot jarayonida yoki muloqotsiz masofadan turib ham vujudga kelishi;
- bevosita ta'sir jarayonining vujudga kelishi o'zaro munosabatlar jarayonlarini muvofiqlashtirish zaruriyatini belgilashi;
- bevosita ta'sir jarayoni tarbiyalanuvchilarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishi;
- tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida ta'lim-tarbiya vositalarining ahamiyatliligi.

Tarbiyaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari MTMda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda tarbiyalanuvchilarga va o'zini-o'zi tarbiyalash va shaxsiy rivojlanish jarayonlariga ahamiyatli ta'sir ko'rsatuvchi subyektiv hamda obyektiv omillarga alohida e'tibor qaratish zarurligini tasdiqlaydi.

MTMda, oilada va mahallada tarbiyalanuvchi yoki tarbiyalanuvchilar o'zaro bir-birini va atrofdagi odamlarning xatti-harakatini kuzatadi, mustaqil fikrlaydi hamda ularning xatti-harakatlaridan obyektiv xulosalar chiqaradi. Kuzatishlar jarayonida tarbiyalanuvchilarning dunyoqarashi o'zgarib, tushunchalari rivojlanib boradi, mazkur jarayonlarda ham tarbiyalanuvchi shaxsi shakllanib,

rivojlanib boradi. Shunday ekan MTM tarbiyalanuvchilari shaxsining shakllanib, rivojlanib borishida tarbiyaviy munosabatlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Demak, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlariga va ularning ham nazariy, ham amaliy ahamiyatiga asoslanib aytish mumkinki, tarbiyaviy munosabatlar MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning asosiy komponentlaridan biri sifatida yaxlit pedagogik tizim samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. MTMda tashkil etiladigan mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda, MTMda hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonlariga xos xususiyatlarni ham inobatga olish asosida tarbiyalanuvchilar faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish ko'zlangan maqsadlarga erishish va samaradorlikni ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida MTM tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari bilan tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini hamda ularning samaradorligiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillarni o'rganishni taqozo etadi.

2.2 Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar hamda ularning sifati va samaradorligini takomillashtirish

MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar ishtirokchilari bo'lgan hamda bir vaqtning o'zida mazkur jarayon samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi subyektlardan biri hisoblangan tarbiyalanuvchilar faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgan ta'sir boshqaruv bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavjud imkoniyatlar (vujudga keluvchi turli vaziyatlar, tarbiyalanuvchilarning boshlang'ich tushunchalari, ehtiyojlari, qiziqishi, imkoniyatlari, ilmiy-metodik ta'minot va h.k.)dan samarali foydalanishga yo'naltirilgan faoliyat boshqaruv faoliyatidir.

MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini ta'minlashda ta'lim muassasasi rahbarlari va tarbiyachilar MTM faoliyatini tashkil etish va ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarbiyalanuvchilar faoliyatini muvofiqlashtirishda ularning boshlang'ich tushunchalari, qiziqishi, ehtiyoji va qobiliyatlari, shaxsiy xislatlari, shuningdek pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etishning

murakkab tomonlarini faol o'rganishlari hamda ular asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan turli strategiyalarni ishlab chiqishlari zarur. MTMda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarbiyalanuvchilar faoliyatini vaziyatlarga ko'ra to'g'ri muvofiqlashtirish asosida ularning faolligini ta'minlash tarbiyalanuvchilar faoliyatini ilmiy asoslarda tashkil etishning asosiy shartlaridan biri bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlaridan biri sifatida tarbiyalanuvchilar faolliigi va faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan tarbiyachilarning innovatsion faoliyatiga bog'liq.

Tarbiyachilar innovatsion faoliyati samaradorligi ularning pedagogik faoliyat yo'nalishlaridagi yangiliklarni izlash, o'rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan va yangi ma'lumotlardan foydalanish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning ham nazariy, ham amaliy asoslarini o'zlashtirish, shuningdek, o'z faoliyati jarayonida zamonaviy yondashuv texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi vazifalarni tizimli amalga oshirish ko'nikmalariga bog'liq.

MTMda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning samaradorligi ilmiy asoslangan boshqaruv funksiyalari va metodlari hamda innovatsion yondashuv texnologiyalari asosida tashkil etilgan tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatining natijaviyligini ifodalaydi.

Demak, MTMda pedagogik jarayonlar samaradorligi bir tomondan tarbiyalanuvchilar dunyoqarashining o'zgarishi, tafakkurining rivojlanishi, turli mashg'ulotlardagi faolligining ortishi, tabiat xodisalari va qonuniyatlarini o'rganishi, bir so'z bilan aytganda intellektual qobiliyatlarining shakllanish darajasini ifodalasa, ikkinchi tomondan tarbiyachilar va rahbarlarning bilimi, ko'nikma va malakalari, shuningdek pedagogik mahorati va kasbiy qobiliyatlarining rivojlanish darajalarining o'sishini ham belgilaydi.

Shunday ekan, MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlashda ularning shakli va turiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda strategik rejalashtirish, loyihalashtirish, modellashtirish, tarbiyalanuvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash, vaziyatlarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarishda zamonaviy yondashuv texnologiyalaridan foydalanish zarur hisoblanadi.


MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning natijaviyligi hisoblangan samaradorlik ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan

barcha jarayonlardagi innovatsiyalar va tatbiq etilayotgan zamonaviy yondashuvlar hamda tashkil etilayotgan innovatsion ta'limiy muhitning ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlaridan biri bo'lgan tarbiyalanuvchilarning yoshi, boshlang'ich tushunchalari va shaxsiy imkoniyatlariga muvofiqligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Chunki, MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligi tarbiyalanuvchilar dunyoqarashining o'zgarishi, tafakkurining rivojlanishi va intellektual qobiliyatlarining shakllanish darajasini o'sishi bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlaridan bir bo'lgan tarbiyachilarning zamonaviy yondashuvlar asosida innovatsion ta'limiy muhitni shakllantirish borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanish darajasining o'sishi bilan ham belgilanadi.

Innovatsion ta'limiy muhitni shakllantirish yo'nalishlarida yuqori darajada pedagogik tajribalarga ega bo'lgan tarbiyachilar o'z faoliyati jarayonida tatbiq etayotgan ta'lim texnologiyalarining yangiligi hamda tarbiyalanuvchilar yoshiga va ta'limiy guruh xususiyatlariga muvofiqligi tarbiyalanuvchilarning olgan bilimlari, dunyoqarashining o'zgarishi, intellektual qobiliyatlarining shakllanish darajasi hamda ularning kommunikativ qobiliyatlarining rivojlanish darajalariga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Mazkur ta'sirning o'ziga xosligi innovatsion ta'limiy muhitda tarbiyalanuvchilar faolligi va shaxsiy sifatlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligining ta'minlanishi holatini aniqlash indikatorlari sifatida ajratib ko'rsatish imkoniyatini beradi.

MTMda tashkil etiladigan barcha uchun qulay ta'limiy muhitda tarbiyalanuvchilar faolligi va shaxsiy sifatlarining shakllanishi darajasiga ahamiyatli ta'sir etuvchi omillar (3-rasm), vaziyatlarga ko'ra mazkur jarayonni ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirish, innovatsion metodlardan to'g'ri foydalanish, mazkur jarayon komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorlik xususiyatlarini, innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, ilmiy-metodik ta'minotini yaxshilash, ta'lim jarayonlarini boshqarish tamoyillarini o'zlashtirish va qo'llash, boshqaruvni tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirish va faolligini ta'minlashga yo'naltirish asosida belgilashni ko'rsatadi.



3-rasm. MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligining ta'minlanish darajasini aniqlash indikatorlari

MTMda tashkil etiladigan barcha uchun qulay ta'limiy muhitda tarbiyalanuvchilar faolligi va shaxsiy sifatlarining shakllanishiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatuvchi omillar vaziyatlarga ko'ra pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash va rivojlantirish uchun quyidagi shartlarning bajarilishi zarurligini belgilaydi:

- MTMda tashkil etiladigan barcha ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida loyihalashtirish;

- MTMda tashkil etiladigan barcha ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining tizimga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, murakkab pedagogik tizimga xos xususiyatlarni inobatga olish;

- MTMda tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlari hamda tarbiyaviy munosabatlarni ilmiy asoslangan tamoyillar asosida shakllantirish;

- MTMda tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarbiyalanuvchilarning boshlang'ich tushunchalari va o'zi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish;

- tarbiyalanuvchilar faoliyatining tahliliy yo'nalishlarini, murakkab pedagogik tizimni konseptual va dasturiy boshqarish qonuniyatlarini tarbiyachilar tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlash;

- MTMda murakkab pedagogik tizim sifatida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarish faoliyatini oldindan modellashtirish hamda tarbiyalanuvchilar faoliyatini aniqlashtirish va rejalashtirish;

- MTMda murakkab pedagogik tizim sifatida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida tarbiyalanuvchilar faolligini ta'minlash va mustaqil faoliyatini muvofiqlashtirish hamda innovatsion yondashuvlarning natijalari bo'yicha qayta aloqani ta'minlash;

- tarbiyalanuvchilarning boshlang'ich tushunchalari va tayyorgarlik darajasini aniqlash, mustaqil faoliyatga ularni oldindan tayyorlash va ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash;

- tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, ehtiyoji va o'qish-o'rganishga moyilligini aniqlash va motivlashtirish;

- pedagogik jarayonlarga yangiliklarni tatbiq etish va tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;

- MTMda tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida zaruriy axborotlarni to'plash, ularni tahlil qilish va obyektiv baholash asosida o'zgaruvchan vaziyatlarga ko'ra tarbiyalanuvchilar faoliyatini muvofiqlashtirib borish.

Shuningdek, MTMda murakkab pedagogik tizim sifatida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash darajasini aniqlash indikatorlari sifatida quyidagilarni ham ajratib ko'rsatish mumkin:

- tarbiyalanuvchilarning boshlang'ich tushunchalari, ehtiyojlari, imkoniyatlari va mavjud imkoniyatlarni belgilangan maqsadlarga mos kelish darajasini ifodalovchi xususiyatlar;

- MTMda tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlarining rivojlanishi, ularning

ta'limiy muhitda yaratilgan shart-sharoitlar va o'z faoliyati natijalaridan qoniqish hosil qilish darajasi;

- MTMda tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarbiyalanuvchilar faoliyati natijalarning o'quv-metodik ta'minotga bog'liqligi darajasi;

- tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyati va faolligi darajasi, shuningdek, tarbiyalanuvchilar faolligini ta'minlash imkoniyatlarining mavjudligi.

Mazkur omillarni samaradorlikni ta'minlash darajasini aniqlash indikatorlari sifatida inobatga olgan holda MTMda barcha shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etish asosida belgilangan maqsadlarga erishish va samaradorlikni ta'minlashda tarbiyalanuvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish, obyektiv baholash va muntazam rag'batlantirib borish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik adabiyotlarda keltirilishicha, pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash uchun turli usullar va metodlarni qo'llash; nazoratni obyektiv amalga oshirish va nazorat natijalarini tahlil qilish; xatolarni o'z vaqtida tuzatish; nazoratchining kompetentligini rivojlantirish yo'nalishidagi talablarni bajarilishi zarur.


Shunday ekan, MTMda tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligini ta'minlashda ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni muntazam tadqiq qilish, tarbiyalanuvchilar faoliyatini nazorat qilish, nazorat natijalarini tahlil qilish va obyektiv baholash asosida qo'llab-quvvatlangan, ma'qullangan, shuningdek, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar o'rtasida yangi va ishonchli axborotlar almashinuvini ta'minlovchi pedagogik tizimni joriy etish eng muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Pedagogik tizim – 1) ma'lum pedagogik konsepsiya, nazariya va yondashuvlarning mualliflar tomonidan pedagogik amaliyotga joriy etishdagi izchillik; 2) o'quvchi shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik prinsip, vosita, usul va metodlar yig'indisi¹.

Pedagogik tizim – o'zaro bog'langan, ta'lim oluvchilarni ta'lim tarbiya maqsadiga yo'naltiruvchi birliklarning majmui. Pedagogik tizim yaxlitlik xarakteriga ega bo'lib o'qituvchining o'quvchiga ta'sirini ham

¹ Педагогика: энциклопедия. III жилд. Жамоа // Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017 *ағоғик жараёнлар самарадорлиғи*
Мотивлаштириш жараёнлари самарадорлиғи

o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu tizim o'zaro ta'sir metodlari, vositalarning chambarchas bog'langan majmuini o'z ichiga oladi. Pedagogik jarayon pedagogik tizim doirasida amalga oshadi. Pedagogik tizim bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'lib ular o'rtasidagi aloqadorlik mustahkam xarakterga ega. Ular: o'qituvchi, o'quvchilar, o'quv jarayoni maqsadlari, natijalar, ta'lim mazmuni, o'qitish vositalari, usullari, metodlari va texnologiyalari.



4-rasm. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi

MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini muvofiqlashtirishdan ko'zlangan maqsadga erishish yo'nalishida olingan natijalar umumiy holda murakkab pedaogik tizim hisoblanayotgan barcha ta'lim-tarbiya jarayonlarining yaxlit tarzda samaradorligini ifodalaydi. Bir so'z bilan aytganda, MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning samaradorligi tarbiyalanuvchilar dunyoqarashining o'zgarishi, tafakkurining rivojlanishi, ularda shaxsiy sifatlarning shakllanishi va rivojlanishida o'z ifodasini topadi.

Demak, MTMda tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tizimli yondashuvlar asosida tashkil etish orqali yaxlit tarzda samaradorlikka erishishda

uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi:

- MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligini baholashda yaxlit tarzda samaradorlik murakkab pedagogik tizim hisoblangan hamda o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining natijaviyligi asosida ifodalanishi;

- MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan barcha tashkil etuvchi qismlari bir butun, yaxlit dinamik tashkiliy tuzilishga ega ekanligi;

- MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari dinamikasi protsessual xususiyatlarga ega ekanligi;

- MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etuvchi ixtiyoriy komponenti samaradorligining o'zgarishi yaxlit tarzda samaradorlikka ta'sir ko'rsatishi;

- MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari komponentlari samaradorligi darajasi ko'p jihatdan tarbiyalanuvchilar faolligi va mustaqil faoliyatiga bog'liqligi;

- MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarbiyalanuvchi shaxsining rivojlanishi samaradorligiga tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari samaradorligi ta'sirining muqarrarliligi;

- MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi;

- murakkab pedagogik tizim hisoblanayotgan MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida qayta aloqani ta'minlashning zaruriyati va uning o'ziga xos ahamiyati;

- MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining protsessual tomoni, ya'ni to'g'ri va qayta aloqa jarayonlarining mavjudligi;

- MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida tarbiyalanuvchilarda ta'lim

olishga bo'lgan qiziqish, ya'ni ularda o'quv motivlarini shakllantirishning zaruriyati;

- motivlashtirish jarayonlari samaradorligining murakkab pedagogik tizim hisoblanayotgan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari natijaviyligiga ta'siri;

- MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari samaradorligi motivlashtirish jarayonlari natijalarini ham ifodalashi;

- MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida axborotlarning yangi va ishonchli bo'lish shartlari.

Demak, MTMda pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillardan biri turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi bo'lib, u barcha shakllarda tashkil etiladigan mashg'ulotlarni hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash zaruriyatini belgilaydi.

MTMda barcha shakllarda tashkil etiladigan mashg'ulotlarni hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashda mashg'ulotlar, sayr va ekskursiyalar hamda ma'naviy va ma'rifiy tadbirlar jarayonida o'rganiladigan tushunchalar bilan tarbiyalanuvchilar mustaqil o'zlashtirgan tushunchalarni bog'liqligini ta'minlash muhim. Ya'ni tarbiyalanuvchilarda zaruriy tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ixtiyoriy bir mashg'ulot jarayoni ta'lim-tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi ikkinchi va uchinchi jarayonlarning to'ldiruvchisi sifatida, o'z navbatida ikkinchi mashg'ulot jarayoni esa birinchi va uchinchi jarayonlarning aniqlashtiruvchisi va rivojlantiruvchisi sifatida xizmat qilishi, shuningdek, ularning izchilligi va uzviyligiga hamda tushunchalarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligiga e'tibor qaratish zarur.

Demak, MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida ko'zlangan natijalarga samarali erishishning asosiy shartlaridan biri tarbiyalanuvchilarda shakllantirilishi zarur bo'lgan tushunchalarning o'zaro bog'liq tarzda o'rganilishini ta'minlashdan iborat bo'ladi. Shunday ekan, tarbiyalanuvchilarda zaruriy tushunchalarni shakllantirish va motivlashtirish jarayonlarining ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qo'llaniladigan metodlar va tatbiq etiladigan yondashuvlarni tanlashda hamda ulardan

oqilona foydalanishda ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlarning maqsadi va mazmuniga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Demak, MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalari (amaliyotchilar) uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot yaxlit, bir butun dinamik tizim ko'rinishida tasavvur qilinib loyihalashtirilishi zarur. Chunki MTM tarbiyalanuvchilarida shaxsiy sifatlar, zaruriy tushunchalar va ko'nikmalar, shuningdek o'qish va o'rganishga motivlar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligiga MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari bilan bir qatorda, maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalari (amaliyotchilar) uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot jarayonlari samaradorligi ham ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Shunday ekan, MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari, mustaqil ta'lim jarayonlari hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonlari, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalari (amaliyotchilar) uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot jarayonlari, shuningdek, tarbiyachilar uchun tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tarbiyalanuvchilarda shaxsiy sifatlarni shakllantirishdagi ahamiyatini inobatga olib, umumiy holda MTMda tashkil etiladigan *pedagogik jarayonlar* deb atash maqsadga muvofiq.

MTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni tashkil etishda uning komponentlari bo'lgan turli shakllardagi mashg'ulotlar, tadbirlar, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari hamda pedagogik amaliyot, pedagogik tajriba-sinov jarayonlari va uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash murakkab tizim hisoblanayotgan yaxlit tarzda pedagogik tizim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

MTMda ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda pedagogik tizimda keltirilgan pedagogik

jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash uchun tizimli yondashuvni tatbiq etish zarur hisoblanadi.

Tizimli yondashuvda mashg'ulotlar va turli yo'nalishlarda tashkil etiladigan tadbirlar, mustaqil ta'lim, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari hamda pedagogik amaliyot va pedagogik tajriba-sinov jarayonlari, shuningdek, tarbiyachilar uchun tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonlari tizimning komponentlari hisoblanadi. Tizimni tashkil etuvchi komponentlarning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi ularning o'ziga xos asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, ixtiyoriy komponent samaradorligining o'zgarishi butun bir yaxlit tizimning samaradorligiga o'z xukmini o'tkazadi.

MTMda tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari, mustaqil ta'lim hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalari (amaliyotchilar) uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot jarayonlarini, shuningdek, tarbiyachilar uchun tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini murakkab pedagogik tizim sifatida tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuvni tatbiq etishda tarbiyalanuvchilarda shakllantiriladigan tushuncha va ko'nikmalarlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko'ra ma'lum bir izchillikda va o'zaro bog'liq holda o'rganilishi zarurligini inobatga olish zarur.

MTMda ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan turli shakllardagi mashg'ulotlar jarayonlarida tarbiyalanuvchilarda zaruriy tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish samaradorligiga tarbiyalanuvchilarning mustaqil olgan tushunchalari, tarbiyaviy munosabatlar hamda o'zini-o'zi tarbiya jarayonlari samaradorligi qay darajada ta'sir ko'rsatsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalari (amaliyotchilar) uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot jarayonlari, shuningdek, tarbiyachilar uchun tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonlari samaradorligi ham undan kam bo'lmagan darajada ta'sir ko'rsatadi.

Demak, MTMda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda yaxlit tarzda samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda tizimli yondashuvga asoslanish hamda pedagogik jarayonlarning asosiy subyektlari bo'lgan tarbiyachilar va amaliyotchilar hamda mazkur jarayon tashkilotchilari

hisoblangan rahbarlar faoliyati samaradorligini ta'minlash ham zarur bo'lib, mazkur bog'liqlik pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlarini o'rganish zaruriyatini belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash ta'limdagi va jamiyatdagi hozirgi vaziyatni hisobga olgan holda ularning ta'lim sifatiga ta'sirini belgilash uning boshlang'ich bosqichi bo'lishi kerak. Har qanday boshqa ilmiy ijtimoiy nazariya kabi maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish nazariyasi ham turli fanlar, avvalo falsafa fani tomonidan ishlab chiqilgan umumslubiy yondashuvlardan, qoidalar, prinsiplardan kelib chiqadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqishda psixologiya va pedagogika tomonidan ifodalangan qator g'oyalar va qoidalar prinsipial metodologik ahamiyatga egadir.

1. Shaxsning rivojlanishida faoliyatning alohida rolini belgilab beruvchi shaxs va faoliyat nazariyasi. Ko'rib chiqilayotgan nazariyada maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish uchun quyidagilar eng muhim masalalar hisoblanadi:

- ta'lim tizimlarida faoliyatning asosiy maqsadi va natijasi sifatida bola shaxsining rivojlanishini ajratish, malakalilik, tashabbuskorlik, ixtiyoriylik, mustaqillik, ijodkorlik, xatti-harakat erkinligi va xavfsizlik, o'zini-o'zi anglash va o'zini-o'zi baholash uning asosiy tavsiflari bo'lib maydonga chiqadi;

- shaxsning rivojlanishida yetakchi faoliyatning rolini asoslash;

- faoliyat va unda bolani to'laqonli rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida predmetli-rivojlantiruvchi muhitni yaratishning alohida ahamiyatini asoslovchi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolani rivojlantirishning faoliyatli asosini predmetli boyitish;

- ta'lim tizimlarida faoliyatning o'ziga xosligini ajratish, u shundan iboratki, bunda uning qonuniyatlari kattalar va bolalarning birgalikdagi faoliyati nuqtai nazaridan yanada to'laroq ochiladi hamda pedagog va bolaning o'zaro muloqoti, hamkorligi bilan bog'liq subyekt — subyekt munosabatlarida aniqlashtiriladi.

2. Ta'lim jarayonida bolani rivojlantirishning potensial imkoniyatlarini amalga oshirishga qaratilgan psixik rivojlanish bo'yicha

o'qitishning yetakchi roli haqidagi qoida va unga asoslangan rivojlantiruvchi o'qitish nazariyasi.

3. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalikning o'z qiymati, uning insonni yanada rivojlantirishning ilk asoslari shakllanishining noyob davri sifatidagi ko'chmas ahamiyati, uni ro'yobga chiqarish har bir yoshdagi bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishining umumiy qonuniyatlariga javob beruvchi shart-sharoitlarni yaratish zarurligini va bolalarning o'ziga xosligini hisobga olishni taqozo etadi. Bu shart-sharoitlarning jami barcha asosiy yo'nalishlar bo'yicha ya'ni jismoniy, idrokiy, ijtimoiy, badiiy-estetik rivojlanish bolani to'laqonli va yaxlit rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

4. Ijtimoiy-madaniy tajribani ijodiy o'zlashtirish konsepsiyasi. U yoki bu faoliyatni egallashda shakllanadigan va rivojlanadigan har bir bolaning ijodiy imkoniyatlarini eng ko'p darajada ochish uchun shart-sharoitlar yaratish zarurligini asoslaydi.

5. O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan modelida o'z aniq mujassam ifodasini topgan ta'limni insonparvarlashtirish g'oyasi. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim jarayoni sifatini takomillashtirish muammosiga tatbiqan bu g'oya quyidagi qoidalar orqali taqdim qilinishi mumkin:

- bola shaxsini rivojlantirish ta'lim jarayoni sifatining va uning natijalarining bosh mezonini bo'lishi kerak;
- sifatga yo'naltirilgan ta'lim bolaning o'ziga xosligini qo'llab-quvvatlash asosiga qurilishi kerak;
- ta'lim mazmunini ishlab chiqishda umuminsoniy qadriyatlar hamda jahon va mamlakat madaniyati qadriyatlarining ustuvorligi e'tirof etilishi;
- faoliyat mazmunini, usullarini tanlashda bola ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalar bilan pedagogik ishni tashkil qilishda pedagogga mustaqillik berish, bir vaqtning o'zida sifatli ta'lim uchun uning mas'uliyatini oshirish.

Ma'lumki, pedagogik jarayonda ikki tomon ishtirok etadi – ta'lim oluvchilar va pedagoglar. Tarbiyachilik kasbi murakkab hamda ko'pqirralidir. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglarining faoliyati o'ta murakkab bo'lib, ular yosh avlodni muayyan hayotiy faoliyatga tayyorlaydi. Salomatlikni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun birinchi

navbatda tarbiyalanuvchilar sog'lig'ining yomonlashuviga ta'sir qiladigan omillarni aniqlash lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etishning muhim vazifalari birinchi navbatda sog'lom inson siyosatining muhimligidan kelib chiqadi. Ular quyidagilar:

- optimal psixologik mikroiklim va ijtimoiy hamda moddiy sharoitni vujudga keltirish, jismoniy salomatlikni tarbiyalash imkonini beradigan, kelajakda ma'naviy boy, yuksak axloqli, bilimli, o'zi va boshqa xalqlarning an'analari va madaniyatini hurmat qiladigan yoshlarni tarbiyalash;

- sog'liqni saqlash va tiklash maqsadida davolash hamda moslashtirish tadbirlarini o'tkazishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, sog'lom turmush tarzi va salomatlikning qimmatini anglatishni nazarda tutgan holda tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar hamda ota-onalar bilan hamkorlikda ruhiy tuzatish jarayonini amalga oshirish;

- sog'lom turmush tarzini shakllantirish nazariyasi va amaliyoti masalalari bo'yicha ta'lim jarayoni subyektlarining malakasini oshirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida salomatlikni muhofaza qilishga yo'naltirilgan texnologiyalarni tashkil etish va ulardan foydalanish;

- salomatlikni saqlash va mustahkamlashga yo'naltirilgan sinfdan tashqari tadbirlar ko'lamini kengaytirish va sifatini ta'minlash;

- salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun istiqbolda ta'limni kengaytirgan holda (inklyuziv ta'limni) tashkil etish;

- salomatlikni muhofaza qilishga yo'naltirilgan o'quv jarayoni tajribalarini ommalashtirish va yoyishda faollik ko'rsatish kabilar.

Shaxsiy turmush tarzini aniqlash – ongning mahsulidir. SHunga ko'ra pedagoglar anglab yetishlari kerakki, giyohvand moddalar, ularning zarari haqidagi ogohlantirishning o'zi bugungi kunda yoshlar orasida sog'lom turmush tarzi muhitini saqlab qolishda yetarli emas.


Shundan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar quyidagi tamoyillarga tayangan holda tashkil etiladi: ta'lim jarayoni subyektlari holatlarini tashxislash va hisobga olish; ta'lim jarayoni subyektlarining sog'lom turmush tarzi va xayotiy tayyorgarlikka nisbatan yagona shaxsiy ruhiy ehtiyojlari; atrofdagilar va o'zining salomatligi uchun ijtimoiy mas'ullik; foydalaniladigan vositalarning yangiligi va turli-tumanligi;

sogʻlom turmush tarzini moddiy hamda maʼnaviy jihatdan barqarorlashtirish.

Taʼlim jarayoni subyektlari orasida oʻz vaqtida tashxislash va psixologik-pedagogik tuzatish tadbirlarini oʻtkazish lozim. Psixologik-pedagogik tuzatish shaxsning hayotiy ahamiyatga ega boʻlgan qirralarini tashxislashdan boshlanadi. Tarbiyalanuvchilar faqat u yoki bu imkoniyatlari darajasi bilan farqlanmaydilar, balki oʻzlari haqidagi shaxsiy tasavvurlari va intellektual hamda jismoniy imkoniyatlari bilan farqlanadilar. Maktabgacha taʼlim muassasalarida sogʻlomlashtirishga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayonlarni amalga oshirilishi quyidagi omillarning taʼsiriga bogʻliq: pedagoglarning shaxsiyati va ularning sogʻlom turmush tarzini egallashga yoʻnaltirilganligi; salomatlikni muhofaza qilishga yoʻnaltirilgan pedagogik texnologiyalarni keng qoʻllash uchun taʼlim muassasasida moddiy-texnik bazaning etarliligi; pedagogik jamoaning ijodiy imkoniyatlarga egaligi; har tomonlama sifatli pedagogik nazoratning mavjudligi kabilar.

Taʼlim jarayoni subyektlarining sogʻligʻini muhofaza qilish va mustahkamlash quyidagi chizmada aks ettirilgan ikki integral yoʻnalishda amalga oshiriladi (5-rasm):

Maktabgacha taʼlim muassasalarida sogʻlomlashtirishga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etishning muhim yoʻnalishi sanitar-gigiyenik meʼyorlar va vositalarning faoliyat koʻrsatish darajasini hisobga olgan holda ularning moddiy-texnik negizini mustahkamlash maqsadga muvofiq. Buning uchun quyidagilarni koʻrib chiqish zarur:



5-rasm. Taʼlim jarayoni subyektlarining sogʻligʻini muhofaza qilish va mustahkamlash yoʻnalishlari

- texnik qurilmalarning mazmuni va ta'mirini amalga oshirish rejasi, isitish, suv bilan ta'minlash, yoritish, muxandislik yo'llarini ta'mirlash kabi chora-tadbirlarni va sanitar-gigiyenik me'yorlar hamda qoidalar asosida o'quv qurollari, aynan:

a) yuqorida ko'zda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish;

b) mikroiqlimni saqlash talablariga rioya qilish, yoritish, mebellar, sanitar-gigiyenik me'yorlar asosida auditoriya o'quv jihozlarini saqlash;

v) davlat sanitar-gigiyenik tekshirishlari asosida berilgan tavsiyalarga rioya qilish: sanitar-epidemiologik nazorati talablari asosida hujjatlarni to'plash; hayotning gigiyenik yo'nalishlari mehnatni muhofaza qilish, texnik xavfsizlik va yong'inga qarshi xavfsizlik bo'yicha o'quvchilar, o'qituvchilar bilan o'quv mashg'ulotlari o'tkazish; tibbiy xizmatni tashkil etish kabilar.

Faqat shu asosdagina sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar samaradorligiga erishish mumkin. Bugungi kunga kelib ta'lim muassasalarida bola salomatligini mustahkamlashga yo'naltirilgan kompleks dasturlar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. Umuman olganda, pedagog-tarbiyachilar uchun ham sog'lom turmush tarzi muammosi alohida dolzarblik kasb etadi.

Tarbiyachining o'ziga xos mehnat faoliyati uzoq davom etadigan va sekin amalga oshadigan jarayon bo'lib, masalan, bola bilan ishlash osteoxondroz, uzoq masofani yaxshi ko'rmaslik, umurtqa pog'onasining yog' bosishi, nevroz kabi jiddiy kasalliklarni qo'zg'atadi¹.

Bizningcha, sog'lom turmush tarzini amalga oshirish uchun salomatlik daqiqalarini o'tkazish: jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda, salomatlik holatidan kelib chiqib, kasbiy mehnat sharoiti bilan bog'liq tarzda, musiqa jo'rligida va tomir urish o'lchovini nazorat qilish asosida amalga oshiriladi; shu bilan bir qatorda uyda mustaqil ishlash uchun tavsiyalar ham beriladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etishga oid seminar, ma'ruza-maslahat mashg'ulotlarini o'tkazish: tarbiyachilar, ota-onalar va tarbiyalanuvchilar

¹ Leonidova, G. V., Svirelkina I. I. Non-State Preschool Education: Current Practices of Territorial Development // ECONOMIC AND SOCIAL CHANGES-FACTS TRENDS FORECAST. RUSSIA. – 2016. Том. 43. Выпуск: 1. Стр.: 138-152. <http://webofscience.com>

uchun sog'lomlashtirish ishlari darajasini oshirish maqsadida ularning bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish jismoniy tarbiya hamda sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish maqsadga muvofiq.

2.3 Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagogik kadrlarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari

MTM rahbarining asosiy vazifalaridan biri qulay ma'naviy va psixologik o'zaro hamkorlikni yaratish hisoblanadi. Faqatgina ijodiy ishlaydigan pedagoglar jamoasi bolalar bilan ta'limiy-tarbiyaviy ishlarning yuqori darajasini ta'minlashga, ijodiy shaxsni shakllantirishga qodir bo'la oladi.

Jamoani boshqarishni san'at deb hisoblaydilar, unda tug'ma "tabiatdan" boshqaruvchi bo'lganlar yoki pedagogik menejment va ijtimoiy psixologiya nazariyasini o'rganib, doimiy ravishda boshqaruv faoliyati ustida ishlaydiganlar muvaffaqiyatga erishadilar. Zamonaviy jamiyat shaxs faoliyatining iste'molchilik, madaniyatni o'zlashtirish xususiyatidan yaratuvchilik va ijod xususiyatiga o'tish, foydalilik jihatidan qadr-qimmat jihatiga o'tish bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham zamonaviy rahbarga asosiy maqsadga erishish uchun pedagogik jamoaga ta'sir etishning g'oyalari va usullari – shaxsning rivojlanishi, zamonaviy o'zgarib boruvchi olamda yashash qobiliyatini bilish zarur.

V.A.Suxomlinskiy pedagogning rolini, uning bolalar tarbiyasiga o'z shaxsining, individualligining ta'sirini ta'kidlab, quyidagicha yozgan edi: "Pedagogning yorqin fikr va ishtiyoqdan ilxomlanishi bo'lmasa, tarbiya o'lik sxemaligicha qoladi. Chunki go'dak yer yuzidagi ilk qadamidan boshlab, o'zini uni tarbiyalayotgan, unga talablar qo'yayotgan, o'zining ma'naviy kuchini sarf etayotgan, o'z idealini ta'kidlashni xohlayotgan inson bilan solishtira boshlaydi".

Pedagog faoliyati – bu pedagogik nazariya va pedagogik ijod – san'atga asoslangan faoliyatdir. Pedagogning shaxsi tarbiyalanuvchilar shaxsining shakllanishi omili bo'lishi uchun, u kasbiy bilimli, pedagogik jamoaning an'alarini saqlovchi va boyituvchi, uning qarashlari va qadriyatlarini e'zozlovchi uning ijodiy a'zosi bo'lishi kerak!

V.A.Kann-Kalik, N.D.Nikandrlar pedagogik ijod faqatgina kasbiy ahamiyatli motivatsiya bo'lgandagina yuzaga kelishi mumkinligini ta'kidlaganlar. Asosiy pedagogik motivlardan biri bolalar ijodini

rivojlantirish hisoblanadi. Bu masalani faqatgina ijodiy ishlaydigan pedagoggina hal eta oladi.

V.I.Zagvyazinskiy pedagogik ijodni tahlil qilib, u boshqa ijod turlari bilan ko'pgina umumiyliklarga egaligi, ammo uning pedagogik faoliyat va uning natijalari – bola shaxsining o'sishi va shakllanishi bilan bog'liq o'ziga xosliklari mavjudligini ta'kidlaydi.

Pedagogik ijod mashg'ulot, bayram tadbiri va shu kabilarning davomiyligi bilan belgilanuvchi vaqt bo'yicha chegaralarga ega. Rassom surat rejasi, zarur ifoda vositalari, eng yaxshi yechimlarni uzoq vaqt o'ylashi mumkin.

Shu tariqa, ko'p yillar davomida pedagogik amaliyotda jamoaning shakllanishi to'g'risidagi masala ko'tarilgan, ammo ish tajribalaridan ma'lumki, o'z ijodiy imkoniyatlarini anglash va ularni bolalar bilan ishlashda qo'llay olishni har qanday tarbiyachi ham amalga oshira olmaydi, ularni ro'yobga chiqarishda pedagoglarga ko'maklashish lozim.

Ijtimoiy munosabatlar, jamiyatda shakllangan ta'lim paradigmalariga ko'ra, sharoitlarga yondashuvlarda farqli jihatlar mavjud. Ta'limning avtoritar, an'anaviy modelida yondashuv pedagogni va uning ijodiy imkoniyatini, kasbiy mahoratini yaratish, shakllantirish sifatida qoraladi.

Insonparvar, shaxsga yo'naltirilgan modelda e'tibor shaxsga, uning o'z-o'zini rivojlantirishga qaratiladi, rahbar, pedagoglar, boshqaruvchilarning vazifasi esa – rivojlanish, o'z-o'zini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi. Bu qanday sharoitlar bo'lishi mumkin?

Ijodiy faoliyat motivga asoslanadi, ya'ni jarayonga yo'naltiriladi, qobiliyatlarning rivojlanishiga ko'maklashuvchi aynan shunday faoliyatga insonda eng ko'p moyillik bo'ladi. Pedagogik ijod va tanlagan kasbidan qoniqish hissi o'zaro bir-birini rag'batlantiradi. Rahbar uchun turli ko'rsatkichlarni, tashkilotdan qoniqishni, mehnat mazmuni, sharoitlarini, maoshni, taqdirlash va mukofotlarni taqsimlash, rahbarlik uslubi va metodi, jamoadagi psixologik muhit, rahbariyat bilan munosabat, jamoadagi munosabat, jamoa ishiga ta'sir etish imkoni, rivojlanish istiqbollari, rahbarning ishni obyektiv baholashi, ma'muriyatning ishchilar ehtiyojlariga munosabati, moddiy-uslubiy baza, o'quv-uslubiy vositalar va boshqalarni baholash orqali mehnatdan qoniqish darajasi holatini o'rganish muhim hisoblanadi.

F.Xersberg va uning yordamchilari tomonidan ijodiy faoliyat motivatsiyasi tamoyillari ishlab chiqilgan bo'lib, ijodiy jamoani boshqarishda ularning ko'plarini nazarda tutish lozim, bulardan:

- ko'pgina insonlar, agar ish jarayonida ularning shaxsiy qadrgimmatlari va shaxsiy ishtiroklari ehtiyojlari qondirilsa, ishdan xursandchilikni his etadilar. Pedagog bilimli hisoblangan masalalardagi qarorlar uning hamkorligida qabul qilinishi muhim;

- har bir insonga uning muhimligini his qilish yoqimli hisoblanadi, shuning uchun boshqarish san'ati – bu yana har bir xodimga umumiy muvaffaqiyatga erishishda uning mehnati muhimligini yetkazish, o'z vakolatlarini ishchilarga topshirish, maqtovlarni qo'llay bilish malakasi hisoblanadi, bu ularning faolliklari va ijodiy yondashuvlarini oshiradi;

- ish jarayonida xursandchilik va muvaffaqiyatni his qilmagan ishchilar, ijobiy his-tuyg'ularni tashkilotdan boshqa joylarda, tashqaridan izlaydilar. O'z ish joyida muvaffaqiyatni his qilmagan inson, o'z kuchini boshqa yo'nalishlarda muvaffaqiyatni izlashga yo'naltiradi;

- xodimlar tashkilotdagi ishning holati to'g'risidagi ma'lumotni qanday shaklda va qanday sur'atlarda olishlariga qarab, ma'muriyat uchun ularning asl qadrgimmatlari qanday ekanligi to'g'risida hukm chiqaradilar. Agar ma'lumot yashirin saqlansa yoki kechiktirib yetkazilsa, ular o'zlarini ahamiyatsiz his qiladilar va natijada ularning ijod qilishga tayyorlik darajalari pasayadi;

- har qanday nazorat hayajonli va yoqimsizdir, hatto u obyektiv va yaxshilik sari bo'lsa ham. Uning o'z-o'zini nazorat qilish bilan birgalikdagi qo'llanishi ishchining motivini ko'proq rag'batlantiradi;

- har bir xodim o'z ish joyida o'z-o'ziga rahbar bo'lishi kerak. Har qanday faoliyatda rahbar ishchining tashabbusi, uning o'z-o'zini ifodalashi uchun erkin muhitni qoldirishi lozim;

- yaxshi ishning tan olinmasligi umidsizlikka olib keladi. Har bir yaxshi ishlaydigan xodim uning harakatlari moddiy va ma'naviy to'g'ri baholanishiga ishonch hosil qilishi lozim.

Motivatsiya pedagoglarning ijodiy unumdorliklariga bevosita ta'sir etadi. U kasbiy faoliyatning maqsadga yo'naltirilgan, ongli xususiyatini belgilaydi. Motivatsiya shaxsning potensial imkoniyatlari, subyektning pedagogik faoliyatdagi sustkashligi yoki faolligini, namoyon bo'lish shakli va uning ijodiy faolliги me'yorini belgilaydi.

Motiv uyg'otish – bu faoliyatga va shaxsiy hamda tashkilot maqsadlariga erishish uchun muloqotga undash jarayonidir.

Pedagoglarda motiv uyg'otish – ularning muhim manfaatlarini ko'zlash, hayot faoliyati jarayonida o'zini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish demakdir.

Psixologlarning fikrlariga ko'ra, yetakchi motiv ijodiy faoliyatga qiziqish bo'lib hisoblanadi. Qiziqish mexanizmi o'z ichiga his-tuyg'ularga bo'lgan ehtiyojini qondirishi, faqat yangilikka his-tuyg'ularni jadallashtiradi, shuning uchun qiziqishga asoslangan faoliyat tadqiqot xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Bir xillik his-tuyg'ularni o'ldira, qiziqishga doimo yangilik zarur. Qiziqish asosida insonning emotsional to'yinishga bo'lgan tabiiy ehtiyoji yotadi.

Psixologlarning fikricha, qiziqish – to'yinmaydigan ehtiyoj, shuning uchun qiziqish boshqa ehtiyojlarga nisbatan juda faol. Qiziqish bevosita va bilvosita xususiyatlarga ega. Bevosita – bu faoliyat jarayonining o'ziga bo'lgan qiziqish. Bilvosita – bu natijalarga bo'lgan qiziqishdir. Faoliyatning o'ziga qiziqmaslik, mazkur faoliyatni hech qanday kelgusi taqdirlanishlarisiz amalga oshirilishi oqibatida, uning faolligi kamayadi, undan qoniqish hissi esa pasayadi.

Rahbarning asosiy vazifasi – lavozim majburiyatlari va vazifalarini halol ijro etilishini nazorat qilishga imkon beruvchi xodimlarga ta'sir etish metod va usullarini tanlash hisoblanadi. Rahbar va xodimlarning munosabatlari subyekt – subyekt asosiga tayanadi, o'zaro munosabatlar jarayonida muvaffaqiyatga erishiladi. Kasbiy muloqot dialog asosida quriladi, rahbar yagona to'g'ri qaror bo'lgan joyda novatorlik bo'lmasligini tushunishi lozim, chunki bunday yondashuvda boshqa, ehtimol eng yaxshi variantlar chetda qolib ketadi. Shuning uchun ham u doimo muammoni hal etish bo'yicha boshqa yondashuvni taklif etayotgan insonni nafaqat tinglashi, balki qo'llab-quvvatlashi ham lozim.

Rahbar qo'l ostidagilarga boshqaruvning "yumshoq usullari"dan foydalanib ta'sir etishi mumkin. Boshqaruv jarayonida yo'naltirilgan va yo'naltirilmagan ta'sir mexanizmlari qo'llanadi. Yo'naltirilgan ta'sir mexanizmi ishontirish va da'vat qilish hisoblanadi. Yo'naltirilmagan ta'sir mexanizmi – taqlid qilish va yuqtirish hisoblanadi.

Rahbar ishontirish metodini qo'llashda, insonlarning aql va tafakkuriga murojaat etadi. Bu holatda xodimlar va rahbar kasbiy bilimlar va tajribalari bo'yicha teng hisoblanadilar va ikki tomon ham asosli dalillar, sharhlarni keltirib ishontirishlari mumkin.

Da'vatdan foydalanish inson ma'lumotni hech qanday asos va isbotlarsiz qabul qilganida ularning his-tuyg'ulari va emotsiyalariga

murojaat etish imkonini beradi. Da'vat, rahbar ob'ro', hurmat-e'tibor qozongan hollardagina samarali hisoblanadi. Da'vatning muvaffaqiyati shaxsning yorqinligi va kuchliligiga, rahbarning iroda kuchini boshqarish qobiliyatiga – kuch, ob'ro', o'ziga ishonch hissini namoyon eta olishiga bog'liq. Rahbar taqlid uchun namuna bo'lishi kerak, qo'l ostidagilar ongli ravishda yoki anglamagan holda deyarli doim rahbardagi ishlash uslubini, o'zini tutish, suhbatni olib borish, ishga bo'lgan munosabat va hatto xulq-atvorni o'zlashtiradilar, bu unga nisbatan yuqori javobgarlikni talab etadi. Bundan muhim xulosa chiqariladi – ijodiy jamoani ijodiy rahbar boshqarishi lozim.

Jamoadi hamfikrlar jamoasi tuzilgandagina muloqotning psixofizik darajasida bir individdan boshqasiga emotsional muloqotning ko'chishi jarayoni sifatida yuqtirish metodi amal qiladi.

Psixologik iqlim qanday vaziyatlardan hosil etiladi uning qanday ko'rsatkichlari mavjud?

Birinchidan, bu demokratizm va hukmdorlik (avtoritarlik)ning mutanosibligi belgilanuvchi munosabatlar turi hisoblanadi.

Psixologik muhitning ikkinchi jihati shaxsiy mustaqillik, ya'ni pedagog mustaqil ravishda harakat qilish va qaror qabul qilish imkoniga ega bo'lgan sohasining kengligi tushuniladi. Bunday imkoniyatni bilib insonning psixologik ozodligi va oqibatda uning ijodiy imkoniyatini faollashtirishda juda muhim hisoblanadi.

Qulay mikroiklimni shakllantirishga o'zaro yordam va munosabatlardagi ochiq ko'ngillilik darajasining rivojlanganligi, turli nuqtai nazarlarga bag'rikenglik darajasi kuchli ta'sir etadi.

Psixologik muhitga ichki sharoitlar ta'sir ko'rsatadi, ularga jumladan ijodiy jamoani boshqarish uslubi kiritiladi. Boshqaruv uslubi – belgilangan tamoyillar, boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan odatiy masalalarni o'ziga xos va barqaror hal etish metodlari, rahbarning jamoa a'zolari bilan muloqot usuli majmui hisoblanadi. Boshqaruv uslubi – jamoani rivojlantirish, pedagoglarda tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantirishning ahamiyatli omiliga bo'lib qolmay, shu bilan birga u rahbar faoliyatini baholash mezonini bo'lib ham hisoblanadi.

Demokratik uslubga ega rahbar – bu ilg'or texnologiyalar tashuvchisi, inson omili bo'yicha mutaxassis, hamkorlikdagi faoliyat koordinatori. MTM mudiri subyekt – subyekt o'zaro munosabatlarini mohirona tashkil etadi, jamoani jonlantiradi, har bir xodimning alohida sharoitlari va muvaffaqiyatlari nafaqat e'tiborga olinadi va taqdirlanadi,

balki maqtovlarga sazovor bo'ladi. Demokratik uslubdagi rahbar rag'batlantirish va ishontirish (iltimos, maslahat, taqdirlash) metodlarini afzal biladi, jamoa bilan ko'proq masalalarni muhokama etishga intiladi, xodimlarning tashabbuslari va ijodlaridan imkon qadar ko'proq foydalanadi, boshqaruvga jamoa a'zolarini jalb etadi, hamkorlikka chorlaydi.

Jamoadagi psixologik muhitga kadrlarni tanlash va joylashtirishda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kadrlar yetishmasligi sharoitida MTM mudiri kadrlarni tanlamasdan, ixtiyoriy, ba'zan hatto maxsus maktabgacha pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan pedagogni ishga qabul qilishiga to'g'ri keladi. Bu bilan rahbar zimmasiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklanadi.

Bunday sharoitlarda ijodiy, do'stona, faol va ishchan jamoani qanday shakllantirish mumkin? Psixologlar ta'kidlashlaricha, jinsi bo'yicha bir jinsga ega jamoalarda nizolar ko'proq yuzaga keladi, shuning uchun ham kadrlarni ijtimoiy-psixologik tavsiflari bo'yicha joylashtirish ayniqsa muhim hisoblanadi: temperamenti, xarakteri, emotsionalligi, faolligi bo'yicha. Biri nazariy tafakkurga ega, ikkinchisi yaxshi tashkilotchi bo'lgan tarbiyachilar "jufti" maqbul hisoblanadi. Konstruktiv tafakkurga ega va tanqidchi kabi ikki pedagoglar yaxshi hamkorlar hisoblanadilar. Variantlar ko'pgina bo'lishi mumkin, rahbar e'tibor qaratishi lozim bo'lgan asosiysi – bu tarbiyachilarning o'zlarining juftlikda ishlash istaklaridir. Shaxsiy tanlov, shaxsiy qaror ijodiy o'z-o'zini amalga oshirish, o'zaro munosabatlar samaradorligiga ko'maklashadi, ularda maqsadlar va tarbiyaviy yondashuvlar yaxlitligi yuzaga keladi. Guruhli moslikni saqlash rahbarning doimiy vazifasi bo'lishi lozim.

Liberal boshqaruv uslubi – rahbar ish jarayoniga aralashmasligi, qarorlar qabul qilinishining beqarorligi, ular ijrosining zaif nazorati bilan tavsiflanadi. Liberal boshqaruv uslubida qo'l ostidagilarda o'z maqsadlarini belgilash, qaror qabul qilish va o'z ishini nazorat qilishga deyarli to'liq erkinlik beriladi.

Jamoani boshqarishning liberal uslubi samarasiz hisoblanadi, ammo bunday jamoada yetuk ijodiy shaxs ishlasa ham, u ijodiy izlanish, eksperiment, yangiliklarni joriy etishda erkinlikni his qiladi (ammo bunday holatda juda kam, shu bilan birga mazkur holatda aniqrog'i rahbarlikning mavjud emasligi to'g'risida aytish mumkin).

Rahbar, shaxsiy boshqaruv uslubini aniqlab olib, yondashuvlar, qo'l ostidagilarga munosabati, qaror qabul qilish va hokazolarni o'zgartirish yo'llarini belgilab olishi mumkin. Ammo psixologlar u yoki bu pedagogik jamoadagi va xodimlardagi mavjud boshqaruv uslubini osongina takomillashtirishga nisbatan oqlanmagan ishonchdan ehtiyotkor bo'lishni ogohlantiradilar. Boshqaruv tizimining ko'p yillik an'alarida belgilangan xodimlar turi tarbiyalanib, ular avtoritar boshqaruv uslubiga ko'nikib qolganlar. Shaxsiy tashabbuskorlikdan ko'ra, ko'proq ijrochilikka moyil bo'lgan ijrochilar faqatgina berilgan vazifalar va topshiriqlarni amalga oshiradilar, ammo umumiy ish holatiga, butun muassasaning ish sifatiga shaxsan o'zlarini javobgar deb hisoblamaydilar. Afsus yil sayin bunday pedagoglar soni kamaymayapti. Bunday pedagoglar boshqa rahbarlik uslubini qabul qilmaydilar. Agar rahbar takliflar berishni so'rasa, maslahatlarni tinglasa, ular uning o'zida g'oyalar yo'q, javobgarlikni qo'l ostidagilarga yuklaydi, o'zi hech narsani hal qilmaydi deb hisoblaydilar. Hatto ular biror qarorni xato deb bilsalar ham, o'z nuqtai nazarlari mavjud bo'lsa ham, rozilik bildirib: "Nima desangiz shu.." deb javob beradilar. Demokratik boshqaruv uslubiga ega rahbarning "yumshoq" boshqaruv uslublarini noto'g'ri tushunuvchi bunday jamoa bilan yoki bunday xodimlar bilan ishlashi qiyin kechadi. Bunday insonlarga, avtoritar rahbarlar kabi ongini qayta qurish zarur hisoblanadi. Demokratik uslubdagi rahbar qo'l ostidagilarni qayta tarbiyalash, "rahbar doim haq" tamoyili asosida yashaydigan "kichik inson" ana'anaviy stereotipini bartaraf etish kabi mushkul masalaga duch keladi.

Boshqa tomondan, ixtiyoriy MTM ta'lim tizimining bir qismi hisoblanadi, har bir rahbar esa o'z navbatida bo'ysunuvchi hisoblanadi, shu tariqa uning rahbarlik uslubi to'g'risidagi tasavvurlari nafaqat quyi pog'onaga, balki butun ma'muriy boshqaruv bo'yicha yuqoriga ham qaratiladi.

Boshqaruvning har bir pog'onasida ham tashabbusiz, faqat "yuqoridan" buyruq asosida ishlaydigan, o'z faolligini esa quyi pog'onadan chiquvchi tashabbusni yo'qotish uchungina qo'llaydigan rahbarlar ham ko'p.

Shu tariqa, boshqaruv uslubiga jamoaning ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirish imkoniyati ko'p jihatdan bog'liqdir, to'liq demokratik boshqaruv uslubiga o'tish esa ta'limning barcha pog'onalarida ham rahbarlar, xizmatchilarning ongini o'zgartirishga bog'liqdir.

III BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TASHKIL ETILADIGAN PEDAGOGIK JARAYONLARNING IJTIMOIY-KOMMUNIKATIV YO'NALGANLIGI

3.1 Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o'zbek milliy pedagogikasi asosida insonparvarlik-axloqiy sifatlarini shakllantirish

Tadqiqot materiallarining ko'rsatishicha, shaxsning axloqiy madaniyati nafaqat ta'lim, mashg'ulotlar sohasida, balki kundalik hayotda – kattalar va tengdoshlari bilan kundalik muloqot jarayonida shakllanadi. Maktabgacha yosh davridagi bola aynan uyda ko'proq darajada mustaqil bo'la oladi, samarali ichki-shaxsiy munosabatini namoyon etadi. Bu bilan, hayotning mazmundorligini pedagogik ta'minlash etnopedagogika asosida maqsadga yo'naltirilgan ravishda axloqiy sifatlarini tarbiyalashni belgilab berdi. Shu tariqa, haqiqiy axloqiy imkoniyatlarni faollashtirish butun hayot faoliyati va munosabatlar tarzi, tengdoshlar guruhi bilan haqiqiy aloqalari xususiyatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun muloqot madaniyatini tarbiyalashda bir taraflama muloqot emas, balki subyektlar va obyektlarning dialektik munosabatlari, ularning ko'p variantlilik muhimligi aniqlandi va bu tashqi ta'sirlarning ichki aks etuvchi obyektlar bilan birligini ta'minlaydi.

“Ma'naviy madaniyat”ning alohida ahamiyatli jihatini maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsining o'ziga xos axloqiy-irodaviy sifatлари tashkil etadi. Mazkur jihat insonning boshqa insonga insonparvarlik munosabati bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan muloqotga ma'naviy faoliyat sifatida yangicha yondashish muhim ekanligi ma'lum bo'ladi.

Muloqot faoliyat sifatida boshqa faoliyat turlari bilan bir xil emas, chunki o'z predmetiga ega bo'lib, ma'naviy madaniyatning yaxlitligini ta'minlaydi.

Ta'kidlab o'tilgan imkoniyatlarning asosini idrok etilgan xulq obrazlari bilan individual-amaliy tajriba, ma'naviylik to'g'risidagi tasavvurlarni egallaganlik darajasi sintezi tashkil etadi.

Shaxsning irodasi, vazminligi, insonparvarlik xususiyatidagi ma'naviy sifatлари uning ichki madaniyati, haqqo'yliги, do'stonaligi, samimiyligi, hayotdan mamnunligi, muloyimligini, qadr-qimmatini aks ettiradi. Ularning shakllanganligi tengdoshlar xulqidagi salbiylik,

qarama-qarshilikka chiday olish qobiliyatini, oʻz-oʻzini tarbiyalash belgilab beradi, iroda va shaxsning oʻz faolligisiz “Oʻz-oʻzini yaratish” imkoni yoʻqligi maʼlum boʻldi.

Bolalarda “maʼnaviy madaniyatni” shakllantirish boʻyicha respublikamiz olimlari tomonidan oʻzbek xalq pedagogikasidan foydalanish yoʻllari va vositalari ishlab chiqilgan.

Maʼnaviy madaniyatni tarbiyalash avvaldan tayyorlangan pedagogik jarayonda amalga oshiriladi, chunki tarbiyachining asosiy vazifasi – bolalar turli xalqlar toʻgʻrisidagi bilimlarga ega boʻlmagan yosh davrlaridan boshlaboq, bolalar jamoasini shakllantirish, bolalar orasida oʻzaro doʻstona munosabatlarni tarbiyalash hisoblanadi.

Bunday ishlar bolalar maʼnaviy tarbiyasidan avval qoʻllanilishi, soʻngra unga xamrohlik qilishi lozim. Bunda tarbiyachilar jipslashtiruvchi oʻyinlar, mashgʻulotlar, sayrlar vaqtida tarbiyalanuvchilarning oʻzaro munosabatlariga koʻproq eʼtibor qaratishlari; har bir bolaning u yoki bu ijobiy xislatlarini toʻliqroq ochish uchun vaqt ajratishlari, unga tengdoshlari eʼtiborini jalb qilishlari kerak.

MTM guruhlarida turli millat vakillari boʻlgan bolalar tarbiyalanadilar va bu bizga amalda bolalarni turli millatlar tiliga va odatlariga hurmat, doʻstlik, oʻzaro yordam va oʻzaro tushunishni tarbiyalashga imkon beradi. Oʻzbek millatiga mansub boʻlmagan bolalar oʻzbek tilini oʻrganishlari bilan birga oʻzbek xalqiga muhabbatlari ham uygʻonadi.

Insonparvarlik ruhida tarbiyalashning eng samarali yoʻli – turli millatlar bolalariga bir-birlari bilan muloqotda boʻlishlariga keng imkoniyat berish hisoblanadi. Shuning uchun pedagoglar turli millatli bolalar va kattalarning uchrashuvlarini, birgalikda teatrga, sayrlar, ekskursiyalarga boradilar, bayramlar, qiziqarli milliy oʻyinlarni oʻtkazadilar, chunki oʻyin bolalar uchun alohida ahamiyatga ega va atrofda olamni idrok etish usuli hisoblanadi. Bunda tarbiyachilar hamkorlikdagi faoliyat va oʻyin, bir ish bilan mashgʻullik vaqtida koʻproq umumiy his-tuygʻularni uygʻotishga harakat qiladilar va bu bolalarning bir-birlariga boʻlgan qiziqishlarini orttirib boradi. Mazkur ichki mexanizmlar albatta tarbiyaviy jarayonni faollashtiradi, uning jarayonida shaxsning mazmunli tavsiflarining prinsipial yangi jamoat munosabati tizimiga bogʻliqligi aniqlanadi. Muloqot bolalar jamoasi hayotining “ichki mexanizmi”ni tashkil qiladi, chunki muloqot sharoitlari, uning tarkibiy jihati maktabgacha taʼlim yoshidagi

bolalarning ijtimoiy-ommaviy va muloqot madaniyati shakllanishi sur'atiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Agar predmetli-amaliy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalar hayot faoliyatining faqatgina bir tomonini tashkil etishi hamda boshqa tomondan uning muloqoti o'ziga xos shakli – boshqa tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabati ekanligi hisobga olinsa, unda bizning ma'lumotlarimiz, tarbiyalanuvchilar haqiqiy muloqot jarayonida insonparvarlik xulqining sezilarli tajribasini egallashlari bilan asoslanadi.

Shaxsiy muloqotning o'ziga xosligi shundan iboratki, uning ta'siri doimo ta'sir obyekti hisoblangan uning sherigiga yo'naltiriladi. Bundan, muloqot vazifasi, uning mazmuni va sharoitlaridan kelib chiqqan holda muloqot mexanizmlari va vositalarini shakllantirishga erishiladi.

M.G.Davletshin, E.G.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.A.Tokareva, E.N.Sattarov, N.S.Safayev va boshqalarning ishlarida muloqot mazmuniga me'yoriylikning joriy etilishi uning ijtimoiy ahamiyatli rolini sezilarli darajada oshirishi to'g'risidagi holat mavjud. Barcha yuqorida ta'kidlanganlar, bizning tajriba-sinov ishlarimizda ma'naviy-estetik tasavvurlarni shakllantirish dasturini ishlab chiqish uchun asos bo'ldi.

Shu tariqa, maktabgacha ta'lim bosqichida xulq-atvorning maxsus faoliyati sifatida muloqot madaniyatini tarbiyalashga pedagogik diqqat-e'tiborning jamlanishining to'g'riligiga shak-shubha qolmaydi. Bu ayniqsa, doimiy ravishda shaxs va tengdoshlar guruhi, ularning manfaatlari va ehtiyojlarining o'zaro ta'siri yuz beradigan va oqibatda tarbiyalanuvchi shaxsini "yumshatish" xavfi tug'iladigan maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitida muhim hisoblanadi. Tengdoshlarning muloqotlari boshqarilmaydigan maktabgacha ta'lim muassasasida esa bir yoqlama muloqot turi, xudbinlikning shakllanishi xavfi yuzaga keladi. Bunday muloqot turi "ijtimoiy omil" mazmunida, osonlik bilan "shaxsiy xulqqa" aylanishi mumkin.

Ijtimoiy, pedagogik talablar va munosabatlarning haqiqiy jarayoni qarama-qarshilikka ega bo'lgan MTMlarda "moslashuvchanlik" xulqini tartibga solish mexanizmlari, shakllanmagan – ijtimoiy-adolatli xulq o'rniga kuchga kiradi.

Barcha yuqorida ta'kidlanganlar, MTMda haqiqiy muloqotning o'ziga xos tarbiyaviy xususiyati to'g'risidagi ilgari surilgan holatni isbotlaydi. "Muloqot madaniyati" o'zida ma'naviy-axloqiy, insonparvarlikni aks ettiruvchi ma'qul muloqot usuli hisoblanadi. Muloqot madaniyatini maktabgacha yoshdagi bola shaxsining muhim

ijtimoiy funksiyasi sifatida tushunish lozim. Mazkur funksiya MTMning ma'naviy muhitini, unda mustahkam o'rin egallagan, bolalar va kattalar faoliyatining barcha ko'rinishlari va munosabatlari tizimi madaniyatini amalda namoyon etadi. Demak, "muloqot madaniyati" o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy-mazmunli va o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy ahamiyatli faol shaxsiy xulqiy faoliyat sifatida qaralishi mumkin. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning muloqot faoliyati obyektiv natija – ijtimoiy-xulqiy yo'nalganlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi mumkin. Aynan mazkur mazmunni biz "muloqot madaniyati" tushunchasiga kiritamiz.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaga nisbatan qo'llanilgan "ma'naviy madaniyat" tushunchasining mazmuni umumiy obyektiv va subyektiv dialektik yaxlitligini birlashtiradi, bu ma'naviy tarbiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Eng muhimi, mazkur muhim hodisaning haqiqiy, amaldagi holatini anglatadi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi va ma'naviy ong mexanizmlarining obyektiv talablari va qonuniyatlariga tayanish, bir tomondan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning haqiqiy ma'naviy imkoniyatlarini hisobga olish, boshqa tomondan, bolaning ma'naviy madaniyati ko'rsatkichlarini aniqlashga imkon beradi.

Tadqiqot ishlari, bolalarning o'zbek xalqining milliy an'analari bilan izchil tanishtirib borish zaruratini ko'rsatdi.

Biz, bolalarda insonparvarlik hissini shakllantirishni, ularni o'zbek xalqining hayoti, madaniyati va san'ati bilan tanishtirishdan boshlash maqsadga muvofiqligiga amin bo'ldik, chunki mazkur yosh davrida barcha tarbiya masalalarini aniq va tushunarli bo'lishiga erishish mumkin.

Shuning uchun ham, 2 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning ma'naviy madaniyatini kengaytirish xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni inobatga olib va mazkur yosh davrida ma'naviy madaniyatni tarbiyalashning nazariy, metodologik holatlariga asoslanib, quyidagi tanlov tamoyillari - "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning ma'naviy madaniyatini tarbiyalash dasturi" ishlab chiqildi.

I. Agar vazifalar pedagogik vazifalar singari aniqlashtirilgan, haqiqiy ma'naviy imkoniyatlarni, o'z xalqining bevosita uning hayot faoliyatiga yaqin bo'lgan an'alarini, tarbiyalanuvchi jalb etilgan ijtimoiy insonparvarlik munosabatlari tizimi inobatga olinsagina, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning shaxs ma'naviy sifatlari va xususiyatlarini to'laqonli tarbiyalash mumkin.

II. Shaxsga yaxlit yondashuv tamoyili. Alohida cheklangan sifatlar tarbiyaning bevosita maqsadi bo'la olmaydi, chunki sifatlarning o'zi maqsad, vazifasi, mazmuni, obyektni o'rganish, ta'sir etish metodlari tizimi ularni to'g'rilash, natijalarni hisobga olish kabilarni qamrab oluvchi tarbiyaviy jarayonning markaziga qo'yilgan yaxlit shaxs mazmunidagina haqiqatda namoyon bo'lishi mumkin.

Tarbiyaviy faoliyat tizimining optimal qurilishi holatlariga binoan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning xulqi alohida cheklangan maqsadlar bilan emas, balki aniq sharoitlarda ularga erishish orqali belgilanishi sababli, shaxsning u yoki bu sifati kengaytirilmay, balki shaxsga tegishli barcha sifatlar va xususiyatlar to'liq qamrab olinganda dasturning samaradorligi yuqori bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning ijtimoiy-ahamiyatli motivlar asosidagi yaxlit shaxsining bunday sifatlar va xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

1) MTMga, uning hayot faoliyati tarziga, tarbiyachiga, tengdoshlar guruhiga, oilasiga, o'z-o'ziga ma'naviy-insonparvarlik xarakterdagi munosabat xususiyati bilan.

2) ijodiy ehtiyojlar va qobiliyatlarning to'liq rivojlanishi asosida, faoliyatni bajarish usullarini egallashda yaratuvchanlik, jarayonga kiritilgan bolalar faoliyati turlarining hajmida turli-tuman qiziqishlar asosidagi ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar uyg'unlashuvi asosidagi faoliyat madaniyati bilan.

3) kattalarga hurmat, tengdoshlarini tan olish asosidagi ijobiy o'zaro munosabatlarni ta'minlovchi guruhli o'zaro ta'sir sharoitida muhim ijtimoiy funktsiya sifatidagi muloqot madaniyati bilan. Shu orqali shaxsiy-subyektli munosabatlari insonparvarlik va hamkorlik asosida quriladi.

4) insonparvarlik munosabatlari tizimida namoyon bo'luvchi shaxsning ma'naviy-irodaviy va ijobiy hissiy sifatleri hamda xususiyatlari bilan, ularni hayotdan mamnunlik, qadr-qimmat, pedagogga, boshqa katta insonlarga va tengdoshlariga ishonchli munosabat, kamtarlik, haqgo'ylik, adolatlilik, ozodalik, do'stonalik, mustaqillik tashkil etadi.

Sanab o'tilgan komponentlar "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning ma'naviy madaniyati" dasturi mazmunini belgilab beradi. Ular ma'naviy tarbiya jarayonining tarkibiy tashkil etuvchilari hisoblanadi, maktabgacha yosh davrida ma'naviy-barkamol shaxsni rivojlantirishni belgilab beradi.

Ma'naviylik to'g'risidagi tushunchalarning funksiyalari tarbiya tizimiga pedagogik jarayonning "teskari ta'siri" xususiyati va natijalarini ochib berish, yosh guruhlari orasidagi, shuningdek MTM va boshlang'ich ta'lim orasidagi ichki jarayonning uzluksizligiga majmuaviy yondashuvni amalga oshirishga imkon beradi.

Bunday yondashuv ahamiyatli bo'ladi, chunki tarbiyalanuvchilarning ma'naviy qobiliyatlari, tarbiyaviy jarayonning barcha bosqichlarida pedagogik o'zaro ta'sir, hamkorlikning rivojlanishini dolzarblashtiradi.

"Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning ma'naviy madaniyati" dasturining tanlov tamoyillarining zarurati, ma'naviy-axloqiy madaniyat va qalb kuchi uchun ikki asosiy jihatlar zarur ekanligi bilan belgilanadi: birinchisi – etnosning ruhiy psixologik uslubini shakllantiruvchi milliy ong; ikkinchisi – madaniyatning umuminsoniy elementlari, umuminsoniy qadriyatlarga aloqadorlik hissi. Ma'lumki, milliy o'z-o'zini anglash milliy cheklanishdan xolis bo'lgan xalqlardagina chuqur va moslashuvchandir. Shuning uchun tarbiyaviy dasturning MTMlarda milliy an'analar bilan integratsiyasini, milliy ong, umuminsoniy madaniyatli millatning ruhiy madaniyati shakllanishining asosiy sharti deb hisoblaymiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ahamiyatli va o'zlashtirish uchun tushunarli bo'lgan ruhiy, milliy-madaniy qadriyatlar – xalq ertaklari, tez aytishlar, maqollar, o'yinlar, xalq qo'shiqlari, raqslari, badiiy-amaliy san'at, mehnat, urf-odatlar, an'analar va boshqalar hisoblanadi. Madaniyat va tarixning mazkur elementlarida xalqning qiziqishlari ideal shaklda ifodalangan. U atrof-olamdagi hodisalarning u yoki bu shakldagi bahosini o'z ichiga olgan, har bir shaxsning "axloqiy madaniyatini" shakllantiruvchi asosi hisoblanadi.

Xalq to'g'risidagi bilimlar, qiziqish urf-odatlar va hokazolarni o'zlashtirish nafaqat ta'lim jarayonida, balki bolalarning o'yin faoliyatlarida ham amalga oshiriladi. Bolalar qiziqish bilan o'zbek bolalar o'yinlari bilan tanishadilar, masalan: "Oq terakmi – ko'k terak", "Chitti-gul", tosh, cho'plar otish bo'yicha musobaqalar, "Zuv-zuv", lanka otish, qur'a tashlash bo'yicha o'yinlar va boshqalar. Milliy o'yinlarning har biri turli-tuman olamni ifodalaydi va ma'naviylik, jismoniy bardoshlilik, maqsadga erishish vositasi hisoblanadi.

Ijodiy o'yinlarda bolalar ertaklar, millat hayoti to'g'risidagi hikoyalarni ifodalaydilar. Mazkur o'yinlarga undovchi turtki bo'lib,

milliy liboslar, amaliy san'at buyumlari, idishlar, matolar, bayram ertaliklari buyumlari; stol o'yinlari va hokazolar xizmat qiladi.

Bolalarning xalq ijodi va badiiy adabiyoti asarlariga qiziqishlarini inobatga olib, ularni o'zbek xalq ertaklari va topishmoqlari bilan tanishtirish kerak. Yoqtirgan ertak qahramonlariga muhabbat bilan birgalikda, bolalar mazkur ertaklarni yaratgan xalqqa, mazkur millat insonlariga va ularning ijodiga muhabbat hissi, mazkur millatga mansublikdan faxr hissi yuzaga keladi. Ertaklar va topishmoqlar tabiat va hayvonot olami, o'zbek millati mehnati va uy xo'jaligining o'ziga xosligini ifodalaydi: masalan, O'zbekistondagi issiq iqlim, mehnat xususiyatlari: qishloq xo'jalik mehnati (paxta, ipak va boshqalarni yetishtirish), hunarmandlar mehnati (kulolchilik, ipakdo'zlik, yog'och, ganch o'ymakorligi va boshqalar) va h.k.

Xalqning qalbini ochib beruvchi milliy san'atning roli naqadar buyukligi ma'lumdir. Xalqning qalbini chuqurroq anglash uchun uning san'atini o'rganish lozim. Shuning uchun biz bolalarni ularga mazmuni bo'yicha yaqin bo'lgan xalq qo'shiqlari bilan tanishtirdik. O'zbekistonda yashaydigan bolalar o'zbek xalqi ko'p asrlar davomida olamga manzarali va amaliy san'at namunalarini tortiq etishini bilishlari kerak. Mazkur san'at ko'p qirrali, boy va go'zaldir. Yog'och va ganch o'ymakorligi, kulolchilik, kashtachilik, zargarlik ishlari va metal o'ymakorligi, matoda gul kashtachiligi va ularni bo'yash, zardo'zlik – bularning barchasi O'zbekiston amaliy san'atining asosiy qismi.

O'zbek amaliy san'ati to'g'risidagi tasavvurlar rasm chizish, kulolchilik, applikatsiyalar orqali mustahkamlanadi. Bu o'zbek xalqiga bog'liqlik va mehr hissini yanada kuchaytiradi.

Bolalarda Vatanga, Ona shahriga muhabbatni tarbiyalashda, shahar bo'ylab va tarixiy joylarga, bog'larga va boshqalarga o'z yaqinlari bilan ekskursiyalar tashkil etilishi maqsadga muvofiq, chunki bolalar faqatgina ularga yaxshi tanish va yaqin bo'lganlarnigina yaxshi ko'radilar.

Dam olish vaqtlarida tarbiyachilar bolalardan ota-onalari bilan shahar tashqarisiga va boshqalarga qilgan sayohatlari to'g'risidagi taassurotlari bilan o'rtoqlashishlari, qiziqarli nimalarni ko'rganliklari, bilib olganliklarini aytib berishlari so'raladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini ma'naviy tarbiyalashda bayramlar alohida o'rin egallaydi. Bayramga tayyorgarlik ko'rishning o'zidayoq, bolalar bilan u nimaga bag'ishlanganligi to'g'risida suhbatlashishga, shaharda birgalikda sayr qilish, uylar va

ko'chalarning bezatilishini ko'rishga imkon beradi. Shu tariqa, tajribasinov ishlari bolalarning o'yin, o'quv, mehnat va maishiy faoliyatlarini ma'naviy mazmun bilan boyitishga imkon beradi.

Har qanday tarbiya kishilar faoliyatining ongli bir maqsadga qaratilgan jarayoni hisoblanadi va u inson uchun qadriyatga aylana boradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilariga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlash bir qator pedagogik shartlarni bajarishni taqozo etadi.

Kattalar va bolalar orasidagi o'zaro munosabat samaradorligi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning zaruriy shartidir. Bu o'sib kelayotgan inson shaxsiga hurmat, uni sevish, psixologik va jismoniy rivojlanish qonunlarini bilish asosiga quriladi. Bolalar jamoasida shunday sharoit yaratish kerakki, ularda atrofdagi kishilarga nisbatan ijobiy munosabat paydo bo'lsin.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni va metodlari ularning yosh xususiyatlariga mos kelishi ta'lim-tarbiyada samaradorlikka erishishning muhim shartidir. Bu borada oilaning ham rolini ta'kidlab o'tish lozim. Chunki oilada shaxsni ma'naviy-axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishidan boshlanadi. U ko'pgina omillar ta'sirida tarkib topadi. Shuning uchun oila va MTM hamkorligida bolalarga ularning yosh xususiyatlarini hisobga olib munosabatda bo'lish maqsadga muvofiq.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya bola shaxsini jamiyatimiz maqsadlari va g'oyalarga ko'ra shakllantirishni amalga oshiruvchi pedagogik usullarni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "Takror aytishga to'g'ri keladi ota-onalar, ustoz-murabbiylar bu masalada xushyorlikni yo'qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo'lmasligimiz zarur", - deb ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, bolaning xulq-atvori, kechinmalariga to'g'ri odilona baho berish, bolaning fikr-hayoli, hissiyotlari, niyatlari, istaklarini yaxshi bilish, avvalambor uni to'g'ri tarbiyalashga yordam beradi. Negaki, ba'zan xulq shakli, xoxish-istak motiviga to'g'ri kelmasligi mumkin.

Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ishi faqatgina alohida metod va vositalar bilangina emas, balki pedagogik jarayonda turli metodlarning butun bir majmuasidan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlarini shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

Birinci guruhga mansub metodlar bolalarda ijtimoiy xulqning amaliy tajribasini yaratishni ta'minlaydi¹. Ijtimoiy xulqning ijobiy shakllariga o'rgatish metodi misol bo'lib, u axloqiy odatlarni tarbiyalashga qaratiladi. Buning asosiy mohiyati shundaki, bolalar doimiy ravishda har qanday vaziyatda ham jamiyatda o'rnatilgan axloqiy me'yor va qoidalarga ko'ra ish ko'rishiga o'rgatilib boriladi. Salom berish va xayrlashish, ko'rsatilgan xizmat uchun minnatdorchilik bildirish, savollarga odob bilan javob berish, umumiy va shaxsiy mulkka asrab-avaylab munosabatda bo'lish kabi axloqiy me'yor va qoidalarga o'rgatish shular jumlasidandir. Bolalar o'zlariga va o'zgalarga yordam berishga, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda, haqqoniy va kamtar bo'lishga da'vat qilinadi. Bu xususiyatlarga o'rgatish mashqlar orqali amalga oshiriladi. Mashqlar chog'ida turli amaliy faoliyat, ya'ni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni yuqoridagi xulqlarini hosil qilishga undovchi tabiiy hayotiy vaziyatlarda tengdoshlari va kattalar bilan bo'lgan muloqoti nazarda tutiladi.

Masalan, tarbiyachi katta guruh bolalarini, ya'ni kichik guruhdagi bolalar oldiga taklif qiladi va katta guruh bolalarini mehmonlarni qanday kutib olish lozimligini ko'rsatishni tavsiya qiladi. Bunday holatda olti yoshlilar kichik yoshdagilarga muloyim munosabatda bo'lib, o'zlarining bu sohadagi ko'nikma va malakalarini namoyish etishlariga erishish ko'zda tutiladi. Boshqa holatda katta guruhda betob bo'lib, yaqindagina bog'chaga qatnay boshlagan bolani nazarda tutgan xolatda yangi o'yinchoqni birinchi bo'lib kimga berishni hal qilish bolalarning o'ziga topshiriladi.

O'rgatish metodi kattalar va boshqa bolalar namunasidan foydalanish bilan uyg'unlashtirilsa, yanada yaxshiroq samara beradi. Ammo bola o'ziga ta'sir o'tkazgan kattalar yoki tengdoshlar namunasiga asosan faoliyat yurita boshlaydi. O'xshashga harakat qilish taqlid faoliyati orqali amalga oshiriladi. Namuna bola faoliyatida aks etgandagina uning shaxsiga faol ta'siri haqida gapirish mumkin.

Tarbiyachi tamonidan tashkil etiladigan maqsadli kuzatishning ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Masalan, kichik yoshdagi bolalar katta guruh bolalarining quvnoq, do'stona o'yinlarini kuzatadilar. Bu, tabiiyki, izsiz ketmaydi, ular do'stona munosabat, ko'tarinki kayfiyat, uyushgan holatdagi harakat namunalaridan muayyan xulosaga keladilar.

¹ Адамова Ў.К. Мактабгача таълим муассасаларида маънавий-ахлоқий тарбиянинг ўзига хослиги // http://fikr.uz/blog/Fikr_maktabgacha_talim/7611.html

Bunday pedagogik yo'naltirilgan kuzatuvni passiv ta'sir metodi sifatida qarash yaramaydi. Negaki u bola tajribasini hosil qiluvchi manba bo'lib qoladi, kuzatayotgan voqelikka munosabat uyg'otish orqali bolaning xulqiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlarining ikkinchi guruhi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ahloqiy tasavvuri, fikri, baholarini shakllantirishga qaratiladi. Bunga tarbiyachining epik mavzulardagi suhbatlari, badiiy adabiyot o'qish va hikoya qilish, rasm va illyustratsiyalarni izohlash, diafilmlar ko'rsatish va muhokama qilish kabilari kiradi.

Bu vosita, metod va usullarni butun guruh bilan mashg'ulotlarni tashkil etishda qo'llash maqsadga muvofiq. Bunda "Bolajon" tayanch dasturida bolalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan ancha murakkab tushunchalar beriladi. Mashg'ulotlar davomida shakllantirilgan bolaning muhim axloqiy sifatлари, ijtimoiy hayot voqealari haqidagi tasavvurlari, atrof-muhitga bo'lgan axloqiy munosabatini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi guruh metodlaridan foydalanib, tarbiyachi pedagogning suhbatida so'z yuritilgan badiiy asar qahramonlari, qandaydir voqea ishtirokchilariga xos bo'lgan sifatlar va munosabatlar bilan bolalarni tanishtiribgina qolmay, balki ularning o'zlari shohid bo'lgan amaliy tajribani muhokama va taxlil qilishga ularning o'zlarini jalb etish lozim. Masalan, "Biz qanday mehnat qilamiz?", "Yaxshi do'stlik qanday bo'ladi?", "Nima yaxshi-yu nima yomon?" kabi suhbatlar mavzusi albatta, bolalarning yoshini hisobga olib tanlanadi, lekin har safar bolaning shaxsiy tajribasiga murojaat qilinadi.

O'rta va katta guruh bolalari bilan suhbatda tarbiyachi bolalarning umumlashma fikrlari amaliy vaziyatlarni tahlil qilishga bog'lanishini nazarda tutadi. Kichik yoshdagi bolalar bilan suhbatni tomosha qilgan qo'g'irchoq teatri yoki maxsus o'tkazilgan o'yin mashg'ulotlariga bog'lash maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'lim davri bolaning rivojlanishini atrof-muhit, umumiy dunyoni estetik idrok etishga tayyorlik davri sifatida e'tirof etiladi. Bola shu davrda ba'zi aniq belgilarni: ritmik shakllar, musiqa ovozi, ochiq ranglar, mehr, kayfiyat, tabassum va yoqimli ohanglarni his etadi va ularga javob beradi.

Ma'lumki, bolada bir yoshligida sensor-hissiy idrok rivojlanib boradi. Keyinchalik bola idroki yanada takomillashib, nafaqat ba'zi

predmetlar xususiyatlarini idrok etish, balki ba'zi san'at asarlarini estetik tomonlarini ham idrok etishni boshlaydi.

Bola atrofdagi hissiy ta'sirni vujudga keltiruvchi narsalarni ko'rish orqali nutqi rivojlanadi, bola lug'ati estetik xususiyatlar bilan boyib boradi: chiroyli-xunuk, toza-iflos, katta-kichik, yaxshi-yomon v.h. Bolalar badiiy faoliyatning (musiqa, tasvirlash, badiiy so'z) ba'zi turlarini birgalikda amalga oshiradi. Kichik yosh guruhi davridagi bolalarning estetik didi sekin-asta rivojlanib, takomillashib boradi. Badiiy asarlar va ularning ritmi, rangi kabi elementlarini idrok eta boshlaydi. Bola badiiy asarda tasvirlangan o'ziga tanish predmetlarni ko'rganida juda quvonadi va ularni tasavvuridan o'tkazishga harakat qiladi. Shu kabi uning badiiy faoliyati asta-sekin oddiydan murakkablikka o'tib boradi. Ular nafaqat tasvirlashda, balki musiqiy faoliyatda ham oddiy malakalarni egallaydi, buni esa ijodiy faoliyatining dastlabki alomatlarini sifatida namoyon qila boshlaydi. Bular o'z navbatida bolada kichik yosh davridayoq badiiy faoliyatning estetik sifatini shakllanayotganini ko'rsatadi.

O'rta yosh guruhida idrok etish ancha rivojlanadi, uning aniqligi va xilma-xilligi namoyon bo'ladi. Bu davrdagi estetik idrok etish bolaning xususiy tajribasi va uning qiziqishlariga asoslanadi. Endilikda bola badiiy obrazlarni estetik baholash, ba'zi estetik vositalarni his qila olish, san'at asarlarini ma'nosiga tushuna olish ko'nikmalariga ega bo'la boshlaydi. Bolalar endilikda qo'shiqni oddiy so'zdan, badiiy asar, musiqa va tasviriy san'at janrlarni bir-biridan farqlay oladi. Ularda ijodkorlikka intilish aniq namoyon bo'la boshlaydi. Bola raqs, qo'shiq aytish va sahna ko'rinishlarni aniq tarzda obrazli ifodalab berishga uquvli bo'ladi.

Katta yosh guruh bolalari musiqa va badiiy asarlarni quyi guruhlarga nisbatan diqqat bilan tinglash, tasviriy san'at asarlarini tasavvur qilish, ularni chuqurroq tushunish, yaxshilikka quvonish, yovuzlikka murosasiz bo'lish imkoniga ega bo'lishadi. Bu davrda badiiy-ijodkorlik ko'nikmalari jadal rivojlanadi; topishmoq, qo'shiq, maqollarni amalda ishlatadi, rasmlar chizadi, applikatsiyalar bilan shug'ullanadi. Bu yosh bolalari nafaqat o'z ijodkorligiga, balki boshqalar ijodkorligiga ham baho berish ko'nikmalarini egallaydi. Bolalar endi san'at asarlarining faqat estetik sifatlarini tasavvur etibgina qolmasdan, balki ularning ma'no-mazmunlarini ham anglay oladi. Bolalarda san'at asarlari va kundalik turmushda uchraydigan go'zallikka qiziqishlari shakllanadi.

Badiiy ijodkorlik ko'nikmalari turg'un va aniq bo'lmasa ham ko'zga tashlana boshlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda bolalarga estetik tarbiya berish jarayonini chuqurroq tushunib yetish uchun uni to'rtta guruhga bo'lish mumkin:

1) Estetik idrokni rivojlantirish, estetik emotsiyalar, hissiy tuyg'ular va munosabatlar, qiziqishlarni shakllantirish;

2) Elementar estetik ongni shakllantirish;

3) Estetik faoliyatni o'zlashtirish;

4) Estetik va badiiy ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish.

Estetik tarbiya mazmuniga bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bolalarning estetik faoliyatida amalga oshiriladigan estetik tuyg'u, qiziqishlar, talablar, baholash va didni tarbiyalash kabi masalalar kiradi.

Atrof-muhitni estetik idrok etish jarayonida bolalar go'zallik to'g'risidagi bilimlari shakllanadi.

Bolalarga estetik tarbiya berishning muhim omillaridan biri bolalar adabiyotidir. Bolalar adabiyoti tushunchasi turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan so'z san'ati bo'lib, voqelikni bolalarcha idrok etish, bolalarga xos tasavvur va tafakkur obrazlarida gavdalandiruvchi badiiy asarlar majmuasi hisoblanadi.

Barcha xalqlarda bolalarga mo'ljallangan ijod etish an'anasi uzoq tarixga ega. Allalar xalq ijodida bolalarga qaratilgan so'z san'atining ilk namunasi hisoblanadi. Bu silsilada ertak, maqol, topishmoq, yalinchoq erkalama, ovutmachiq, tez aytish, sanama singari janrlardagi asarlar ham muhim o'rin tutadi. So'z san'atining boshi folklor hisoblanar ekan, bolalar adabiyotining ilk namunalari ham folklor bag'rida dunyoga kela boshlagan. Demak, bolalar adabiyotining vujudga kelishi har bir xalqning ijtimoiy ma'naviy tafakkuri taraqqiyotiga chambarchas bog'liq holda sodir bo'lgan. Shu tariqa har bir xalq o'z farzandlari uchun maxsus adabiyotni maydonga keltirish va o'z farzandlarini ijtimoiy estetik tarbiyalashni yo'lga qo'yishga intilgan.

Bolalarni kichikligidanoq nozik didli qilib tarbiyalash, ularning badiiy didini o'stirish, badiiy madaniyatni tushunish, go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish ruhida qobiliyatlarini tarbiyalashimiz zarur. Zero, go'zallikni qadrlay olish komil inson fazilatlaridan biridir.

Bolalar “yaxshi” va “yomon”ni farqlay olishi, xunuk xatti-harakatlardan nafratlana olishni ham nafosat tarbiyasini paydo qiladi.

Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagida Qimmatning xulq-atvori, qiliqlari, xatti-harakati bola qalbida nafrat uyg‘otadi. Zumradning tevarak-atrofga munosabati, mehnatsevarligi, kamtarligi, sezgirligi, shirinso‘zligi kabi xislatlari esa, aksincha unga xayrixohlik hissini paydo qiladi.

Musiqqa ham bolalarga cheksiz quvonch va shodlik bag‘ishlovchi muhim estetik tarbiya vositasidir. Bolalarda musiqa eshitish ko‘nikmasi, musiqadan emotsional ta’sirlanish hislatlarini shakllantirmay ularni musiqaning sehrli olamiga olib kirish kutilgan natijani bermaydi.

Eng kichik yoshdan boshlab bolalar musiqiy tovushlarni boshqa atrofdagi shovqinli tovushlardan farqlay boshlaydilar. Ular eshitgan melodiyalarga diqqatlarini qaratadilar, tinchlanib tinglaydilar, unga javoban o‘z xatti-harakatlar majmuasini namoyon qiladilar, kuladilar, qiyqiradilar va turli harakatlar ko‘rsatadilar. Ularning yoshi kattalasha borishi bilan musiqaga bo‘lgan munosabatlari ham o‘sib murakkablasha boradi. Endilikda musiqa asarlari xarakterlari, ifoda vositalarini anglaydigan, nisbatan murakkab psixologik qobiliyatlarga ega bo‘la boradilar. Kuylaydigan qo‘shiqlarini qanday qilib kuylash yoki unga qanday raqs harakatlarini bajarish lozimligini anglay boradilar, musiqaga bo‘lgan qiziqishlari kuchayib borib, musiqaning u yoki bu faoliyat turi bilan shug‘ullanishga harakat qiladilar. Hatto, 6-7 yoshli bolalarda musiqa va uning ijrosiga badiiy baho berish qobiliyati ham shakllana boshlaydi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan aqliy, axloqiy, estetik, mehnat va jismoniy tarbiyaning bir-biriga uzviy bog‘lanishi bola shaxsining har tomonlama kamolga yetishiga olib keladi. Bu ishda ushbu tarbiya turlari borasida qilinadigan ishlar dasturining to‘g‘ri belgilanishi, ushbu yoshdagi bolalarga o‘rgatiladigan musiqiy asarlar repertuarining to‘g‘ri tanlanishi muhim o‘rin tutadi.

Musiqqa mashg‘uloti o‘quv jarayoni bo‘lib, unda musiqiy bilim, ijro mahoratini oshirish, musiqiy dunyoqarashini kengaytirish, bolalarda musiqiy ijodkorlik qobiliyatlarini o‘stirish, musiqiy asarlar go‘zalligidan estetik zavq olish kabi murakkab psixologik jarayonlar amalga oshiriladi.

Musiqiy savodxonlik deganda faqatgina notalar, ularning yozilishi, o‘qilishi va sanalishi kabi nazariy tushunchalar emas, balki umuman musiqa olami, musiqiy asarlar turlari, janrlari, formalari, mualliflar

to'g'risidagi bilimlar jamlamasi tushuniladi. Lekin, bu bilimlar o'zagi nazariy bilimlar hisoblanadi. Shuning uchun ham musiqa mashg'ulotlarida olib boriladigan musiqiy faoliyat turlari bo'lmish musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqali ritmik harakatlar bajarish, cholg'u sozlari chalish kabilarga musiqa savodi ham qo'shib olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq "Bolajon" tayanch dasturida ham musiqa savodiga alohida band ajratilgan bo'lib, bu davrda, ya'ni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tovush, uning xususiyatlari, musiqiy tovushlar, tovushqator, asosiy va hosila pog'onalar nomlari, notalar yozilishi, nota yo'li va unga nota yozish tartibi, qo'shimcha chiziqlar, butun nota, uning yozilishi va sanalishi, yarim nota yozilishi va sanalishi kabi musiqa nazariyasi fanining kirish qismi bo'lgan oddiy va sodda mavzularni o'rganishlari nazarda tutilgan.

Bolalar musiqiy savodxonligini oshirishda maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan barcha musiqiy-ommaviy tadbirlarning ham o'ziga xos o'rni bor. Bular musiqa mashg'uloti, musiqali o'yinlar, musiqali sayrlar, tug'ilgan kun, ko'rik-tanlovlar, viktorinalar, maskaradlar, bayram ertaliklari va boshqalardir. Bunday tadbirlarda bolalar kuy-qo'shiqlar tinglaydilar, raqslar tomosha qiladilar yoki o'zlari ijro etadilar. Tinglash yoki ijro etish jarayonida ular musiqiy asarlarning xarakteri, tezligi, dinamikasi, ifoda xususiyatini o'rganadilar, mualliflari bilan tanishadilar. Bu esa bolalar musiqiy savodxonligini oshiruvchi asosiy omillardir.

Lekin, musiqiy savodxonlikni musiqa savodisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu sababli musiqa mashg'uloti jarayonida musiqa savodi uchun ham ma'lum, qisqa bo'lsa-da vaqt ajratiladi. Musiqa rahbari mashg'ulot mavzusiga mos holda nazariy mavzu tanlashi va bu nazariy mavzuning bolalar tomonidan yaxshi o'zlashtirilishi uchun turli ko'rgazmali va tarqatma materiallar, texnik vositalar, zamonaviy axborot texnologiyasi, noan'anaviy ish uslublaridan unumli va samarali ravishda foydalanishi lozim. Bolalar musiqiy savodxonligini o'stirishda musiqa rahbarining bilim darajasi, mashg'ulotni tashkil qilish uslubi va pedagogik mahorati hal qiluvchi rol o'ynaydi, ya'ni u mavzuga mos ravishda musiqaning nazariy masalalarini mashg'ulot jarayoniga ustalik bilan kiritib olishi, nazariy masalalar bilan shug'ullanishi jarayonida bolalar diqqati asosiy mavzudan chalg'ib ketmasligi lozim.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ma'naviy-axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashda "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"dan kelib chiqib quyidagi vazifalarni hal etish taqozo qilinadi:

- bolalar va kattalar orasidagi insoniylik munosabatlarni tarbiyalash (jamoatchilik orasida mavjud oddiy qoidalarni bajarish, xayrixohlik, rahmdillik, yaqinlariga g'amxo'rlik qilish va hokazo);

- jamoaviylik ruhida tarbiyalash, bolalarda o'zaro jamoatchilik munosabatlarini shakllantirish;

- tarbiyalanuvchilarda vatanga muhabbat hissini tarbiyalash, turli millat vakillariga hurmat va bag'rikenglik asosidagi munosabatni shakllantirish;

- bolalarda mehnatsevarlik, mehnatni kundalik ehtiyojga aylantirish hislarini tarbiyalash kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Shu tariqa, ma'naviy tarbiya jarayonini optimallashtirishning umumiy strategiyasi, tarbiyaning ilmiy asoslangan taktikasini qo'llashga imkon beradigan tarzda belgilanadi. Bunda dialektik birlik va qarama-qarshilikda ilmiylik va tushunarlik tamoyillari kabi tarbiya tamoyillari va metodlari qo'llaniladi: ko'rgazmalilik va mavhumlik; turli-tuman bolalar faoliyatini optimal uyg'unlashuvi; ma'naviy xulq to'g'risidagi tasavvurlar tizimini insoniy xulq tajribasi bilan birgalikda optimal yetkazib berish tamoyili.

3.2. O'yin – bolaning ijtimoiy moslashuv omili sifatida

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan o'yinda bolaning jismoniy, aqliy va shaxsiy sifatleri rivojlanishi, o'quv faoliyatiga tayyorlik shakllanishi va maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlash uchun sharoitlar yaratiladi.

Bolaning uch o'zaro bog'liq yo'nalishlari – hissiyotlari, tushunchasi va ijodiy-barkamollik bolaning tabiiy muhiti – o'yinga moslashadi, o'yin bola uchun bir vaqtda ham vaqtichog'lik hamda insonlar, predmetlar, tabiat olamini anglash usuli, shuningdek o'z fantaziyasini qo'llash shakli hisoblanadi.

O'yinning asosiy afzalligi uning faol va mustaqil faoliyat ekanligi hisoblanadi. Ta'lim va suhbatlarda emas, balki aynan o'yinda bolaning qobiliyatlari rivojlanadi va uning shaxsi shakllanadi!

O'yin bolada yaxshi kayfiyatni ta'minlaydi, uning hissiy tajribasini boyitadi, ko'rgazma-obrazli tafakkuri, tasavvuri, nutqini rivojlantiradi. Tasavvuri yaxshi rivojlangan bolalar yuqori intellektga ega bo'ladilar. Nostandart vaziyatlarda tez yo'l topadilar, yaxshi ta'lim oladilar.

O'yin – bolaning ijtimoiy rivojlanishining muhim shartidir. Unda bolalar kattalarning turli faoliyatlari bilan tanishadilar, boshqa insonlarning his-tuyg'ulari va holatlarini tushunish, ularga hamdard bo'lishni o'rganadilar, tengdosh va katta bolalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

O'yin yaxshi psixoterapevtik ta'sirga ega, chunki o'yindagi harakatlar orqali bolalar yig'ilib qolgan salbiy hissiyotlarini anglamagan holda va beixtiyor chiqarib yuboradilar. O'yin bolaga barchasiga qodirlik va erkinlik hissini beradi.

O'yinlarning asosiy maqsadi – kichik insonni rivojlantirish, undagi mavjud va namoyon bo'lgan xislatlarini korrektsiyalash, uni ijodiy tadqiqot xulqiga yo'naltirishdir. Bir tomondan, bolaga amal qilish uchun "ozuqa", boshqa tomondan – fantaziya va shaxsiy ijod uchun maydon taklif etiladi¹.

O'yin tufayli bolada barcha psixik jarayonlar, aqliy operatsiyalar, modellar va loyihalash qobiliyatlari rivojlanadi, matematik tushunchalar to'g'risidagi tasavvurlari shakllanadi, maktabga muvaffaqiyatli tayyorgarlik amalga oshiriladi.

O'yin jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Rang, shakl, o'lcham, hajm va h.k. tushunchalar bilan tanishuv.
2. Fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish.
3. Mantiqiy tafakkurni shakllantirish (taqqoslash, tasniflash, mavhumlashtirish, umumlashtirish operatsiyalarini egallash).
4. Obyektlardagi xususiyatlarni aniqlash, ularning nomini aytish, predmet va buyumlarning o'xshashlik va farqlarini tushuntirish ko'nikmalarini rivojlantirish.
5. Mustaqillik, qat'iyat, maqsadga erishishga intilishni tarbiyalash.
6. Tashabbus, ijodiy fantaziya, tasavvurni namoyon etish uchun sharoit yaratish, loyihalash va modellar hosil qilish.

¹ Джанпейсова Г.А. Деятельностный подход педагога к организации игровой деятельности – залог социальной успешности педагога // Гармонично развитое поколение – условие стабильного развития Республики Узбекистан. – Сб. научн.-мет. статей под общей ред. проф. Р.Х.Джураева. УзНИИПН, Ташкент, 2014. С.107-110.

7. Nutqiy faoliyat va kommunikativ ko'nikmalar bilan bog'liq psixik funksiyalarini mustahkamlash.

Zamonaviy, jadal rivojlanuvchi dunyo, universal kompyuterlashtirish jarayoni pedagoglarni bolalarning maktabgacha tayyorgarliklari mazmunini modernizatsiyalashga undamoqda. Bola ertangi maktab hayotiga dadil kirib borishi va unda muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashishi uchun, uni MTMdayoq kompyuter bilan tanishtirish va undan o'yinlar uchun foydalanish imkoniyatini ko'rsatish zarur.

Shu bilan birga, yoshga xos qiziqishlari va tarbiyaviy ahamiyatiga ko'ra o'yinlarni to'g'ri tanlash muhim. Faqat shundagina o'yinlar bolalarga donishmandlik, madaniyat va inson tajribasiga yo'lni ochadi.

Multimedia dasturlariga kiritilgan o'yin komponentlari bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularning bilish faoliyatlarini faollashtiradi, materialni o'zlashtirish jarayonini yaxshilaydi va obrazli tafakkurning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Kompyuter o'yinlari nafaqat intellektning, balki motorikaning rivojlanishiga ham yordam beradi. Bolalar kerakli klavishalarni barmoqlari bilan bosishni, "sichqoncha"ni boshqarishni o'rganadilar. Shu bilan birga, ularning diqqatlari jamlanadi, sabr-toqat yuzaga keladi, hayotdagi juda muhim ko'nikma: ortga, dastlabki nuqtaga qaytish, barchasini boshidan boshlash va zarur bo'lganda natijaga erishish uchun turli variantlar va harakat usullarini qo'llay bilish kabilar egallanadi.

Noan'anaviy rivojlantiruvchi kompyuter o'yinlaridan foydalanish tajribasi ko'rsatishicha, u bolaning aqliy va shaxsiy rivojlanishining samarali usullaridan biri hisoblanadi, bu bolalardagi "ta'limiy ahamiyatli" integral ko'rsatkichlarning shakllanganligini tashxis qilish natijalari bilan tasdiqlanadi¹.

Kichik yoshdagi bolalarni nutqiy muloqotga tayyorlash bo'yicha ota-onalarga tavsiyalar

Onalar – o'z farzandlarining birinchi va eng muhim ustozlaridirlar. Oila bolaga eng asosiy bo'lgan, boshqa hech bir ijtimoiy institut bera olmaydigan: shaxsiy aloqadorlik, qarindoshlar bilan birlik, bilim va tajribalarni beradi.

“Bolaga qancha vaqt ajratasiz?” - siz ota-onalar uchun anketalarda bu savolni uchratgan bo'lishingiz kerak. “Bolalar bilan ko'proq vaqt

¹ Развивающие игры с дидактическим материалом для детей дошкольного и младшего школьного возраста. / Под ред. Л.М.Шипициной. – СПб:Изд-во «Речь». – 2004. – 48 с.

birga bo'lish zarur", deya mashalat qiladilar pedagog-psixologlar. Ammo agar boladan u ota-onasi bilan dam olish kunlari qancha vaqt o'tkazganligini so'rasangiz, uning javobi aniq bo'lmaydi. Ammo bola ota-onasi bilan birgalikda nimalar qilganligini va unga bu qiziqarli bo'lganligi to'g'risida batafsil aytib bera oladi. Bolaga o'tkazilgan vaqtning miqdori emas, uning qanday o'tganligi muhimroq. Ba'zan bolaga uning siz bilan kuni bo'yi o'tkazgan vaqtidan ko'ra, 10 daqiqa ahamiyatliroq bo'lishi mumkin. Farzandlaringiz vaqtning bir qismini bir-birlari bilan, do'stlari bilan o'ynab, MTMda rasm chizish, plastilin bilan ishlash va hokazolar bilan o'tkazadilar. Lekin bulardan tashqari uning uchun siz bilan muloqotda bo'lish muhim hisoblanadi. Bolaning jismoniy va ruhiy tarbiyasi ilk bolalik vaqtidanoq boshlanadi. Barcha ko'nikma, malakalar oilada orttiriladi, shu jumladan to'g'ri nutq malakasi ham. Bolaning nutqi unga qarindosh va yaqin bo'lgan insonlar nutqi namunasida shakllanadi: ona, otasi, buvisi, buvasi, katta akalari va opalari. Bolaning tovush talaffuzi maxsus ta'sirsiz va kattalarning yordamisiz mustaqil rivojlanadi; bola o'zi asta-sekin to'g'ri talaffuzni o'rganadi degan noto'g'ri fikr mavjud. Haqiqatda bola nutqining shakllanishi jarayoniga aralashmaslik, deyarli doim rivojlanishdan ortda qolishga sabab bo'ladi. Nutq kamchiliklari, bolalikda mustahkamlanib qolib, keyingi yillarda katta qiyinchiliklar bilan bartaraf etiladi. Oqil oila doimo bolaning ilk yosh davridanoq, uning nutqining shakllanishiga ta'sir etishga harakat qiladi. U ilk yoshidanoq to'g'ri, aniq-ravon nutqni eshitishi va bu asosda o'zining nutqi shakllanishi muhimdir. Ota-onalar kattalarning nutqi bola uchun qanchalik muhim ekanligini va kichik bolalar bilan qanday gaplashishni bilishlari shartdir. Kattalar so'zlarni buzmay, har bir tovushni aniq talaffuz qilish, shoshmasdan, bo'g'inlar va so'zlarning oxirini tushirib qoldirmasdan, to'g'ri so'zlashishlari kerak. Nutq rivojlanishining ko'pincha sustlashishiga sabab bo'luvchi, bolalar tiliga moslashib so'zlashish o'rinli emas. Agar kattalar o'z nutqlarini kuzatmasalar, unda bolaning qulog'iga ko'pgina so'zlar buzilgan holda eshutiladi ("ovqat" o'rniga "oqat", "assalomu alaykum" o'rniga "salomaleykum"). Ayniqsa bola uchun notanish, yangi bo'lgan so'zlarni aniq talaffuz etish kerak. Qiz yoki o'g'lingizga bevosita murojaat qilishda, ularni javob berishga undaysiz, ular esa sizning nutqingizni diqqat bilan eshitish imkoniga ega bo'ladilar. Siz go'dakni so'zlayotgan insonga to'g'ri qarashga odatlantirishingiz kerak, bunda u kattalarning artikulyasiyasini oson qabul qiladi. Bolalarda ona tiliga qiziqish

uyg‘otish va nutqqa nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish uchun maqsadga yo‘naltirilgan ta‘lim zarur. Maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat o‘yin bo‘lganligi sababli, bolaning nutqini o‘yin orqali rivojlantirish zarur. O‘yin har bir bolaning hayotidir.

Ota-onalar uchun bolaning nutqiy va fonematik rivojlanishini ta‘minlovchi, uyda birgalikda o‘ynash uchun o‘yinlarning turli variantlari taklif etiladi.

Fonematik idrokni rivojlantirish uchun o‘yinlar. Fonematik idrok – bu nutq tovushlarini eshitish orqali farqlash. Fonematik eshitish aytilgan gapning mazmunini tushunishga imkon beradi. Chunki, so‘zdagi hatto bir harfni o‘zgartirib, biz umuman boshqa mazmunga ega bo‘lamiz: “kosa – qosa”, “chana – chala”, “dala – tala”.

Shakllangan fonematik idrok – tovushlarni, so‘zlarning bo‘g‘inlarini aniq talaffuz qilish (bola hatto barcha tovushlarni talaffuz qilish imkoniga ega bo‘lmasdan ham so‘z tuzilishini saqlab qoladi “kar-ti-na” – “ti-ti-ta”), tilning grammatik tuzilishi asosini egallash, yozish va o‘qishni muvaffaqiyatli egallash garovidir.

Taklif etilgan *fonematik eshitishni rivojlantirish uchun mashqlar tizimi* soddadan murakkabga tamoyili asosida tuzilgan. Bola qaysi bosqichda topshiriqlarni bajarishga qiyalayotganligini aniqlab, shu darajadan boshlab bolaning fonematik idroki malakalarini rivojlantirishni boshlang.

Boshlovchi fonematik eshitishni rivojlantiruvchi o‘yinlar ko‘rsatmalari berilgan eslatma materiallarni tarqatadi.

Ota-onalar uyda fonematik eshitishni rivojlantirishga e‘tibor berib, o‘z farzandlarining tovushning to‘g‘ri talaffuzini o‘zlashtirish, keyinchalik esa o‘qish va yozish jarayonini osonlashtiradilar. O‘yinlarning soddaga bolaga ona tilini mustaqil va mahsuldor egallashiga, qiyinchiliklarni bartaraf etish va nutq buzilishlarini ogohlantirishga imkon beradi. Agar nutq buzilishi yuz bergan bo‘lsa, fonematik eshitishni rivojlantirish uni bartaraf etishdagi birinchi qadam bo‘ladi.

Nutq nafasini rivojlantirish uchun o‘yinlar. Nutq tovushlarining hosil bo‘lishi manbasi bo‘g‘iz, xalqum, og‘iz yoki burun bo‘shlig‘i orqali o‘pkadan tashqariga chiqayotgan havo oqimi hisoblanadi. To‘g‘ri nutq nafasi me‘yoriy tovush hosil bo‘lishini ta‘minlaydi, nutq tovushi balandligini me‘yorida ta‘minlash, ravonlik nutq intonatsiyasi ifodaliligini saqlab, to‘xtashga rioya qilishga sharoit yaratadi. Bolada

nutq nafasini shakllantirishda, avvalo kuchli tekis og'izdan nafas chiqarishni shakllantirish zarur. Bunda bolani nafas chiqarish vaqtini nazorat qilishga, nafasni tejamli sarflashga o'rgatish kerak. Qo'shimcha ravishda bolada havo oqimini kerakli yo'nalishga qaratish qobiliyati rivojlanadi.

Og'izdan to'g'ri nafas chiqarish ko'rsatkichlari:

- nafas chiqarishdan avval, burun orqali kuchli nafas olish amalga oshiriladi – “ko'krakni to'ldirib nafas olamiz”;

- nafas chiqarish tekis amalga oshiriladi;

- nafas chiqarishda lablar nay ko'rinishiga keltiriladi, ularni siqmaslik, yonoqlarni shishirmaslik kerak;

- nafas chiqarishda havo og'iz orqali chiqariladi, havoning burun orqali chiqishiga yo'l qo'ymang (agar bola burun orqali havo chiqarsa, uning burnini ushlab turish mumkin, bunda u havo qanday chiqishini his qiladi);

- havo tugamagunga qadar nafas chiqarish kerak;

- qo'shiq kuylash yoki suhbat vaqtida tez-tez qisqa nafas olish yordamida havoni to'plab olish mumkin emas.

Nafas olishni rivojlantiradigan o'yinlarni o'tkazishda, nafas olish mashqlari bolani tez toliqtirishi, hatto bosh aylanishini keltirib chiqarishi mumkinligini unutmaslik kerak. SHuning uchun bunday o'yinlarni vaqt bo'yicha cheklash (qum soatlardan foydalanish mumkin) va boshqa mashqlar bilan almashtirib o'tkazish zarur.

Taklif etilgan o'yinlar va mashqlar bolani og'zi orqali kuchli yo'naltirilgan havo oqimini bir tekisda chiqarishga o'rgatishi mumkin. Ishtirokchilarga og'iz orqali tekis nafas chiqarishni rivojlantirishga ko'maklashuvchi o'yinlar va mashqlar bilan material tarqatiladi.

Artikulyatsion gimnastika. Muskullarni nima sababli mashq qildiramiz? Ular kuchli, chaqqon, harakatchan bo'lishi uchun. Tilni nima uchun mashq qildiramiz? Til – nutq organlarining asosiy muskuli. Uning uchun boshqa muskullar kabi gimnastika zarur hisoblanadi. Chunki nozik, maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni bajarish uchun til yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim. Talaffuzdagi kamchiliklar bolaning emotsional-psixik holatini charchatadi, unga rivojlanishi va tengdoshlari bilan muloqot qilishida halal beradi. Bolada bu muammo yuzaga kelmasligi uchun, artikulyasion gimnastika bilan imkon boricha erta shug'ullanishni boshlash kerak. 2-4 yoshdagi bolalarga artikulyasion gimnastika to'g'ri nutq talaffuzini tezroq egallashga yordam beradi. 5-6

yosh va undan katta bolalar artikulyasion gimnastika yordamida shakllanib bo'lgan tovush talaffuzi buzilishlarini bartaraf etishlari mumkin.

Dastlab artikulyasion gimnastikani oynaga qarab bajarish zarur. Bola o'zining artikulyasiya organlarini ko'rishi kerak. Ba'zi mashqlar birinchi martadan hatto sizda ham chiqmasa xafa bo'lmang. Ularni bola bilan birgalikda takrorlashga harakat qilib, unga: "Qara menda ham chiqmayapti, kel birga harakat qilib ko'ramiz" deya ayting. Sabrli, muloyim va xotirjam bo'ling va shunda hammasini uddalaysiz. Bola bilan har kuni 5-7 daqiqa shug'ullaning.

Biz sizga bola bilan doimiy shug'ullanish kerak bo'lgan artikulyasion mashqlarni ko'rib chiqishni taklif etamiz.

Ishtirokchilarga logoped tomonidan tayyorlangan "Ilk yoshdagi bolalar uchun artikulyatsion gimnastika" videorolik namoyish etiladi, bunda oyna oldida ota-onalar bilan birgalikda artikulyasion mashqlar bajariladi.

Bola har safar artikulyasion gimnastikani bajonidil bajarishi uchun, uni bola uchun qiziqarli, quvnoq "Quvnoq tilcha to'g'risida" ertagi shaklida o'tkazish mumkin. Har safar mashg'ulotni boshlashda unga yangi ertakni aytib berish hamda o'z ertaklarini o'ylab topish mumkin, bu zarur natijaga tezroq erishishga imkon beradi! ("Quvnoq tilcha to'g'risida" ertak variantlari bilan materiallar tarqatiladi).

Artikulyatsion gimnastika. "Quvnoq tilcha to'g'risida"gi ertak.

Katta inson artikulyatsion harakatlarni ko'rsatib ertak aytadi. Bola ularni takrorlaydi.

Tilcha uchun uy. Bor ekanda, yo'q ekan, bir tilcha bo'lgan ekan, juda ham ma'yus tilcha. U qaerdan ham xursand bo'lsinki, uning uyi yo'q bo'lsa? Tilchaning ko'chada yashashdan boshqa ilojisi yo'q edi, u yerda esa kuzda yomg'ir, qishda qor, yozda jazirama kunlar bo'ladi. Tilchaga qiyin edi, u ko'p shamollab qolardi va uzoq betob bo'lib yotardi. Ammo bir kuni Tilcha o'ziga uy topdi. Qanday? (*Og'iz*). Tilcha juda xursand bo'lib ketdi va uyini tartibga keltirishga kirishdi. Uy qal'a bo'lishi kerak, shuning uchun Tilcha ikki eshik o'rnatdi: birinchi eshik – lablar, ikkinchisi – tishlar. Tilchaning yangi uyida oynalari yo'q edi, ammo ajoyib devorlari bor edi. Ular puffaklar singari shishishi mumkin edi. Ular qanday nomlanadi? (*Yonoqlar*). Shifti esa qattiq edi va tanglay deb nomlanardi. Ba'zi noqulayliklarga qaramay Tilchaga yangi uyi juda ham yoqdi. Ammo u yer doim nam edi, hatto nam to'shakda uxlashga

to'g'ri kelardi, lekin u yer issiq va qulay edi, asosiysi – sovuq kira olmasdi.

Tilcha ta'mirlash ishlarini bajarmoqda. Doimiy namlik tufayli Tilcha tez-tez ta'mirlash ishlarini bajarishi kerak edi. Avvalo u uyini shamollatish uchun birinchi eshikni (*lablar*), so'ngra ikkinchi eshikni (*tishlar*) ochar edi. Shundan so'ng ularni tashqi va ichki tomonidan artib chiqardi [Bola tili bilan mos ravishdagi harakatlarni bajaradi]. So'ngra Tilcha katta mo'yqalamni olib ship-tanglayni bo'yar edi. Yaxshilab bo'yash kerak edi. Buning uchun mo'yqalamni mahkam bosish kerak edi [Og'izni katta ochib, bola tilini 5-10 marta oldinga-orqaga, bir tomondan boshqa tomonga tanglayi bo'ylab harakatlantiradi ("Bo'yoqchi" mashqi). Bu ishni bajarib bo'lib, Tilcha devorlarga oboylar yopishtirishga kirishardi. Bu ishni u juda puxta, bir xoshiya ketidan ikkinchi xoshiyani yopishtirib bajarardi [Bola ikki chakkasining ichki tomoni bo'ylab yuqoridan pastga tomon tili bilan harakatlarni bajaradi]. Ta'mirlashdan so'ng Tilcha pollarni yuvar edi [Til uchi bilan til ostida va oldingi tishlar yonida bir tomondan ikkinchi tomonga harakatlantiradi; og'iz ochiq holatda]. Tilcha shuningdek, eshik-tishlarni ham ta'mirlardi [Lablar jilmaygan holda ochilgan, mustahkam birlashtirilgan yuqori va pastki tishlar ko'rinadi ("Devor" mashqi).]

Tilchani tungi. Har kun tongda Tilcha tortilib, mashqlarni bajarardi, tishlarini tashqi va ichki tomonidan yaxshilab yuwardi, og'izini chayardi, yuvinardi [Bola og'zini suv bilan chaygandek kabi tili bilan mos harakatlarni bajaradi]. So'ngra Tilcha ikkala eshiklarini ochib, tashqariga chiqardi [lablar, jag', tilning harakatlari], chapga, o'ngga, yuqoriga – quyosh chiqdimi, pastga – yo'lda botqoqlar yo'qligiga boqardi va ertalabki yugurish uchun uyidan chiqardi [Bola tili bilan ko'rsatilgan harakatlarni bajaradi]. Tilcha uyi atrofiga bir necha marotaba aylanadi, oldin bir tarafga, so'ngra ikkinchi tarafga [Tilning aylanma harakatlari, og'iz katta ochiladi]. Bir necha nafas mashqlarini bajarib [bola burni bilan nafas oladi, og'zi bilan nafas chiqaradi], tilcha uyiga qaytar edi, avval bir eshikni (*tishlar*), keyin ikkinchisini (*lablar*) yopib va odatiy uy ishlarini bilan shug'ullanishni boshlardi.

Fonematik eshitishni rivojlantirish uchun mashqlar tizimi

Tizim soddadan murakkab tomon tamoyili asosida qurilgan. Dastlab bola qaysi bosqichda topshiriqlarni bajara olmayotganligini aniqlash zarur, shundan so'nggina mazkur darajadagi fonematik idrokni rivojlantirishni boshlash kerak.

Birinchi bosqich – nutqqa oid bo‘lmagan tovushlarni tanish.
Nutqqa oid bo‘lmagan tovushlarni farqlash - fonematik eshitishni rivojlantirishning asosi hisoblanadi.

“Nima jarangladi, top” o‘yini. Bola bilan birgalikda diqqat bilan suv shovqini, gazeta shitirlashi, qoshiq jarangi, eshik g‘ichirlashi va boshqa maishiy tovushlarni tinglash. Bola ko‘zlarini yumib nimaning sadosi eshitilganligini topishini taklif etish.

“Shovqinli qopchalar” o‘yini. Bola bilan birgalikda qopchalarga yoki qutilarga don, tugmachalar, skrepkalar va h.k.larni solish mumkin. Bola silkitilgan qopchanning sadosi bo‘yicha ichida nima borligini topishi kerak.

“Sehrli tayoqcha” o‘yini. Ixtiyoriy qalam yoki tayoqni olib, u bilan uydagi turli predmetlarni taqillatib chiqish. Sehrli tayoqcha guldonni, stol, devorni, idishni.... jaranglatadi. So‘ngra vazifa murakkablashadi – bola ko‘zlari yumilgan holda qaysi predmet jaranglaganini topadi.

“Ko‘z bog‘lash” o‘yini. Bolaning ko‘zlari bog‘lanadi va u jaranglayotgan qo‘ng‘iroq, xushtak tomonga harakatlanadi.

“Chapaklar” o‘yini. Bola chapaklarning ritmik tasvirini qaytaradi. Masalan – ikki chapak, to‘xtash, bir chapak, to‘xtash, ikki chapak. Murakkablashtirilgan variantida bola ritmni ko‘zlari bog‘langan holda takrorlaydi.

“Kimning ovozi top” o‘yini

O‘yin maqsadi: ota-onalarga bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yin usullarini ko‘rsatish.

24 ta hayvonlar tasviri va ovozli uskunadan tashkil topgan stol o‘yiniidan foydalaniladi. Katta inson ovozli uskuna tugmasiga bosadi, bola sirli hayvonlardan birining ovozini tinglab, kimning ovozi yangraganligini topadi.

Ikkinchi bosqich – tovushlarni tembri, kuchi va balandligi bo‘yicha farqlash

“O‘z ovozingni top” o‘yini. Bolaning yaqin insonlari va o‘zining ovozi yozib olinadi. Kim gapirayotganligini topishi so‘raladi.

“Baland – past” o‘yini. Katta inson bola bilan baland ovozda va past ovozda so‘zlar aytganida, uning belgilangan harakatlar qilishiga kelishib oladi. O‘yinga o‘xshagan yana bir varianti mavjud “Uzoq – yaqin”. Katta inson so‘zni baland aytadi, bola yaqin deb javob beradi. Katta inson so‘zni past aytadi, bola uzoq deb javob beradi.

“Uch ayiq” o‘yini. Bola katta inson ertakning qaysi qahramonining so‘zlarini aytganligini topadi. Murakkabroq varianti – bolaning o‘zi ovoz balandligini o‘zgartirgan holda uch ayiq o‘rniga so‘zlaydi.

Uchinchi bosqich – aytilishi bo‘yicha o‘xshash so‘zlarni farqlash

“Tingla va tanla” o‘yini. Bolaning oldiga aytilishi bo‘yicha o‘xshash so‘zlar berilgan suratlar qo‘yiladi (“tom”, “som”, “lom”, “xom”). Katta inson predmetni aytadi, bola mos bo‘lgan suratni ko‘rsatadi.

“To‘g‘ri – noto‘g‘ri” o‘yini. Katta inson bolaga tasvirni ko‘rsatadi va predmet nomidagi birinchi harfni almashtirib aytadi (“farta”, “xarta”, “sarta”, “parta”, “porta”, “barta”). Bolaning vazifasi – to‘g‘ri talaffuz variantini eshitganida chapak chalish.

To‘rtinchi bosqich – bo‘g‘inlarni farqlash

“Qarsaklar” o‘yini. Katta inson bolaga qisqa va uzun so‘zlar bo‘lishini tushuntiradi va bo‘g‘inlarni ifodali ajratib, ularni aytadi. Bola va katta inson birgalikda bo‘g‘inlarda chapak chalib, so‘zlarni takrorlaydilar (“lo-la”, “ma-shi-na”, “ba-le-ri-na”). Murakkab varianti – bolaning o‘zi so‘zdagi bo‘g‘inlar sonini chapaklar orqali ajratishini taklif etish.

“Nima ortiqcha?” o‘yini. Katta inson bo‘g‘inlar qatorini aytadi “pa- pa-pa-ba-pa”, “fa-fa-va-fa-fa”...Bola ortiqcha (boshqa) bo‘g‘inni eshitganida chapak chalishi kerak.

Beshinchi bosqich – tovushlarni farqlash. Bu bosqichda bolaga so‘zlar tovushlardan tashkil topishi tushuntiriladi. Tovushlar o‘yini o‘ynaladi. Chivin uchadi – “zzzz”, shamol esadi – “ssss”, qo‘ng‘iz uchadi – “jjjj”, yo‘lbars irillaydi – “rrrr”...

Katta inson tovush chiqaradi, bola kim (nima)ning tovushi ekanligini topadi.

“Chapak chalamiz” o‘yini. Katta inson tovushlar qatorini talaffuz qiladi, bola esa berilgan tovush aytilganida chapak chaladi.

Oltinchi bosqich – analiz va sintez malakalarini egallash

“Nechta tovush?” o‘yini. Katta inson bir, ikki, uch tovushni aytadi, bola esa tinglab ularning sonini aniqlaydi.

“Chapak chalamiz” o‘yini. Katta inson so‘zlar qatorini aytadi, bola esa berilgan tovush bilan boshlangan so‘zni eshitganida chapak chalishi kerak. Murakkab varianti – berilgan tovush bilan tugagan yoki uning o‘rtasida kelgan so‘zlarga chapak chalish.

“So‘zni top” o‘yini. Bolaga tashlab ketilgan tovushli so‘zlarni topish taklif etiladi. Masalan, so‘zdan [l] tovushi qochib ketdi (.ampa, gu., bo.a, kapa.ak).

Nutq nafasini rivojlantirish uchun o‘yinlar va mashqlar

Taklif etilayotgan o‘yinlar va mashqlar uzoq uzluksiz nutqli nafas chiqarishni rivojlantirishga ko‘maklashadi, lab muskullarini faollashtiradi.

“Kapalak, uch!” o‘yini. O‘yin boshlanishidan avval 2-3 ta qog‘ozdan yasalgan kapalaklarga 20-40 sm uzunlikdagi iplar bog‘lanadi. Iplar bir-biridan bir qancha masofada arqonchaga bog‘lanadi. Arqonchani kapalaklar bolaning yuzi darajasida osilib turadigan tarzda tortish kerak.

Katta inson bolaga kapalaklarni ko‘rsatadi va ular bilan o‘ynashni taklif etadi:

- Qara, qanday chiroyli, rang-barang kapalaklar! Ular ucha oladilarmi, hozir tekshirib ko‘ramiz. – Katta inson kapalaklarga qarab puflaydi. – Qara uchdilar! Xuddi jonlidek! Endi sen puflab ko‘rchi. Qaysi kapalak uzoqroq uchadi?

Bola kapalaklar qarshisiga turadi va ularga qarab puflaydi. Bola to‘g‘ri turishi, nafas chiqarishda elkalarini ko‘tarmasligi, havoni to‘ldirib olmasdan, yonoqlarini shishirmasdan, lablarini bir oz oldinga chiqarib, bir nafas chiqarishda puflashini nazorat qilish lozim.

“Charxpalak” o‘yini. O‘yin boshlanishidan avval charxpalak-o‘yinchog‘i tayyorlanadi, uni mustaqil ravishda qog‘oz va yog‘och tayoqcha yordamida yasash mumkin. Katta inson bolaga charxpalakni ko‘rsatadi va unga mustaqil ravishda puflashni taklif etadi.

- Kel, shamol hosil qilamiz – charxpalakka puflaymiz. Qara qanday aylanib ketdi! Yana kuchliroq pufla – charxpalak tezroq aylanadi. Bosh aylanib qolmasligi uchun, 10 soniyadan oshmagan holda tanaffuslar bilan puflash kerak.

Izoh. Ko‘chada shamol esishidan uning qayday aylanishini namoyish eting.

“Qalam aylan!” mashqi. Bola stol atrofida o‘tiradi. Stol ustiga, boladan 20 sm masofada silliq yoki g‘adir-budir yuzaga qalam qo‘ying. Avval katta inson qalam stolning qarama-qarshi tomoniga aylanib borishi uchun qanday kuch bilan puflash kerakligini ko‘rsatib beradi.

O‘yinning ikkinchi ishtirokchisi uni stolning qarama-qarshi

tomonida ushlab oladi. Mashqning boshqa varianti: katta inson va bola qarama-qarshi o'tirib, qalamga puflash orqali, uni stolni bir tomonidan ikkinchi tomoniga, bir-birlariga irg'itadilar.

"Kema suz!" mashqi. Baland bo'lmagan stolda suv solingan tog'arani qo'ying, uning ichiga qog'ozdan yasalgan kemani qo'ying. Katta inson kemaga qarab puflaydi, so'ngra bolaning puflashini taklif etadi:

- Tasavvur qil, bu dengiz. Kel, kemani suzishga jo'natamiz. Qara, qanday kuchli shamol! Bizning kema qanday tez suzib ketdi. Endi sen puflab ko'rchi... Barakalla!

Bolaga kemada bir shahardan boshqasiga suzishni taklif etib, shaharlarni tog'ora chetlarida belgilab, o'yinni murakkablashtirish mumkin. Bu holatda og'izdan nafas chiqarishdagi havo oqimi nafaqat kuchli bo'lishi, balki yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Izoh. Mashq bilan tanishishda plastmassadan yasalgan kemadan foydalangan ma'qul, chunki qog'ozdan yasalganlari tez xo'l bo'lib, cho'kib ketadi.

"Patlar uching!" mashqi. Patni yuqoriga irg'iting va tushib ketishiga yo'l qo'ymay, unga qarab puflang. So'ngra bolaning puflashini taklif qiling. Uning e'tiborini havo oqimini pastdan yuqoriga tomon patga yo'naltirib, kuchli puflash kerakligiga qarating.

"Sovunli puffaklar" mashqi. Avval katta inson puffaklarni puflaydi, bola esa kuzatadi va ularni tutib oladi. So'ngra bolaga mustaqil ravishda puffaklarni puflashni taklif qiling. Bunda bu mashqni ko'p takrorlash kichik bolalar uchun qiyin vazifa ekanligini nazarda tutish kerak. Bolaga ko'maklashishga harakat qiling – bola sinab ko'rishi va tanlashi uchun turli ramkalar va xar xil diametrli naychalarni toping (ichimlik uchun, qalin qog'ozdan, tagi kesilgan plastik butilka), bu orqali natijaga erishish oson bo'ladi.

Sovun puffaklari uchun suyuqlikni mustaqil ravishda tayyorlash mumkin: suvga ozroq idish yuvish uchun suyuqlik va shakar qo'shiladi. Bolaning xavfsizligini nazorat qilishni unutmang – suyuqlikni tatib ko'rishi va ichishiga yo'l qo'ymang.

"Xushtaklar" mashqi. Bolalarning turli qushlar va hayvonlar ko'rinishidagi yog'och, yelim, sopol xushtaklari kerak bo'ladi. Katta inson bolaga murojaat etadi:

- Qara, sening xushtak-o'yinchog'ing qanday chiroyli! Kel, uni puflab ko'ramiz.

Kichik ma'ruzalar

Ba'zi MTMLlarda ota-onalar uchun ma'ruza xonalari tashkil etilgan bo'lib, ularda ota-onalarni qiziqtiruvchi turli mavzulardagi mashg'ulotlar yoki suhbatlar (asosan onalar uchun) o'tkaziladi. Suhbatlar kichik guruhlarda yoki individual ravishda o'tkazilishi mumkin. Quyida kam vaqt talab etadigan (5-10 daqiqa) ma'ruzalar bo'laklari keltirilgan.

Bolalar va televideniye. Nutqning shakllanishi bosqichida bola uchun uning atrofidagi katta insonlar bilan yaxshi emotsional muloqot muhim hisoblanadi.

Har kuni teleko'rsatuvlarni ko'p soatlab tamosha qilish va bolalardagi nutq rivojlanishining ortda qolishi bir-biri bilan bevosita bog'liqdir. Ularda diqqatni jamlash, nutq rivojlanishining ortda qolishi muammolari kuzatiladi, ularning lug'at boyliklari juda ozdir. Birinchi qarashda, mazkur ma'lumotlar taajjubli tuyuladi – chunki bolalar televizor ekranidan doim inson nutqini eshitadilar. Shu bilan birga bolalar miyasi shunday tuzilganki, bola texnik vositalar yordamida o'rgana olmaydi. Bolalarga to'laqonli rivojlanishlari uchun jonli muloqot zarur, bunda nafaqat eshitish organlari, balki go'dakning his-tuyg'ulari va fikrlarini ham ishga tushiradi. Olimlar televideniye bolaning nutqiga salbiy ta'sir etishining birinchi sababi, bunda ota-onalar o'z farzandlari bilan muloqotdan chalg'iydilar deb hisoblaydilar. Uyda qancha ko'p vaqt televizor ishlasa, ona va ota bolaga shunchalik kam e'tibor qaratadilar. Natijada, bolalar barcha psixik jarayonlar, ayniqsa nutq rivojlanishi uchun muhim hisoblangan, kichik yosh davridanoq muloqot yetishmasligini his qiladilar.

Bolalarga ota-onalarning baholari. Ota-onalarda bolaga nisbatan shakllangan munosabatlari, uning "Men" obrazi va o'ziga bo'lgan munosabatining rivojlanishiga ta'sir etadi. Bu munosabatni ota-onalar bolaga nisbatan bevosita so'z orqali, yoki bilvosita – boladan belgilangan sifat va xususiyatlarni talab etuvchi xulq bilan ko'rsatadilar. Ular buni ongli ravishda tarbiyaviy maqsadlarga yoki anglanmagan holda amalga oshiradilar.

Ota-onalar oilaga psixologik yordam maslahat markaziga murojaat etadigan shikoyat va muammolarining tahlili mazkur xususiyatlarni aniqlashga imkon berdi:

1) bolaning irodaviy sifatlari, uning o'z-o'zini tashkil etish va maqsadga intilganligi;

2) tartiblilik, bu ko‘pincha ota-onalar tomonidan aytganlarini bajarish, ota-onaga bo‘ysunish kabi tushuniladi;

3) ma‘naviy sifatlar – mehr-shavqat, haqgo‘ylik;

4) qiziqishlari, avvalo – o‘qishga;

5) qobiliyatlar – aql, xotira.

Bolaga singdiriladigan obraz va o‘z-o‘zini baholash ijobiy bo‘lishi (bolaga u mas‘uliyatli ekanligi, mehribonligi, aqlliligi, qobiliyatli ekanligi singdiriladi), ham salbiy bo‘lishi mumkin (qo‘polligi, qobiliyatsizligi):

“U hamma narsaga e‘tiborsiz munosabatda bo‘ladi”.

“U sayrdan kelganida, uning ko‘rinishiga qarab, barcha onalar uni qo‘llari bilan ko‘rsatib, bunday bolalar bilan o‘ynash mumkin emas deyдилar, degan xayolga boraman”.

“U judayam sekin harakat qiladiki, doim turtki berib turish kerak”.

“Mushtlashishni, o‘zini himoya qilishni, o‘z manfaatlarini himoyalashni bilmaydi”.

“Men uning har bir qadamini tekshiraman, bir dunyo shikoyatlarini tinglayman va unga to‘g‘ri fikrlarni singdirishni boshlayman”.

“U bilan barcha narsa to‘g‘risida suhbatlashish mumkin, u hamma narsani tushunadi”.

“O‘z yoshiga nisbatan u juda kuchli va mustahkam.... velosiped uchishda barchasini otasi bilan teng bajardi”.

Bolaning o‘z-o‘zini anglashida o‘z ta‘sirini ko‘rsatadigan ota-onalarning fikrlari va baholashlari, bolaning ichki o‘z-o‘zini anglashini belgilay boshlaydi. Bola bu fikrlarni qabul qila boshlaydi (ongli yoki ongsiz ravishda), yoki ularga qarshi kurashishni boshlaydi.

Qabul qiluvchi, ya‘ni ota-onalarning bolaga nisbatan e‘tiborli, mehrli, hurmatga asoslangan xulqlari, uning o‘zini qabul qilishiga ko‘maklashadi. Rad etuvchi (bemehr, e‘tiborsiz, hurmatsiz) xulq uning o‘z-o‘zini qabul qilmasligiga, o‘zining kam qadrililigi va keraksizligi to‘g‘risida qayg‘urishiga sabab bo‘ladi.

Bola qaysar, kamgap, qo‘pol bo‘lib qoldimi?

Ehtimol farzandingiz 3 yosh inqirozi davrini boshdan kechirayotgandir.

Mazkur inqiroz nimalarda namoyon bo‘ladi?

Salbiylik. Bir insonning boshqa insonga munosabati bilan bog‘liq bo‘lgan salbiy ta‘sirilanishi. Bola kattalarning talablariga bo‘ysunishdan

bosh tortadi. Ammo salbiylikni quloq solmaslik bilan adashtirmaslik lozim.

O'jarlik. O'jarlik va qat'iyat – turli sifatlardir. Birinchisi, bola o'z qarorini talab qilishidan iborat. Shaxs o'z talablarini qo'yadi va u bilan hisoblashishlarini istaydi.

Qaysarlik. Bu uydagi mavjud tartiblarga qarshi chiqishdir.

O'zboshimchalik. Bola biror ishni o'zi qilishni istaydi. Uning xulqi qisman birinchi yosh davridagi inqiroziga o'xshaydi, ammo unda go'dak jismoniy mustaqillikka intiladi, 3 yoshlikda esa murakkabroq – shaxsiy fikri va niyatlaridagi mustaqillikka intiladi.

Kattalarni qadrlamaslik. Ko'pgina ota-onalar, ona o'z farzandidan “axmoq” so'zini ilk bor eshitganidagi oilaning hayratini ta'riflaydilar. Sifatlarini go'dak oilaviy ichki muloqot xususiyatlaridan tanlab oladi.

Norozilik-isyon. Kattalar bilan tez-tez janjallashish, xulq-atvor norozilik tusiga kirganida namoyon bo'ladi.

Muvaffaqiyat tufayli faxrlanish. Go'dak o'z ishlari va harakatlariga sezgir bo'lib qoladi, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz harakatlari uchun chuqur qayg'uradi. O'zini amaliy ishlardagi natijalarga mos ravishda baholaydi.

Bola shikoyat qilsa nima qilish kerak?

1. Shikoyatga javob qaytarishga shoshilmang, olingan ma'lumotni tushunib yeting. Aks holda kichik tovlamachi sizdan o'z maqsadlariga erishish quroli sifatida foydalanadi. Kattaning darhol aralashuvini talab etuvchi holatlar bundan istisno hisoblanadi.

2. Agar sizning farzandingiz shikoyatchi sifatida tanilib qolgan bo'lsa, o'zingizni kuzating – siz atrofdagilarga hayotingiz, turmush o'rtog'ingiz, farzandingiz xulqi to'g'risida haddan ortiq shikoyat qilmayapsizmi? Balki u sizdan namuna olayotgandir, xolos.

3. Agar bola o'z-o'zini tasdiqlash uchun shikoyat qilayotgan bo'lsa. Undan so'rang: “Sen buni menga nima sababli aytayapsan?”. Bir necha to'xtatuvchi savollar, ma'lumotga qiziqishning yo'qligi kichik shikoyatchiga g'alaba qozonishiga imkon bermaydi.

4. Balki farzandingiz uchun uni tinglashlari va hamdardlik bildirishlari yetarlidir – u qasd olishni emas, balki sizning ishtirokingizni istayotgandir.

O'z farzandingizga e'tiborliroq bo'ling – bu har qanday vaziyatda yordam berishi mumkin bo'lgan universal maslahatdir!

XULOSA

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirish pedagogik tizimini joriy etish MTMning quyidagi sohalarida innovatsion imkoniyatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi:

moddiy-texnik resurslarni ta'minlash: tarbiya, ta'lim va muloqot zamonaviy texnologiyalarini amalga oshirishga, novator pedagoglarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini ta'minlashga imkon beruvchi moliyaviy-iqtisodiy va moddiy-texnik, kadrlar sharoitlarini yaratish;

ma'muriy va pedagog xodimlarning shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish: ma'muriyat va pedagoglar jamoasi yetakchilarida samarali ishlash va ta'lim, tarbiyaning haqiqiy maqsadlariga erishish, innovatsion pedagogik faoliyatning hissiy-ijodiy va metodik uslublarini shakllantirish maqsadidagi amaliy seminarlar tashkil etishga munosabatlarini shakllantirish;

MTMning tashkilot sifatidagi imkoniyatlarini rivojlantirish: oila bilan hamkorlikning turli bosqichlarida (bolaning MTMga qatnashni boshlashidan avval, qatnashish vaqtida, bitirganidan so'ng) MTMning asosiy va qo'shimcha ta'limiy xizmatlariga bolalar va ota-onalar ehtiyojlari monitoringi metodikalarini ishlab chiqish; muassasaning o'zi joylashgan hududdagi ijtimoiy-madaniy va ta'limiy markaz sifatidagi faoliyati;

atrofdagi ijtimoiy muhitning innovatsionligi: tuman, shahar yetakchi mutaxassislari bilan umuman pedagogik innovatsiyalar va xususan ta'lim texnologiyalari bo'yicha, boshqa muassasalar bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish, innovatsion tajribani rivojlantirish va tarqatish, uzluksiz ta'lim tizimi, MTM – Maktab tizimida uning mazmunining uzluksizligini shakllantirish bo'yicha kunduzgi-sirtqi maslahat tizimini shakllantirish.

Mazkur sharoitlarni amalga oshirish har bir bolalar muassasalarining innovatsion izlanish va ijodiy ishlash yondashuviga o'tishini ta'minlaydi. Bu vaqtda pedagogik novatsiyalar va innovatsiyalar (novatsiyalarni takomillashtirish va ularni tanlash jarayonini optimallashtirishni anglatuvchi) shakllanadi va hayotga tatbiq etiladi. Bu muassasada pedagogik faoliyatning eksperimental xarakterini, ilmiy-uslubiy kengashlarga jalb etilish, ilmiy tadqiqot, nazariya va

amaliyotni birlashtirish hamda quyidagi **tamoyillarni** amaliyotda amalga oshirishni talab etadi.

yaxlitlik va ilmiylik, tashkilot xodimlarini va innovatsion jarayonlarni rivojlantirishni boshqarish nazariyasini qo'llash yordamida;

moslashtirish, optimallashtirish va majmuaviylik, bu innovatsion menejment metodlari, innovatsion MTM xodimlarini boshqarish va yangiliklarni boshqarish metodlarining optimal uyg'unligini nazarda tutadi;

o'qitish va ta'limning, hamkorlik pedagogikasining ijtimoiy yo'nalganligini ta'minlash.

Mazkur strategiya MTM jamoasi bilan quyidagi *istiqbolli ish yo'nalishlari* orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. "Bolajon" dasturining konseptual asoslarini o'rganish va badiiy-estetik, ijtimoiy-axloqiy hamda umumiy intellektual ish yo'nalishlarining o'zaro aloqadorligi bo'yicha ish mazmuni, shakllari va usullari tahlili.

2. Yangi pedagogik texnologiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yaratish. Ta'limiy dastur va texnologiyalarni o'rganish va qisman amalga oshirish.

3. Maktabgacha yosh davridagi bolalarni badiiy tarbiyalash ilg'or pedagogik tajribalarini umumlashtirish uchun sharoitlar yaratish:

pedagoglarni malaka oshirish kurslarida va MTMda amaliy seminarlarda quyidagi mavzular bo'yicha o'qitish: "Bola bilan estetik muloqotni tashkil etish, uning rivojlanishi va tarbiyasiga insonparvar shaxsiy-faoliyatli yondashuv", "Estetik talablarga mos ravishda MTMda predmetli-rivojlantiruvchi va predmetli-fazoviy muhitni yaratish", "Maktabgacha ta'lim: bugun va ertaga".

4. MTM pedagogik jamoasining shaxsiy innovatsion muhitini rivojlantirish va h.k.

MAKTABGACHA TA'LIMGA OID ASOSIY TUSHUNCHALARNING IZOHLI LUG'ATI

Metod 1-2-3: metodning mohiyati shundan iboratki, ota-ona vaziyat nazoratini yo'qotib jahli chiqqan hollarda, bolani jazolash yoki baqirish o'rniga ovozini chiqarib, sovuqqonlik bilan sanaydi: "Bir" bola salbiy hulqida davom etadi, "Ikki" bola davom etadi, "Uch" sanoq 3 yoki beshgacha davom etishi mumkin.

Agar bola baribir quloq solmasa, ota-ona jazolashni qo'llashi mumkin. Jazolashning mohiyati, bolani kattaning e'tiboridan mahrum qilish + yolg'izlik, do'stlari bilan muloqotni ta'qiqlash. Hammasi vaziyatga bog'liq turlicha hal etiladi. Insonning shaxsiy muhitini hurmatlash lozim. juda yaqin borish, tegajog'lik qilish, tajovuz ko'rsatish mumkin emas. Muloyim munosabat talab etiladi. Kanadaliklar sabrlik va xotirjamlik bilan ajralib turadilar.

Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqilligining, o'zini-o'zi nazorat qilishga, hamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi.

Bilim – kishilarning tabiat va jamiyat xodisalari haqida xosil qilgan ma'lumotlari, voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va hodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa bunday ishonch bilim hisoblanadi

Bolalarni bilimlarini sinovchi mashg'ulotlar – ushbu mashg'ulotlarni o'tkazishdan maqsad, tarbiyachi dasturda belgilangan bilim va malakalarini egallash darajasini bilib oladi va keyingi ishlari davomida ularni inobatga oladi.

Bolalarni maktabga tayyorlashning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabga, o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirib borishdan iboratdir.

Bolalarni maktabga tayyorlashning asosiy vazifalari esa: bolalarni jismoniy, aqliy, ma'naviy jihatdan kamol toptirish ularning sog'lomligini muxofaza qilish; bolalarning ijodkorlik, mustaqillik, erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun, shart-sharoitlar yaratish vazifalarini qo'yadi.

Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni

oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish "Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash" tayanch dasturi asosida amalga oshiriladi.

Bolani maktabga tayyorlashning yo'nalishlari. Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra "Maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- jismoniy,
- shaxsiy (ruxiy),
- aqliy
- maxsus tayyorgarlik.

Direktiv hujjat bu – yo'l-yo'riq, ko'rsatma, ya'ni yuqori bo'limlar tomonidan quyi bo'limlarga yoki rahbarning o'z xodimlariga bergan ko'rsatma, yo'l-yo'riqlariga aytiladi.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Joriy rejalashtirish. Bu har yili amalga oshiriladigan moliyaviy xo'jalik ishlaridir. Maktabgacha ta'lim muassasalari va yuqori bo'limlarning munosabati, reja, boshqarish, Davlat korxonasi birlashmasi to'g'risidagi Xalq ta'limida xo'jalik mexanizmining asosiy qoidalari doirasidagi qonunning ayrim qoidalariga rioya qilish asosida ish yuritadi.

Indikator – bolaning ko'z bilan ko'rsa va o'lchansa bo'ladigan ko'nikma va malakalari ko'rsatkichi. Har bir talab tarkibiga kiruvchi bu komponent, mazkur talabni egallashi uchun bola nimalar qilishni bilishi kerakligini ko'rsatadi. Har bir talab bir nechta ko'rsatkichlarni o'z ichiga olishi mumkin

Istiqbol rejada 10 yoki 5 yillarga mo'ljallanadi. Bu xalq ta'limi moliyaviy ekonomiya bo'limlarda va uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarda aks etadi.

Qobiliyat – bu shaxs faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga keladigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatidir.

Kompleks mashg'ulotlar – bu mashg'ulot bolalar bog'chasi tajribasida keng tarqalgan bo'lib, bunday mashg'ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi.

Kuzatish atrof olam predmetlari va xodisalarini maqsadga muvofiq rejali idrok etishdir. Kuzatish murakkab bilim faoliyati bo'lib unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi. Barqaror diqqat talab etiladi. Kuzatilayotgan xodisani tushuntirishda bolaning tajribasi, bilimi va malakalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tabiatni bolalar bilan birgalikda kuzatishni tashkil etar ekan, tarbiyachi bir qator vazifalarni xal etadi: bolalarda tabiat haqida bilimni shakllantiradi. Kuzatishni o'rgatadi, kuzatuvchanlikni o'stiradi, estetik jihatdan tarbiyalaydi.

Ko'nikma – insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko'nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko'nikma faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda harakatni muvaffaqiyatli bajarish usullaridir. U hamisha bilimlarga asoslanadi, mahorat (malaka)ning negizi hisoblanadi. Ko'nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy ko'nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko'nikmalar bilim olishga, uni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ko'nikmalar bilim bilan adashtirmaslik lozim, chunki bilimlar voqelik to'g'ri aks ettirilgan hukm (mulohaza)larda ifodalanadi. Ko'nikmalar esa ko'proq aqliy va jismoniy harakatlarda mujassamlashadi

Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivojlanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitlariga va o'quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi.

Umumiy tayyorgarlik bola maktab ta'limiga o'tish davriga kelib erishadigan psixik rivojlanishning muayyan darajasi bilan ifodalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi "Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari" orqali nazorat qilinadi. Davlat talablaridan maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib u davlat xujjati sifatida e'tirof etiladi.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim bo'yicha asosiy ish hujjatlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Konsepsiya.
3. Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.
5. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi.
6. Maktabgacha ta'lim sohasida chiqarilgan farmon buyruq, farmoyishlar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar, direktiv va me'yoriy hujjatlardir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish 6-7 yoshdagi bolalarni maktabga to'la-to'kis tayyorlashga, maktabda beriladigan ta'limni mukammal o'zlashtirishga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Bolalarni jismonan rivojlantirish.
2. Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish.
3. Bolalarni ma'nan rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim muassasasi – davlat tomonidan belgilab berilgan huquqiy me'yoriy hujjatlar va maktabgacha ta'lim muassasasi qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularga qarab turish va ularni parvarishlash hamda sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan ta'lim muassasalari.

O'zbekistonda bu muassasalarga bolalar yaslisi, yasli-bog'cha, bolalar bog'chasi kiradi. MTM 2 bosqichdan iborat. 1-bosqich bolalar yaslisi bo'lib, u 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu bosqichda bolalarni aqliy va jismoniy rivojlantirish, nutqini shakllantirish, ularni moddiy borliq, atrof-olam bilan tanishtirish hamda gigiyena masalalari bo'yicha amaldagi tayanch dastur asosida ta'lim-tarbiya beriladi. 2-bosqich bolalar bog'chasi bo'lib, 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu bosqichda bolalarning

nutqini rivojlantirish, ularning ma'naviy kamolotini ta'minlash, jismoniy jihatdan baquvvat bo'lishlari uchun yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshiriladi. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ham MTM mavjud bo'lib, ular maxsus dastur hamda texnik vositalar bilan ta'minlangan.

O'zbekistonda MTM ning moddiy texnika bazasi hamda metodik ta'minotini yaxshilashga qaratilgan bir qator qarorlar qabul qilingan. MTM uchun yaratilayotgan dasturlar va metodik qo'llanmalar pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari hamda davlat va jamiyat talablariga tayangan holda yaratilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda davlat va nodavlat MTM mavjud. Ular qaysi tashkilot qaramog'ida bo'lishidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi uni kadrlar bilan ta'minlaydi va faoliyatiga ilmiy-pedagogik jihatdan rahbarlik qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri:

- maktabgacha ta'lim muassasasi nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatadi, barcha muassasa va tashkilotlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;

- maktabgacha ta'lim muassasasi mol-mulkini o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tasarruf etadi;

- ishonchnomalar beradi;

- bank muassasalarida hisob raqamlari ochadi;

- maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarini ishga qabul qilish va joy-joyiga qo'yishni amalga oshiradi, rag'batlantiradi, intizomiy jazo choralari ko'radi va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalari (kontraktlari)ni to'xtatadi;

- o'z vakolatlari doirasida buyruqlar (farmoyishlar) chiqaradi;

- maktabgacha ta'lim muassasalarining ishlarini takomillashtirish, moddiy bazasini mustahkamlash, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun xalq ta'limini boshqarish yuqori organiga kiritadi;

- bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishning samarali tashkil etilishi, o'quv-tarbiya jarayoni, moliya-xo'jalik faoliyati ahvoli, moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi va moddiy boyliklarning saqlanishi uchun javob beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi pedagog xodimlari quyidagilarga majbur:

- bolalarni yuqori professional darajada o'qitish va tarbiyalash;

- pedagog axloq-odobiga rioya qilish, bolaning qadr-qimmatini hurmat qilish, bolalarni tazyiqdan himoya qilish, ularni mehnatga, ota-onaga hurmat, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

- o'z malakasini belgilangan tartibda, har uch yilda oshirib borish;

- o'zining kasbiy ko'nikmalarini va pedagoglik mahoratini doimiy ravishda takomillashtirish.

Pedagog xodimlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham olishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasasi uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichi, jamiyatning eng muhim ijtimoiy bo'limidir. Maktabgacha ta'lim muassasasi maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda ularning maktabga tayyorlashda yetakchi rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim gigiyenasi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanishi va sog'lig'iga hayotiy shart-sharoitlar hamda pedagogik jarayonning ta'sirini o'rganishga qaratilgan maktab gigiyenasining maxsus tarmog'i.

Maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilishda imtiyozlar. Quyidagi bolalar:

I va II guruh nogironlari;

ko'p bolali oilalarning bolalari;

harbiy xizmatchilarning bolalari;

talabalar va pedagoglarning bolalari maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilishda imtiyozlardan foydalanadilar.

Qabul komissiyasi, shuningdek ota-onalari maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda yordam bergan bolalarni istisno tarzida navbatdan tashqari qabul qilishi mumkin. Bunday bolalar kontingenti maktabgacha ta'lim muassasasi rejadagi quvvati umumiy sonining 20 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar – 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni anglatuvchi tushuncha. Bu yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'ladi. Bola rivojlanish jarayonida o'z ajdodlari tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, atrof-muhitdagi narsalar va hodisalar bilan muloqotga kirishadi. Bu bolada faoliyat mayllarining rivojlanishi yordamida amalga oshiriladigan hatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi

munosabatlarni egallab olishi, qobiliyatlarning o'sishida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda unga oilaning katta yoshdagi a'zolari va tarbiyachilar yaqindan yordam beradilar. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, oddiy gigiyena, madaniy va mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, nutqni rivojlantirish hamda ijtimoiy ahloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir.

Bog'cha yoshidagi bolaning ko'zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri uning harakatchanligi va taqlidchanligidir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir.

Bog'cha yoshidagi bola nutqni bir muncha to'la o'zlashtirgani tufayli unda o'ziga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish ehtiyoji tug'iladi. U tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydi. U endi qo'ni-qo'shnilarining bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladi, hamma narsani bilib olgisi keladi, u har narsani yangilik sifatida ko'rib, buni har tomonlama bilib olishga intiladi.

Bolaning hayotida va uning ruhiy jihatidan o'sishida qiziqishlar katta ahamiyatga ega. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolani muayyan faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab ruhiy hodisa deyish mumkin. Bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida u bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning irodasi, diqqati, e'tibori hamda muhim xislatlarni o'stirishi va mustahkamlashiga yordam beradi.

Bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari uning atrofidagi narsa va hodisalarga oid dunyoqarashi kengayib boradi.

U atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu yoshda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofda o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar qiladigan, o'zining kuchi etmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi.

Tarbiyachi bolaning qaysi hohish va talabi uning haqiqiy

ehtiyojini ifodalashini, qaysi talab va istagi esa amalga oshmaydigan shunchaki talab ekanligini farq qilishi lozim. Bu talab va istaklarning birinchisini qondirish, ikkinchisini esa sekin-asta, bolaga tushuntirib rad qilish kerak. Eng yosh chog'ida bola ijtimoiy hayot me'yorlariga muvofiq kelmaydigan istak va talablar bildirishga o'rganib qolsa, katta bo'lganda bu odatini tashlashi ancha qiyin kechadi.

Bola istaklarini qondirishning birdan bir yo'li o'yindir. Shu bilan bir qatorda bu davrda bolaning rivojlanishida musiqa, rasm chizish, raqsga tushish kabi faoliyat turlari uning hissiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Bu davrda 2 yashar bolaning so'z boyligi taxminan 250 – 300 tagacha; 3 yashar bolani 1000 – 1500 tagacha; 7 yashar bolaning so'z zaxirasi 4000 taga etishi kerak.

Buning uchun ota-onalar va tarbiyachilar hamkorlikda bolaning nutq boyligini o'stirish, ularda so'z ma'nolari va nutq tovushlarni bir-biridan farqlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning kundalik faoliyatlari hamda hissiy kechinmalarini muntazam rag'batlantirishlari kerak.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar jamoasi – muayyan o'zaro munosabatlar tizimi (o'yin, hayotiy masalalar) yoki umumiy mashg'ulot turi asosida birlashgan kichik yoshdagi bolalar guruhi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni o'qitish va tarbiyalash davlat tilida va Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq boshqa tillarda olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida guruhlar soni muassasaning quvvatidan va guruhlarning rejali to'ldirilishidan kelib chiqib muassis tomonidan quyidagicha belgilanadi:

2 yoshdan 3 yoshgacha – kamida – 15 bola, biroq 20 boladan ortiq emas;

3 yoshdan 6-7 yoshgacha – kamida – 20 bola, biroq 25 boladan ortiq emas.

Ixtisoslashtirilgan va sanatoriy yo'nalishidagi maktabgacha ta'lim muassasalarida guruhlarning to'ldirilishi bolalarning toifasiga va yoshiga (ikki yoshdan boshlab va uch yoshdan katta yoshdagilar) qarab belgilanadi va tegishli ravishda quyidagichani tashkil etadi:

- nutqi og'ir nuqsonli bolalar uchun – 10 –12 bola;
- nutqi fonetik-fonematik nuqsonli bolalar uchun faqat uch yoshdan katta yoshdagi bolalar uchun – 12–15 bola;

- kar bolalar uchun – 8 bola;
- yaxshi eshitmaydigan bolalar uchun – 10 –12 bola;
- ko‘zi ojiz bolalar uchun – 6 bola;
- yaxshi ko‘rmaydigan bolalar, ambliopiyali, g‘ilay bolalar uchun – 6 – 10 bola;
- tayanch-harakatlanish a‘zosi buzilgan bolalar uchun – 6 – 10 bola;
- intellekti buzilgan (aqliy noraso) 3 yoshgacha bolalar uchun – 6 bola;
- uch yoshdan katta yoshdagi aqli zaif bolalar uchun – 10 bola;
- sil intoksikatsiyasi mavjud bo‘lgan bolalar uchun – 15 –20 bola;
- tez-tez kasallanib turadigan bolalar uchun – 15 –20 bola;
- murakkab nuqsonli (ikki va undan ortiq nuqsonli) bolalar uchun – 8–10 bola;
- rivojlanishida boshqacha nuqsonlari (endokrin kasalliklar) mavjud bo‘lgan bolalar uchun – 15 – 20 bola.

Maktabgacha ta’lim muassasasida ovqatlanishni tashkil etish maktabgacha ta’lim muassasasiga yuklanadi hamda O‘zbekiston Respublikasida tasdiqlangan sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida ta’lim jarayonining qatnashchilari. Maktabgacha ta’lim muassasasida bolalar, ota-onalar yoki ularning o‘rni bosuvchi shaxslar va pedagog xodimlar ta’lim jarayonining qatnashchilari hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida to‘lov miqdori. Bolalarning maktabgacha ta’lim muassasasida bo‘lishi uchun to‘lov miqdori va uni to‘lash tartibi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. To‘lov belgilangan tartibda bank muassasalarida ochilgan hisob raqamlariga to‘lanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida o‘quv yili har yili 2 sentyabrdan boshlanadi, keyingi yilning 1 iyunida tugallanadi va yangi o‘quv yili boshlangunga qadar sog‘lomlashtirish davri boshlanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasining asosiy vazifalari. Maktabgacha ta’lim muassasasi ta’lim-tarbiya va sog‘lomlashtirish muassasasi hisoblanadi, quyidagilar uning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog‘lig‘ini mustahkamlash;

- bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish;

- bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta‘minlash;

- bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;

- bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;

- bolalarni maktabda o‘qishga tayyorlash.

Maktabgacha ta‘lim muassasasining ish rejimi va bolalarning u yerda qancha vaqt bo‘lishi maktabgacha ta‘lim muassasasi ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi. Maktabgacha ta‘lim muassasasi (guruh)ning kunduzgi va kechki vaqtlarda hamda kechayu kunduz faoliyat ko‘rsatishiga yo‘l qo‘yiladi.

Maktabgacha ta‘limning vazifalari: bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma‘naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik xislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta‘lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o‘zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘ini ta‘minlashdan iborat.

Maktabgacha ta‘limning maqsadi: bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta‘lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq sog‘lom va yetuk, maktabga o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish.

Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi – pedagogikaning maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berish hamda ularning shaxsiyatini shakllantirish qonuniyatlari, prinsiplari, vositalari, shakl, usul va metodlarini o‘rganuvchi sohasi. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi bola psixologiyasi, yosh anatomiyasi va fiziologiyasi, tibbiyot, gigiyena, shuningdek, tilshunoslik, nafasat tarbiyasi, axloq fanlari bilan uzviy bog‘liq. 19-asrning 2-yarmida umumiy pedagogikadan ajralib chiqqan. Bu bir tomondan yosh psixologiyasining rivojlanishi va ilmning alohida tarmog‘i sifatida namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan ayollarning fabrika va zavodlarga jalb etilishi natijasida bolalar muassasalarining

vujudga kelishi bilan izohlanadi. Ingliz utopik sotsialisti R.Ouen birinchi bo'lib bolalarga ilk yoshdan ijtimoiy tarbiya berish g'oyasini asoslab berdi va proletar bolalari uchun maktabgacha yoshdagi bolalar muassasasini ochdi. Xuddi shu vaqtdan boshlab maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanning maxsus tarmog'i sifatida shakllandi va rivojlana boshladi. 20-asr boshlarida erkin tarbiya jarayonida bola shaxsiyatini rivojlantirish g'oyasi keng tarqaldi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasining asosiy vazifasi – maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning mazmun, shakl va metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining metodologik asosini dialektik bilish nazariyasi hamda shaxsning evolyusion tarzda taraqqiy etish qonuniyatlari, O'zbekiston Respublikasining 1997 yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy merosi hamda bola tarbiyasiga oid tarixiy tajribasi, ilg'or mamlakatlardagi pedagogik qarashlar, pedagogika psixologiya, falsafa, etika, estetika, tilshunoslik, tibbiyot, odam fiziologiyasi va gigiyenasi, antropologiya kabi fanlarning ilmiy asoslari, xulosalari hamda qonuniyatlari tashkil qiladi.

Malaka – bajarilishi yod bo'lib ketgan, takomillashgan ko'nikmalar tizimi

1) psixologiyada – muayyan kasb, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat.

2) Huquqda – ishni bajarish uchun qanday kasb qay saviyada egallaganligini ko'rsatuvchi daraja.

Maxsus tayyorgarlik bolani savodxonlikka o'rgatish va uning maktabning 1-sinf o'quv dastur materialini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi.

Mashg'ulotlar – MTMda o'qitishning tashkil etish shaklidir. Ular maktabgacha tarbiya yoshidagi hamma bolalar uchun majburiy; ular uchun dastur mazmuni belgilangan, kundalik rejimida doimiy vaqt ajratilgan, ularning qancha vaqt davom etishi tayinlangan.

Mashg'ulot tarbiyachi tomonidan bolalarga kerakli bilim va malakalarni umumiy holda xabardor qilish demakdir.

Mashg'ulotni tuzilishi:

- bolalarni uyushtirish
- asosiy qism
- yakuniy qism

Metod – boshqarish usuli.

MTMlarda bolalarni maktabga tayyorlash. MTMlarda bolalarni rivojlanishi va maktabga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshadi:

Bolalar nutqini rivojlantirish

Jismonan rivojlantirish

Ma'nan rivojlantirish

Mudira - maktabgacha tarbiya muassasasining tashkilotchisi rahbari, malakali pedagog uning faoliyati maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli xalq etishga qaratilgan. U bolalar muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik maqsadiga qaratilgan va inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Mudira o'z ishida-davlatimiz va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglik va siyosiy yetuklik, prinsiplilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik. Bu mudiraga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Mudiraning tashkiliy – pedagogik ishlarini rahbarligi.

Tashkiliy - pedagogik jarayonlarga quyidagilar kiradi.

1) Bayram ertaklarini o'tkazish va rahbarlik.

2) Ochiq tadbirlarni tashkil etish va rahbarlik qilish, ochiq tadbirlar va pedagogik jarayonlarni jamoa asosida kuzatish va tahlil qilish.

Masalan, ochiq mashg'ulot, sayrlarni kuzatish.

3) Xalq ta'limi bo'limlari tomonidan berilgan topshiriq asosida tarbiyachi va bolalarni ko'rik-tanlovlarga qatnashishi, yil tarbiyachisi, san'at bayrami, sport bayramlarini o'tkazish.

Mudiraning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga rahbarligi quyidagilar:

a) har bir guruhdagi ta'lim-tarbiyaviy reja asosida ishlarni kuzatish va tahlil qilish, tarbiyachining ish hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish guruhning ta'lim-tarbiyaviy ish rejasi, diagnostika daftari: bu o'tkazilgan ishlarning hisobotidir.

b) guruhning jihozlanishini, bunda guruhlarga qarab burchaklar soni takomillashib boradi.

Mudira har kvartalda bir marta umumiy ota-onalar majlisini

tashkil etadi. Majlisni ota-onalar komitetining raisi olib boradi yoki yordam beradi. Mudira 1 xaftada 3 marta ota-onalarni qabul qiladi. Bunda ota-onalar tomonidan ba'zi bir muammo kamchiliklar bilan bolalar tarbiyasiga oid muammolar xal etiladi.

Muammo – har qanday tizimda mavjud va zarur bo'lgan holatdan chetga chiqishni tavsiflovchi vaziyat (voqelikni)ni anglatadi.

Normativ xujjat – normalar qoidasiga asoslangan hujjatdir.

Masalan: Bolalarning yoshi bo'yicha yosh guruhlariga to'g'ri taqsimlash, xodimlarni shtat normasi bo'yicha ishga qabul qilish, smeta bo'yicha xarajatlarni taqsimlash – sarflash, bolalarning ovqatlantirish normalari, tarbiyachilarning oylik ish haqlari va x.k. iborat.

Rivojlanish – bu insonning ruhiyati va organizmidagi sifatiy o'zgarishlaridir. Bu o'zgarishlar ijtimoiy muhit, uy-joy sharoitlari, uni qurshab turgan kishilarning ta'siri natijasida yuz beradi.

Rivojlanish – bu obyektiv jarayon bo'lib, tashqi va ichki boshqariluvchi omillar tomonidan miqdor va sifat jihatidan fizik va ma'naviy shakllanish, ya'ni, shaxsning fazilatlar, sifatlar va xulqlarning shakllanishi, tushunchalarning chuqurlashishi, kengayishi, osondan - qiyinga, oddiydan - murakkabga, mavhumdan - bilishga, oddiy hayot kechirish shakllaridan - oliy faoliyatga o'tish jarayonidir.

Rivojlanish sohasi (Domen) – bola shaxsi rivojlanishining jabhalari sifatida belgilanadi va odatda aniq bir yo'nalishda o'z aksini topadi. Bundan tashqari har bir alohida soha ichida ayrim aniq yo'nalishlar rivojlanishiga tegishli bo'lgan bo'limga ajratiladi (masalan, "jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena yo'nalishdagi "mayda motorikani rivojlantirish bo'limi")

Talab – aniq yosh davrida bolalar bilishi va bajara olishi shart bo'lgan talablar majmui

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi.

Ta'limga yondashuv – kattalarning bolalar bilan ta'lim

jarayonini tezlashtirish va talabni egallashga yo'naltirish maqsadida, uy yoki maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiradigan faoliyat turlari. Ushbu chora-tadbirlar mazkur talabni o'zlashtirish va bajarishga yo'naltirilib, aksariyat hollarda ta'lim olish jarayoniga qiziqtirish uchun kattalar va bolalarning birgalikdagi harakatlari bo'lishi lozim.

O'qish – bilish, mashq va tajribalarni egallash orqali xulq va faoliyatning yangi shaklini paydo bo'lish jarayoni

Hayot xavfsizligi – berilgan talablar doirasida turli ko'rinishdagi rivojlantiruvchi faoliyatlar uchun xavfsiz muhitni tashkil etishga oid tavsiyalar

Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy xodisalarga, shaxsiy madaniyatni shakllanganligini nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2707 sonli qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturini bajarish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi”

3. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori // O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 11-modda. T.: O‘zbekiston, 1997. B.23

4. “Bolajon” tayanch dasturining takomillashtirilgan varianti – Toshkent – 2016 y.

5. “O‘zbekistonda bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb etish borasidagi islohotlar: yutuq va muammolar” mavzusidagi respublika konferensiyasi materiali. 2015.

6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 173 b.

7. Karimov I.A. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti: Xalqaro konferensiya materiallari. – T.: O‘zbekiston, 2012. – 184 b.

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.

9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

10. Авилова Е.А. Влияние педологии на становление и развитие дошкольного воспитания в 20-30-е гг // Управление ДОУ. – Москва, 2007.- №8, с.110

11. Adamova O‘.K. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘ziga xosligi //

http://fikir.uz/blog/Fikr_maktabgacha_talim/7611.html

12. Буре Р.С., Островская Л.Ф. Воспитатель и дети. М., 2003.

13. Bo‘taeva U., K.Oqilova. Maktabgacha yoshidagi bolalarni shakllantirishda o‘yin-mashg‘ulotlarning o‘rni // metodik tavsiyanoma Samarqand 2009 y. 24 b.

14. Васильева Н.А. Проблема развития социальной жизни ребенка в истории зарубежной дошкольной психологии // Управление ДОУ. – Москва, 2010. №2, с.102

15. Волобуева Л.М. Домашние детские сады начала XX в // Управление ДОУ. – Москва, 2008. № 3, с. 102

16. Волобуева Л.М. Организация подготовки детей к началу школьного обучения: история и современность // Управление ДОУ. – Москва, 2008. № 1, с. 98

17. Волобуева Л.М. Старший воспитатель: история и современность // Управление ДОУ. – Москва, 2008. №5, с.108

18. Волобуева Л.М., Калабухова Н.А. Дошкольники в системе дополнительного образования // Управление ДОУ. – Москва, 2006. №5, с.102

19. Голдовская А.А. Становление системы ведомственных детских садов в Москве // Управление ДОУ. – Москва, 2009. № 4, с. 98

20. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi.– T.: O‘zbekiston, 1999. – 29 b.

21. Добромыслова О.А. Из истории использования дидактических материалов // Управление ДОУ. – Москва, 2009. № 6, с. 108

22. Жирнова Н.Н., Авилова Е.А. Отечественные педагоги конца XIX – начала XX в. о роли дидактической игрушки в

- воспитании детей раннего и дошкольного возраста // Управление ДОУ. – Москва, 2009. № 7, с. 96
23. Zaynitdinova D. “Harakatli o‘yinlar”. T.: 2006
 24. Зверева О.Л. Детский сад и семья: первые годы революции и современность // Управление ДОУ. – Москва, 2002. № 4, с. 110
 25. Кирстен А., Хансен, Роксана К. Кауфманн, Кейт Берк Уолш. Болага мўлжалланган дастурни ташкил этиш // Сўз боши Памела А.Коглинники/ Тошкент 2005. 246 б.
 26. Kiese-Himmel, Christiane; von Steinbuechel, Nicole; Gibbons, Henning. Assessment of Social-Communicative Behaviour Problems and Expression of Emotions in Three-to Six-Year Old Children in Nursery School and Kindergarten // PRAXIS DER KINDERPSYCHOLOGIE UND KINDERPSYCHIATRIE. – GERMANY. – 2016. Том: 65. Выпуск: 3. Стр.: 181-199. <http://webofscience.com>.
 27. Kodirova F.R., M.Fayzullaeva. “Katta guruh tarbiyachilari uchun nutq o‘stirish mashg‘uloti ishlanmalari” (metodik qo‘llanma) T.: 2007.
 28. Kodirova F.R., M.Fayzullaeva, M.Rustamova. “Tayyorlov guruh tarbiyachilari uchun nutq o‘stirish mashg‘uloti ishlanmalari” (metodik qo‘llanma) T.: 2010.
 29. Kodirova F.R., R. M.Qodirova “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi” Toshkent – 2006.
 30. Kodirova F.R., R.M.Qodirova “Maktabgacha yoshdagi bolalarni ikkinchi tilga o‘rgatish metodikasi” Dastur va o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2007.
 31. Кононова И.М. К истории педагогики раннего возраста (обзор исследований по педагогике раннего возраста) // Управление ДОУ. – Москва, 2003. № 3, с. 118
 32. Кузнецова Т.Ф. Педагоги прошлого о профессии воспитателя // Управление ДОУ. – Москва, 2009. № 1, с. 102
 33. Купецкова Е.Ф. Научное наследие А.В. Запорожца // Управление ДОУ. – Москва, 2005. № 6, с.114
 34. Leonidova, G.V., Svirelkina I. I. Non-State Preschool Education: Current Practices of Territorial Development // ECONOMIC

AND SOCIAL CHANGES-FACTS TRENDS FORECAST. RUSSIA. – 2016. Том: 43. Выпуск: 1. Стр.: 138-152. <http://webofscience.com>

35. Ljubetic, Marta; Simlesa, Sanja. Early Childhood Inclusion in Croatia. INFANTS & YOUNG CHILDREN // INFANTS & YOUNG CHILDREN. – USA. JUL-SEP 2016. Том: 29 Выпуск: 3. Стр.: 195-204. <http://webofscience.com>.

36. Макаренко А.С. О воспитании. // Золотой фонд педагогики – М.: Школьная пресса, 2003.- 192 с.

37. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent – 2008.

38. Mahkamjonov K.M., M.Sh.Rasuleva va bosh. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy va kengaytirilgan jismoniy tarbiyasi", "Ilm Ziya" nash. T.: 2006

39. Mirdjalilova S., R.To'laganova "Ta'limda innovatsiya", "Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar" metodik tavsiyanoma, 2008.

40. Mo'minova L.R. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi" Toshkent-1996.

41. Nazarova F. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik xizmat va me'yoriy hujjatlar", 2007.

42. Rasulova M. va b. "Uchinchi ming yillikning bolasi" tayanch dasturi. T: 2002.

43. Safarova R. va boshqalar "Savod o'rgatish darslari", Toshkent: - 2003.

44. Secer, Zarife; Ogelman, Hulya Gulay; Onder, Alev. Analysing the peer relationships of obese and normal-weight preschool children aged between five and six years// EUROPEAN EARLY CHILDHOOD EDUCATION RESEARCH JOURNAL. – ENGLAND. – OCT 20 2015. Том: 23. Выпуск: 5. Стр.: 589-603. <http://webofscience.com>

45. Slabe, Damjan; Fink, Rok; Dolenc, Eva; и др. KNOWLEDGE OF HEALTH PRINCIPLES AMONG PROFESSIONALS IN SLOVENIAN KINDERGARTENS // ZDRAVSTVENO VARSTVO. – SLOVENIA. SEP 2016. Том: 55 Выпуск: 3 Стр.: 185-194. <http://webofscience.com>.

46. Turg'unov S.T., Axmadjonova N.M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyati algoritmi. // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2012. – №1. – B. 133-134

47. Usmonxo'jaev T.S., Islomova S.T. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya" "Ilm Ziyo" nash. T.: 2006

48. Ушакова О.С. ва б. "Занятия по развитию речи в детском саду" – Москва:-1999.

49. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. Qodirova F.R., Qodirova R.M., Vahobova F.N. – T.: 2008.

50. Fayzullaeva M., Z.Rahimova, M.Rustamova Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish // (Tayyorlov guruhi uchun mashg'ulotlar ishlanmasi) Toshkent, 2011. 147 b

51. Sharipova D. "Agar bolam sog'lom bo'lsin desangiz" va boshqalar (Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigienik tarbiyasi haqida) Metodik qo'llanma. T.: 2006.

52. Sharipova D.J. "Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida" Ilm Ziyo nash. T.: 2007

53. Shodmonova Sh., "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" Toshkent: - 2003.

54. Hachfeld, Axinja; Anders, Yvonne; Kuger, Susanne; и др. Triggering parental involvement for parents of different language backgrounds: the role of types of partnership activities and preschool characteristics // EARLY CHILD DEVELOPMENT AND CARE. – ENGLAND. 2016. Том: 186. Выпуск: 1 Специальный выпуск: SI. Стр.: 190-211. <http://webofscience.com>.

55. <http://uznet.biz/bolajonim/psixologiya/6-yoshli-bolalarni-maktabga-tayyorligini-aniqlash-boyicha-metodik-tavsiya>

56. http://fikir.uz/blog/Fikr_maktabgacha_talim/7611.html

57. Материал из Википедии – свободной энциклопедии

58: <https://vseobr.com/detskoe-obrazovanie/doshkolnoe>

59. <http://www.educationsystems.info/>

MUNDARIJA

Kirish	3
I MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR	
BOB. TA'LIM-TARBIYASINING ZAMONAVIY	
 TENDENSIYALARI	
1.1 Maktabgacha ta'lim mazmunini integratsiyalashning	
 pedagogik zaruriyati	5
1.2 Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tarbiyasida ota-	
 onalar bilan samarali hamkorlik va shaxsga yo'naltirilgan	
 yondashuv	15
1.3 Maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari	
 (xorijiy tajribalar asosida)	
	34
II MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA	
BOB. TASHKIL ETILADIGAN PEDAGOGIK	
 JARAYONLAR	
2.1 Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan	
 pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari	73
2.2 Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan	
 pedagogik jarayonlar hamda ularning sifati va	
 samaradorligini takomillashtirish	84
2.3 Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagogik kadrlarini	
 boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	100

III	MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA	
BOB.	TASHKIL ETILADIGAN PEDAGOGIK	
	JARAYONLARNING IJTIMOIIY-KOMMUNIKATIV	
	YO'NALGANLIGI	
3.1	Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o'zbek milliy pedagogikasi asosida insonparvarlik-axloqiy sifatlarni shakllantirish	107
3.2	O'yin – bolaning ijtimoiy moslashuv omili sifatida	121
	Xulosa	136
	Maktabgacha ta'limga oid asosiy tushunchalarning izohli lug'ati	138
	Foydalanilgan adabiyotlar	152

**B.R.Djurayeva, X.A.Umarova, X.M.Tojiboyeva,
G.M.Nazirova**

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM
JARAYONI SIFATI VA SAMARADORLIGINI
TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI**

*Muharrir M. Tolipova
Musahhih G. Tolipova
Sahifalovchi B. Haydarov*

Toshkent – 2017
“Lesson Press” nashriyoti

Nashriyot litsenziyasi AI № 276. 15.06.2015 y.
Bosishga ruhsat etildi: 20.12.2017 y. Bichimi: 60x84
¹/₁₆. RIZO bosmausuli. Shartli b.t. 10,0.
Adadi: 250 nusxa. Buyurtma №11/01.

“Lesson Press” nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
Manzil: 100071. Toshkent shahri, Kamolon ko‘chasi,
Erkin tor ko‘chasi, 13.